



U. QOSIMOV, L. SINDOROV,  
M. NIZOMOVA

**ADABIYOTIMIZ  
SAHIFALARI**





USMON QOSIMOV, LUTFULLA SINDOROV,  
MA'RIFAT NIZOMOVA

# ADABIYOTIMIZ SAHIFALARI

Adabiy-uslubiy qo'llanma

Qosimov Usmon, Sindorov Lutfulla, Nizomova Ma'rifat  
Adabiy-uslubiy qo'llanma  
Toshkent, 2017  
20.02.2017

Toshkent  
«IQTISOD-MOLIYA»  
2017

**Taqrizchilar: prof. Olimjon Jo'raev;**  
**dots. Dilbar Soatova**

**Adabiyotimiz sahifalari:** Adabiy-uslubiy qo'llanma /  
U.Qosimov, L.Sindorov, M.Nizomova; – T.: «Iqtisod-Moliya»,  
2017. – 160 b.

Qo'llanmada Navoiy adabiy-estetik qarashlari, an'analari va badiiy til mahorati va milliyligi Abdulla Qodiriy, G'afur G'ulom, Hamid Olimjon, Abdulla Qahhor, Mirtemir, Usmon Nosir va Zulfiya asarlari misolida yoritiladi. Sharof Rashidov, Erkin Vohidov va Azim Suyun ijodi ham davr va Istiqlol bilan bog'lab o'rganiladi. Shuningdek, Adabiyot darsliklari xususida xam bahs yuritiladi.

Filolog-mutaxassislar, talabalar, maktab, akademik litsey va kollejlarning o'qituvchi va o'quvchilariga mo'ljallangan.

**Abdulla Qodiriy nomli Jizzax davlat pedagogika instituti**  
**Ilmiy kengashi tomonidan nashrga tavsiya etilgan**

## **NAVOIYNING ADABIY-ESTETIK QARASHLARI HAQIDA**

Buyuk soʻz sanʼatkori, ulugʻ mutasavvuf shoir va mutafakir Alisher Navoiy, eng avvalo, oʻzining benazir shaxsiyati va ijodining favqulodda boy va rang-barangligi bilan ilmu fazl ahli hamisha hayratga solishi tabiiy. Koʻp asrlik taraqqiyot yoʻlini bosib oʻtgan soʻz sanʼati va jahon estetik tafakkuri nodir isteʼdodlarga, ilmiy-badiiy moʻjiza va kashfiyotlarga boy olam. Binobarin, Alisher Navoiyga qadar va Navoiydan soʻng ham badiiy ijod va estetik tafakkurining u yoki bu sohalarida noyob asarlar yaratib, olamshumul shuhrat qozongan koʻplab ulugʻ adib va allomalar oʻtishgan. Chunonchi, oʻzining yorqin isteʼdodli va yuksak ijodkorlik salohiyati bilan jahon adabiyoti va nafosat ilmi rivojiga ulkan hissa qoʻshgan Aristotel, Abdurahmon Jomiy, Bualo, Gyote, Pushkin, Lev Tolstoy, Maksim Gorkiy va Abdurauf Fitrat singari mashhur adib va mutafakkirlarning badiiy ijod hamda estetikaning muayyan sohalaridagi nodir asarlari ilmiy-adabiy jamoatchilik tomonidan hanuzgacha hurmat bilan tilga olishini bejiz emas.

Lekin ham badiiy ijodda, ham adabiy-estetik tafakkur olamida Alisher Navoiy kabi tengsiz kashfiyotlar yarata olish baxti hamma ulugʻ adib va olimlarga ham nasib etavermaydi. Zero, Alisher Navoiy badiiy ijod qahkashonida nechogʻlik yuksak darajaga koʻtarilgan boʻlsa, jahon adabiy-estetik tafakkur olamida ham shu qadar yuksak bir mavqeni egallaydi desak, haqiqatga xilof boʻlmaydi. Bu muhim haqiqat, eng avvallo, shunda namoyon boʻladiki, badiiy adabiyotning ijtimoiy-estetik mohiyati va uning oʻziga xos xususiyatlari toʻgʻrisida Navoiychalik koʻp, chuqur izchil fikr-mushohada yuritgan

mutafakkir san'atkor jahon adabiyoti va madaniyati tarixida ham kamdan-kam topiladi. Navoiyning jahon sivilizatsiyasi oldidagi buyuk xizmatlaridan biri ham shundaki, u o'z davri adabiyoti, tanqid va adabiyotshunosligining eng dolzarb, eng muhim muammolarini g'oyat hozirjavoblik hamda o'ziga xos nuktadonlik bilan hal etib bera oldi. Ulug' mutafakkirning badiiyat, tanqid va adabiyotshunoslik borasida ko'p yillik ilmiy-ijodiy izlanishlari va salmoqli asarlarining samarasi o'laroq, XV asrda badiiy ijod va estetika sohasida yaxlit bir ta'limot vujudga keldi va bu ilhombaxsh ta'limot so'z san'ati va nafosat ilmining keyingi asrlardagi taraqqiyoti uchun ham bamisoli bir yo'lchi yulduz bo'lib xizmat qilib kelayotganligini faxr bilan ta'kidlash lozim.

Xo'sh, jahon estetik tafakkurining yuksak bir cho'qqisi sanalgan Navoiy adabiy-estetik qarashlari silsilasida asosiy o'rin tutuvchi muhim muammolar nimalardan iborat va ular bugungi adabiy-tanqidiy jarayon hamda ma'naviy-estetik tafakkur rivojida qanday ahamiyat kasb etadi? Albatta, bu mavzuni keng yoritish ko'plab jiddiy tadqiqotlarni talab etadi. Kezi kelganda, shuni alohida ta'kidlab o'tish joizki, ylyg' shoir hayoti va ijodini o'rganish borasida adabiyotshunosligimizda erishilgan yutuqlar ozmuncha emas. Xususan, navoiyshunosligimizning tamal toshlarini qo'yib ketgan Oybek, Sadriddin Ayniy, G'afur G'ulom, Hamid Olimjon, Shayxzodalardan boshlab, yirik adabiyotshunoslarimizdan Olim Sharafiddinov, Izzat Sulton, Hamid Sulaymon, Vohid Abdullayev, O'zbekiston Qahramoni Suylma G'aniyeva, Porso Shamsiyev, Vohid Zohidov, Natan Mallayev, Abduqodir Hayitmetov, Aziz Qayumov, Botirxon Vullxo'jayev, Alibek Rustamov kabi taniqli allomalarimizning bu qutlug' mavzuni yoritishdagi fidoiylilik va jonbozliklari tahsinga loyiqdir.

Chunki sobiq sho'ro davrida boy tariximiz va adabiyotimizni xolisona o'rganishga deyarli imkoniyat berilmagan va bunday

harakatlar "o'tmishni ideallashtirish", "millatchilik" deya taqiqlab kelingan. Masalan, Navoiy ijodi va shaxsiga alohida mehr va e'tiqod qo'ygan va buyuk shoirga bag'ishlab, qator she'r-doston va roman yaratgan Oybekning boshiga qanchalar ko'p nohaqliklar tushganligini va oqibatda xastalanib qolganligini hozirgi yoshlarimiz bilmasligi mumkin.

Holbuki, 20-30-yillarda ijtimoiy-siyosiy vaziyat va adabiy muhitning qanchalik murakkab va ziddiyatli bo'lganligi ham e'tiborga olinsa, Oybek asarlarining nechog'lik hozirjavoblik bilan va katta ijodiy jasorat bilan yaratilganligi va ularning yuksak ilmiy-estetik ahamiyati yanada yorqinroq namoyon bo'ladi. Bu jihatdan atoqli tanqidchi va adabiyotshunos, O'zbekiston Qahramoni Ozod Sharafiddinov ning quyidagi fikri diqqatga molik: "30-yillarda adabiyot tarixini izchillik bilan yoritgan, o'tmishdagi yirik shoirlar faoliyatini ilmiy asosda mukammal ochib bergan bironta ham tadqiqot yo'q edi". Darhaqiqat, sobiq sho'ro davrida, xususan, 30-40-yillarda ham hukmron sotsialistik mafkuraning tazyiqi o'laroq, mumtoz adabiyotimiz tarixiga, hatto Navoiydek daho san'atkorlar ijodi va dunyoqarashiga nisbatan ham o'ta biryoqlama va salbiy qarashlar ustuvorlik qilar edi. Ana shunday noxolis qarashlar va salbiy munosabatlar oqibatida tariximiz va milliy qadriyatlarimiz, asosan, qoralanib va kamsitib kelingan. "Inqilobgacha bo'lgan davrda o'zbek adabiyoti xon va beklar uchun yozilgan saroy she'riyatidan yoki diniy mazmundagi asarlardangina iborat bo'lgan", -deya qoralanib, uni inkor etishgacha borib yetilgan. Ana shunday murakkab va ziddiyatli-30-yillarda ustoz adabiyotshunoslar tomonidan yozilgan va Navoiy adabiy merosini o'rganishga bag'ishlangan salmoqli tadqiqotlari va ulug' shoir hayoti va ijodi keng o'rganilgan adabiy-tanqidiy asarlari bamisoli tafakkur yog'dulari kabi ulkan tarixiy haqiqatni ilmiy asosda chuqur yoritib berganligi bilan ham qimmatlidir.

Shu munosabat bilan atoqli sharqshunos olimlardan biri, Navoiy hayoti va ijodi haqida birinchilardan bo'lib yirik asar yaratishga muvaffaq bo'lgan Ye.E.Bertelsning quyidagi samimiy e'tirofini keltirish o'rinli bo'ladi: "Agar men o'zbek mumtoz adbiyotining Oybek va G'afur G'ulomdek zukko bilimdonlari bilan muloqot qilmaganimda, Navoiy ijodining juda ko'p muhim jihatlarini to'g'ri anglab yetmagan bo'lar edim va buning uchun men ulardan cheksiz minnatdorman..." Darhaqiqat, Navoiy ijodi va Navoiy siymosi ko'plab adib va olimlarimiz kabi Oybek uchun ham bamisoli bir quyosh bo'lgan va hamisha uning hayotbaxsh nurlaridan bahramnd bo'lib, tuganmas ijodiy ilhom olgan. Oybekning Navoiy siymosi va ijodini mufassal o'rganishga bag'ishlangan va butun umri mobaynida izchil davom etgan izlanish-tadqiqotlari va yaratgan ilmiy-badiiy asarlari shu qadar salmoqli va nufuzli ediki, bular Oybekni haqli ravishda navoiyshunoslikning ta'mal toshini qo'yganlardan biri deya, faxr bilan e'tirof etishga to'la asos beradi.

Alisher Navoiyning favqulodda nodir talanti va boy ijodiyoti boshqa xalqlar o'rtasida ham beqiyos shuhrat qozonadi va ko'plab shoirlar Navoiyni faxr bilan o'zlariga ustoz deb bilishadi. Jumladan, Lohutiy, Mirzo Tursunzoda, Mo'min Qanoat, Mirsaid Mirshakar kabi tojik shoirlari, Fuzuliy, Kishvari, Mirza Fatali Oxundov, Ali Akbar Sobir va Samad Vurg'un kabi ozarbayjon adiblari, Maxtumquli va Zelili kabi turkman shoirlari, qozoq oqini Abay, qoraqalpoq shoiri Berdaq va Ibrayim Yusupov, tatar shoirlari – Abdulla To'qay, Qayum-Nosiriy va boshqa taniqli shoirlar Navoiyning nomini hurmat va minnatdorlik bilan tilga olib, uning daho san'atkorligiga va olamshumul ijodiga yuqori baho beradilar, ayrim asarlariga naziralar ham bitadilar. Masalan, Navoiy ijodidan saboq olgan va undan ilhomlangan mashhur ozarbayjon shoiri Fuzuliy Navoiyni o'ziga ustoz deb bilib, uning ko'rkam she'r-dostonlaridan ta'sirlanib, go'zal asarlar yaratgan.

Navoiy o'zining butun jo'shqin faoliyatini va serqirra ijodiyotini insoniyatning baxt-saodati uchun kurashdek olijanob va xayrli ishlarga bag'ishladi va hamisha xalqning tinch va osoyishtaligiga, o'zaro feodal urushlarni bartaraf etishga, el-yurtning obodonchiligi, ilm-fan, adabiyot va san'at rivoji uchun fidokorona xizmat qildi. Alisher Navoiy, Jomiy va B.M. Bobur, Davlatshoh Samarqandiy va boshqa zamondoshlari haqli ravishda e'tirof etganlaridek, buyuk insonparvar shoir va mutafakkir, davlat va jamoat arbobi bo'lib tanildi. U o'zbek mumtoz adabiyotini yangi va beqiyos taraqqiyot bosqichiga ko'tardi, o'zbek tilining go'zalligi va boyliklarini jahonga namoyish etdi va bebaho badiiy, tarixiy va ilmiy asarlar yaratish bilan birga o'z davrining adabiy-madaniy hayotiga rahnamolik qildi va ilm-u fan, san'at va adabiyot ahllariga ulkan homiy va ko'plab iste'dodli shogirdlar yetishtirgan buyuk ustoz sifatida cheksiz mehr-ehtiromga sazovor bo'ldi.

"Alisherbek naziri yo'q kishi edi, – deb yozadi Z.M.Bobur, - Turkiy til bila to she'r aytubdurlar, hech kim oncha ko'p va xo'b aytqon emas... Ahli fazl va ahli hunarg'a Alisher bekcha murabbiy va muqavviy ma'lum emaskim, hargiz paydo bo'lmish bo'lg'ay. ("Boburnoma", 233-bet). Darhaqiqat, o'zining benazir siymosi va olijanob insoniy fazilatlari bilan boshqalarga ibrat bo'la olishda va iste'dod ahliga ko'rsatgan ulkan homiyligida Alisher Navoiy darajasidagi mashhur shaxs dunyo xalqlari tarixida ham topilmaydi desak, aslo mubolag'a bo'lmaydi. Zero, Navoiy ijodi shunday tengsiz bir ummonki, endilikda undan bahramand bo'lmagan, uning beqiyos, yuksak badiiy mahorati va betakror so'z san'atkorligidan ta'sirlanmagan va undan ilhom olmagan adib butun turkiy xalqlari adabiyotida bo'lmasa kerak. Binobarin, bu -Navoiy ijodi, shubhasiz, umumbashariy ahamiyat kasb etganligidan yorqin dalolatdir.

Bu kabi yuksak e'tiroflar zahirida Navoiy ijodining hayot kabi rang-barang g'oyaviy mazmundorligi va ulug' mutafakkir

shoirning, o'zi aytganidek, "so'z Lashkari", ya'ni she'r va dostonlarining sehrli qudrati va jozibasi bilan dunyo ahlining qalbini zabt eta olganligi ham nazarda tutilgan bo'lsa, ehtimol. Bunday yakdil e'tiroflar Alisher Navoiy ijodining nafaqat chuqur insonparvarlik mazmuni va ilg'or goyalari bilan, balki ularning mukammal badiiy ifodasi bilan ham dunyo adabiyotining yuksak cho'qqisiga ko'tarilganligini hamda uning jahonshumul shuhrati va ahamiyatidan ham yorqin guvohlik berib turadi. Taniqli adabiyotshunos Hamidulla Boltaboev to'g'ri ta'kidlaganidek, Navoiyning birgina she'riy devoniga kiritilgan she'rlari Turkiyadagi necha yuzlab shoirlar va adabiy muxlislariga qanchalik chuqur ta'sir ko'rsatganligini quyidagi tarixiy bir voqea misolida ham yaqqol ko'rish mumkin. Ilmiy va adabiy manbalarda qayd etilishicha, yuzlab turkigo'y shoirlar Navoiyning she'riy asarlariga tatabbu- naziralar yozgan va ular dan qirqdan ortiq shoirlar keyinchalik ham bu an'anani izchil davom ettirgan.

Xususan, Istiqloldan so'nggi yillarda Navoiy ijodi, yorqin shaxsiyati va ulkan ma'n aviy-ma'rifiy ishlari hamda uning hayotbaxsh adabiy an'analari hozirgi zamon shoir va yozuvchilari tomonidan ijodiy davom ettirilayotganligi nafaqat o'zbek adabiyotshunosligida, balki ko'plab xorijiy mamlakatlarda ham katta qiziqish bilan o'rganilayotganligini alohida ta'kidlash lozim. Bir necha xorijiy mamlakatlarda Navoiy haykali o'rnatilishi ham bu ulug' siymoga va xalqimizga nisbatan chuqur hurmat va ehtirom ramzidir.

Navoiyshunoslikdagi izlanishlar so'nggi yillarda ham, ayniqsa, istiqlol yillarida yanada samarali kechmoqda. Endilikda navoiyshunosligimizning turli qirralarini yoritishga munosib hissa qo'shib kelayotgan Najmiddin Komilov, Saidbek Hasanov, Yoqubjon Is'hoqov, Muslihiddin Muhiddinov, Shuhrat Sirojiddinov, Sultonmurod Olimov, Ibrohim Haqqulov, Nusratulla Jumayev, Hasan Qudratulla yev, Olimjon Jo'rayev,

Valiob Rahmonov va Dilorom Salohiy kabi yangi avlod yetishib chiqqanligi ham Navoiyni anglash borasidagi adabiy-estetik tafakkurimizning boyib va chuqurlashib borayotganligidan yuqin guvohlik berib turadi. Bu tadqiqotchilarimizning turli yo'nalishdagi salmoqli ishlarini e'tirof etgan holda, biz bu muhtasar maqolada Navoiy adabiy-estetik qarashlarining ayrim jihatlarigina ko'rsatib o'tishga harakat qilamiz.

Eng avvalo, shuni ta'kidlash joizki, Navoiy adabiy-estetik qarashlari o'zining terangligi, mavzu muammolarining rang-barangligi, qamrov-ko'lamining benihoya kengligi va bevosita badiiy ijod jarayoni va amaliyoti bilan chambarchas bog'liq ekanligi bilan diqqatga molikdir. Shubhasiz, badiiy adabiyotning ijtimoiy-estetik roli va san'atkor burch-ma'suliyati haqidagi qarashlar Navoiy estetikasining markaziy nuqtasi, ya'ni bir so'z bilan aytganda, ulug' shoir saboqlarining javharidir.

Barcha zamonlarda ham adabiyot va san'atini mangu muammosi bo'lib kelayotgan bu masalalar xususidagi Navoiy qarashlarini kengroq tasavvur etish va ularni imkon qadar umumlashtirish maqsadida dastlab Navoiyning nazm haqidagi, xususan, so'z to'g'risidagi fikr-mushohadalariga to'xtalish lozim. Chunki Navoiyning hajman eng kichik she'rlaridan tortib, "Xamsa"sigacha, turli mavzulardagi anjuman, baxs-munozaralarda bildirilgan fikr-mulohazalaridan tortib, tanqid va adabiyotshunoslik sohasidagi yirik asarlariga qadar-barchasida so'z ta'rif asosiy o'rin tutadiki, bu tasodifiy emas. Shu o'rinda haqli bir savol tug'iladi: nega Navoiy so'zga bu qadar ko'p va jiddiy ahamiyat beradi va nega so'zni bu qadar yuksak qadrlaydi?

Odatda, biz, moddiyunchilar, ko'pincha so'z haqida, tilning ijtimoiy roli haqida fikr yuritganda, uning muhim aloqa quroli ekanligini yakdillik bilan e'tirof etamiz. Albatta, bunday qarashni ham xato deb bo'lmaydi. Biroq Navoiyning so'zga munosabati va so'zga nisbatan talab-ma'suliyati biz ko'nikkan

me'yor va qarashlardan keskin farq qiladi: u so'zda ilohiy bir qudrat, mo'jizakor seyr ko'radi. Navoiy nuqtai nazarida, so'zda muqaddas hadislar kabi beqiyos ulug'vorlik, hayotiy hikmat va teranlik mujassam:

*So'z guhariga erur oncha sharaf,  
Kim bo'la olmas anga gavhar sadaf.  
So'zdin o'lukning tanida ruhi pok,  
Ruh dog'i tan aro so'zdin halok...*

Navoiyning so'z haqidagi bunday g'ayrioddiy qarashlarini badiiy adabiyotga, she'riyatga nisbatan bergan ta'riflari sifatida ham talqin etilsa, xato bo'lmas. Zero, Navoiy so'z xususida fikr yuritganda, eng avvalo, badiiy adabiyot, nazmning yuksak ijtimoiy-estetik funksiyasini, favqulodda jozibador va ta'sirchanlik qudratini nazarda tutgan bo'lishi haqiqatga yaqindir. (So'z-forscha suxtan, ya'ni kuydirmoq, yondirmoq ma'nolarini anglatishini ham yodga olaylik.) Bu taxminamizning dalili tariqasida yana Navoiyga murojaat qilaylik. "Farhod va Shirin" dostonini boshlar ekan, ulug' shoir o'z asarlariga nisbatan turli millat va ellatlarning chuqur ehtirom bilan munosabatda bo'lishlarini orzu va taxayyul etib shunday yozadi:

*Ko'ngul bermish so'zimga turk jon ham,  
Ne yolg'iz turk, balkim turkmon ham...*

Navoiy nazdida so'zning va so'z orqali ifodalanayotgan she'riyatning ta'sir kuchi, eng avvalo, shoir qalbi qanchalar uyg'oqligiga va uning oddiy insonlarga nechog'lik hamdard ekanligiga uzviy bog'liq. Shu munosabat bilan Alisher Navoiy ning quyidagi mashhur satrlari ham har bir vijdonli san'atkorning, har bir millatparvar ziyolining yuksak a'moli, hayotiy bir dasturiga aylanishini orzu qilamiz:

*Yuz jaf o qilsa menga, bir qatla faryod aylamon,  
Elga qilsa bir jaf o, yuz qatla faryod aylaram.*

Alisher Navoiy estetikasining tamal toshlaridan biri bo'lgan bunday fikr va qarashlar chinakam san'atkor shaxsi, uning fe'll-atvori, ahvol-saiyiasi va e'tiqodi qanday bo'lishi kerak degan savollarga ham eng to'g'ri bir javob bo'la oladi.

Shoir estetik ta'limotidagi o'zak masallardan biri, shubhasiz, badiiyat muammo laridir. Navoiy fikricha, yuksak badiiyat mezonlari xilma-xil. Haqiqiy san'at asarining eng zaruriy shurtlaridan biri esa – bu shakl va mazmun mutanosibligidir. Shu o'rinda qisqa bir chekinish qilishga to'g'ri keladi. Afsuslar bo'lsinki, sobiq sho'ro davrida ilm-fan va adabiyotning barcha yutuq va muammolari biryoqlama, ya'ni marksizm-leninizm ta'limoti asosida talqin etildi va noxolis baholandi. Oqibatda, adabiyot va san'atning ham barcha muhim qonuniyatlari go'yo "marksizm-leninizm daholari tomonidan kashf etilgan va jamiki muammolari ularning aqli-zakosi bilan chuqur yoritib berilgan" degan mutlaqo uydirma "haqiqat"lar to'qib chiqarildi. Holbuki, na Marks, na Engels adabiyot va san'at masalalariga bag'ishlangan loaqal birorta maqola u yoqda tursin, hatto birorta taqriz ham yozmagan bo'lsa, qanday qilib badiiy ijod va estetika sohasida butun boshi ta'limot yaratdi ekan degan oddiy savolni xayolimizga ham keltirmasdik. Ikkinidan esa, mahdudlik va muteligimiz shu darajada ediki, ko'nglimiz sezib, aqlimiz yetib turgan haqiqa tni ham aytishga jur'at qila olmasdik. Ya'ni jahon adabiyoti xazinasini ne-ne badiiy durdonalar bilan boyitgan Alisher Navoiydek daho san'atkor va mutafakkirlar nahot adabiy asar taqdirini hal etuvchi bunday muammolar xususida fikr yuritmagan bo'lsa, degan o'yga ham borib o'tirmasdik.

Aslida esa, badiiy ijodda shakl va mazmun uyg'unligi muammosi ham marksizm-leninizmning adabiyot va san'atning kushandasiga aylangan "ta'limoti" vujudga kelmasdan bir necha asrlar ilgari ham Navoiy kabi ulug' shoir va allomalar tomonidan g'oyat to'g'ri va chuqur anglangan va eng muhimi,

ularning bunday teran fikrlari bevosita badiiy ijodga tatbiq etilgan. Fikrimizning dalili sifatida Navoiyning "Hayrat ul-abror" dostonida shakl va mazmunning bir-biri ga mutanosib bo'lishi zarurligi va mazmunning ustuvor ahamiyatga ega ekanligi alohida ta'kidlanganligini eslaylik:

*Nazmda ham asl anga ma'ni durur,*

*Bo'lsin aning surati har ne durur.*

*Nazmki ma'ni anga marg'ub emas,*

*Ahli ma'oniy oldida xub emas.*

*Nazmki ham surat erur xush anga,*

*Zimnida ma'ni dag'i dilkash anga...*

Navoiy davri adabiy-estetik tafakkurining o'ziga xos kvintessensiyasi, soddaroq qilib aytganda, qaymog'ini tashkil etuvchi bunday qarashlar bugun ham chinakam badiiy ijodning oltin qonuniyatlaridan biri sifatida e'zozlanmoqda Navoiy estetikasining ahamiyati yana shundaki, unda tarixiylik va badiiy haqiqat, an'ana va novatorlik kabi ko'plab muhim muammolar keng yoritilgan va ular bugun ham o'zining dolzarbligini yo'qotgani yo'q.

Navoiyning daho san'atkorligi, ayniqsa, Istiqlol sharofati bilan yanada ulug' vorlik va olamshumul mazmun kasb etmoqdaki, bu tarixiy haqiqat mustaqil davlatimizning birinchi Prezidenti I.A.Karimov tomonidan cheksiz g'urur bilan shunday ta'kidlangan edi: "Agar ul zotni avliyo desak, avliyolarning avliyosi, mutafakkir desak, mutafakkirlarning mutafakkiri, shoir desak, shoirlarning sultonidir." Bu yuksak ta'rifda nafaqat zakovatli xalqimizning minnatdorlik va faxr tuyg'ulari aks etgan, balki jahon ilm ahlining va millionlab adabiyot muxlislarning ham yakdil e'tirofi mujassam bo'lgan. Zero, Navoiy ijodi-ulkan bir ma'naviy-ma'rifiy olam. Hayotbaxsh bu ummondan qancha ko'p bahramand bo'lib, komillik sari intilsak, ulug' shoir ruhini ham shod etgan bo'lamiz.

Mustaqil mamlakatimizning birinchi Prezidenti I.A.Karimovning "Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch" asarida va 2015-yili Samarqandda o'tkazilgan xalqaro anjumandagi "O'rta asrlar Sharq allomalari va mutafakkirlarining tarixiy merosi, uning zamonaviy sivilizatsiya rivojidagi roli va ahamiyati" mavzuidagi ma'ruzasida buyuk ajdodlarimizning ilm-fan, ma'naviyat va adabiyot sohasidagi olamshumul kashfiyotlari dunyo tamadduniga ulkan hissa bo'lib qo'shilganligi va ularni endilikda butun jahon ahli tan olayotganligi faxr bilan ta'kidlangani unutilmas tarixiy bir voqea bo'lgan edi.

Mustaqillik yillari xalqimiz Navoiyni anglash va qadrlash yo'lida yangi bir bosqichga ko'tarilganiga barchamiz guvohmiz. Muhtaram Yurtboshimiz tashabbusi bilan 1991 yil "Navoiy yili" deb e'lon qilingani va ulug' shoir nomidagi Davlat mukofoti ta'sis etilganligi ma'rifatparvar xalqimizni cheksiz quvontirishi bilan birga, barchamizning ong va shuurimiz va tafakkurimizni beqiyos yuksaltirdi, desak aslo mubolag'a bo'lmaydi. Navoiyning buyuk xizmatlaridan biri shundaki, u o'zining o'lmas she'r va dostonlari, ayniqsa, tengsiz "Xamsa"si bilan eski o'zbek adabiy tilimizga asos soldi va uning naqadar boy va ma'nodor til ekanligini namoyish eta oldi. Navoiyning o'zbek tilimizning jonkuyari sifatidagi ulkan faoliyati g'oyat ibratli va bu alohida o'rganishga munosibdir.

## **BADIIY TIL XUSUSIYATLARI**

Ona tili va adabiyot – ma'naviyatimiz ko'zgusi Ko'p asrli adabiyot va madaniyat tarixiga nazar tashlasak, muhim bir haqiqatning guvohi bo'lamiz: ulug' adib va mutafakkirlar hamisha o'z milliy tilining ravnaqi va istiqboli uchun faol

kurashganlar. Bu jihatdan Alisher Navoiy ijodi va faoliyati barcha avlodlarga eng yuksak namuna bo'lib xizmat qila oladi. Tarix buyuk bobokalonimiz Navoiy zimmasiga g'oyat sharaflı va mas'uliyatli vazifa yuklagan edi deyish mumkin. Tarixiy manbalardan bizga yaxshi ma'lumki, Navoiy yashab ijod qilgan davrda turkiy, ya'ni eska o'zbek tilimizning haq-huquqi nohaq kamsitilgan va uning qo'llanish doirasi ham juda cheklangan edi. Ya'ni go'yoki bu- nazokatdan yiroq qora xalq tili, unda go'zal va ma'nodor she'r-g'azal yaratib bo'lmaydi kabi haqoratomiz qarashlar keng yoyilgan edi. Navoiyning jahon ahlini hayratga solgan minglab mumtoz she'r va dostonlari bunday iddaolarning butunlay asossizligini va tilimizning naqadar boy va tasvirlash imkoniyatlari cheksiz ekanligini ham badiiy, ham ilmiy jihatdan to'liq isbotlab berganligi uning chinakam vatanparvar va millatparvar novator ijodkor sifatidagi eng ulkan xizmatlaridan biri bo'ldi.

Navoiy shunday og'ir bir sharoitda o'zining "Muhokamat ul-lug'atayn" asarini yozib, nohaq kamsitilib kelingan turkiy-o'zbek tilimizning nafaqat qashshoq yoki dag'al til emasligini, balki uning ko'p jihatdan fors tilidan ko'ra ham boyroq va rangdorroq ekanligini ham ilmiy, ham amaliy jihatdan to'la isbotlab bera oldi. Bu bilan Navoiy o'zbek tili va uning rivoji uchun kurash bayrog'ini yuksaklarga ko'tardi va turkiy tilda yaratilayotgan adabiyotimizning yanada yuksalishini boshlab berish sharafiga muyassar bo'ldi. Navoiyning ijod ahlini hamisha hayratga solgan mumtoz she'r va dostonlari o'zbek tilimizning naqadar boyligi va ifoda imkoniyatlari, badiiy tasvir vositalari cheksiz ekanligini amalda ko'rsatdi. Bularning barchasi, shubhasiz, Navoiyning chinakam vatanparvar va millatparvar ijodkor sifatidagi buyuk bir ma'naviy jasorati ham edi.

Navoiy zamondoshlaridan va yosh shoirlardan, eng avvalo, o'z ona tillarida ko'proq ijod qilishlarini orzu qilar va ularni

hamisha shunga da'vat qilar edi. Masalan, "Muhokamat ul-lug'atayn" asarida bu muhim muammo xususida to'xtalib, jumladan, shunday yozadi: **"xalq orasidan chiqqan iste'dod ahli Salohi yat va qobiliyatlarini o'z tillari turganda o'zga til bilan zohir qilmasalar va ishga solmasalar edi. Agar ikkala tilda ijod etish qobiliyatlari bo'lsa, o'z tillarida ko'proq yozsalar edi..."** Ulug' shoirimizning bunday orzu va da'vatlari bejiz emas edi. Navoiy haqiqiy millatparvar shoir va mutafakkir sifatida o'zbek tili va adabiyotimizning nechog'lik boy, rang-barang va cheksiz imkoniyatlarga ega ekanligini butun ijodi va jo'shqin faoliyati bilan isbotlab berishi bilan o'zbek tili va adabiyotim izning xalqaro obro'sini jahon miqyosiga olib chiqdi.

Shu bilan birga, Navoiy arab va fors tillariga ham katta hurmat va e'tibor bilan qaraydi va bu tillarni ham puxta egallab, ulardan keng foydalanadi va bu tillarda ham asarlar bitadi. Masalan, u fors tilida yaratgan she'rlarini Foni taxallusi bilan alohida to'plam qilganligi kitobxonlarga yaxshi ma'lum. Shuningdek, Navoiyning "Xamsa" sidagi barcha dostonlarida forscha- arabcha so'zlar, she'riy misollar hamda "Qur'on" va Hadislardan olingan hikmatli ibora va naqlar katta o'rin tutganligi endilikda isbot talab qilmaydigan badiiy va tarixiy bir haqiqatdir. Ko'rinadiki, ulug' shoir va adiblarimiz ko'plab sharq tillarini ham puxta o'rganib, o'z asarlarida ulardan oqilona foydalanganlar va shu yo'l orqali ham ona tilimiz va milliy tafakkurimizni boyitishga xizmat qilganlar. Bu jihatdan ayniqsa, Alisher Navoiy va Bobur, Fitrat, Abdulla Qodiriy, Cho'lpon, G'afur G'ulom, Abdulla Qahhor va Mirtemir, Erkin Vohidov va Abdulla Oripov singari ustoz adiblarimiz ijodi va faoliyati alohida o'rganishga loyiq.

Mustaqil yurtimizda milliy va umuinsoniy qadriyatlarimizga va ulug' ajdodlarimiz merosiga bo'lgan munosabat, ayniqsa, O'zbek tili va adabiyotimizga bo'lgan yuksak e'tibor va

cheksiz g'amxo'rlikdan har bir vatandoshimiz haqli ravishda g'ururlanadi. Birinchi Prezidentimiz I.A.Karimovning 2016-yil 13-maydagi Farmoniga asosan Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat O'zbek tili va adabiyoti universiteti tashkil etildi. Ona tili va adabiyotimizning ravnaqi va kelajagini belgilovchi va uning dunyo miqyosidagi xalqaro obro'-e'tibori va umuminsoniy nufuzini beqiyos ko'taruvchi bu tarixiy qaror xalqimiz ma'naviyati va tafakkuri rivojida tengsiz ahamiyat kasb etishini tasavvur qilar ekanmiz, qalblarimiz quvonchu iftixorga to'лади. Ayniqsa, necha minglab iqtidorli yoshlarimiz va o'zbek tili va adabiyotimizning boy tarixi va istiqbolini qunt bilan o'rganayotgan minglab fidoyi va salohiyatli mutaxassis tadqiqotchilar uchun bu oliy maskan dunyo miqyosidagi eng nufuzli va tabarruk ilmu ma'rifat markazi bo'lib qolishi shubhasizdir.

Darhaqiqat, Farmonda ta'kidlanganidek, necha ming yillik boy tarixga ega bo'lgan o'zbek tili va adabiyotimiz, eng avvalo, bizning o'zligimizni anglashda, Vatanga sadoqat ruhimizni yuksaltirishda beqiyos ahamiyatga ega bo'lishi bilan birga bular bizning kim ekanligimizni va hech kimdan kam emasligimizni yana bir karra jahonga namoyish eta oladigan g'oyat ulkan ijtimoiy-siyosiy va madaniy- ma'rifiy voqelardan biri bo'lib sanaladi. Ayniqsa, eng zamonaviy talab va mezonlar asosida va g'oyat ulkan va mas'uliyatli vazifalarni hal etish maqsadlarida yangi tashkil etilgan bu oliy dargohning Alisher Navoiy nomi bilan atalishida ham chuqur ijtimoiy va ramziy ma'no bor. Zero, mumtoz adabiyotimizni dunyo miqyosiga olib chiqishda va o'zbek tilimizning butun sehru-jozibasini va cheksiz imkoniyatlarini ham ilmiy- nazariy, ham amaliy va badiiy jihatdan isbotlab berishda hazrat Navoiyning xizmatlari beqiyos va hemisoldir.

O'zbek tilimiz va adabiyotimizning buyuk yalovbardori bo'lgan Navoiy, ayni paytda, fors va arab tillarini ham puxta

bilganligi uning favqulodda nodir iste'dodi ning yorqin bir qirrasini edi. Ulug' shoir ruboiylari ham fikrimizga dalil bo'la oladi.

Navoiyning g'azallari kabi ruboiylarining ham mavzusi-rang-barang. Ularning deyarli barchasiga xos bo'lgan yorqin bir fazilat bor: bu – ularning ham ma'nan, ham shaklan poetik mukammalligi. Ya'ni ruboiylarida ham "asl ma'no va xush surat" o'zaro uyg'un-mutanosibdir. Bunday g'oyaviy-badiiy mukammallikka erishishda, eng avvalo, Navoiyning o'zbek tilimizning serjilo va ma'nodorligi kabi o'ziga xos jihatlari va boy imkoniyatlaridan mohirona foydalanganligi ustuvor ahamiyat kasb etganligi shubhasizdir. Shu bilan birga, Navoiy buyuk donishmand va tengsiz shoir sifatida hikmat durdonalarini teran ifodalashda tilimizda keng qo'llanadigan fors va arabcha so'z va iboralarning ham muayyan o'рни borligini ta'kidlash lozim. Misol uchun quyidagi ruboiyni yodga olaylik:

*Xub el bila suhbat tutubon, xub o'lg'il,*

*Yaxshini talab qilg'ilu matlub o'lg'il.*

*Shirin so'z ila xalqqa marg'ub o'lg'il,*

*Yumshoq de hadisingniyu mahbub o'lg'il*

Tomchida quyosh aks etganidek, Navoiyning hamisha insonlarni komillikka boshlashdek olijanob maqsadi va chuqur hayotiy g'oya- fikrlarni go'zal shaklda ifodalash san'ati ushbu muxtasar she'rida ham yaqqol namoyon. Taniqli adabiyotshunoslar ta'kidlaganidek, Navoiy hikmatlari "na zamonu zamin, na mazhabu din va na ijtimoiy tuzumu siyosiy turkum jihatidan cheklangan. Ular istisnosiz inson xizmatiga qaratilgandir". Jumladan, mazkur ruboiyda ilgari surilgan ezgu g'oya va yuksak insoniylik, eng avvalo, kitobxonni hayotga va o'ziga nisbatan mas'uliyat bilan qarashga o'rgatadi. Odamzod hamisha komillikka intiladi. Bunday yuksak ma'naviyatga erishishning asosiy bir sharti, Navoiy fikricha, yaxshilar bilan

suhbat qurish, ularning soʻz-amali va fazilatlaridan ibratli saboq olib, komillikka intilib borishdir.

“Yaxshi bilan yursang, yetarsan murodga”, – degan xalq maqolidagi hayotiy tajriba va ezgu daʼvat ruboiy zamiridagi ibratli gʻoya bilan hamohangdek. Sheʼrning ikkinchi misrasi dagi talab va xislat yanada muhim: Oʻzgalarning yaxshi, insoniy munosabatda boʻlishini istagan kishi oʻzi ham ana shu yuksak talab-mezonlarga amal qilishi va yorqin fazilatlarga ega boʻlishi lozim.

Keyingi misrada ham chuqur hayotiylik va izchil mantiq xalqona tarzda ifodalangan: “Bugʻdoy noning boʻlmasa ham, bugʻdoy soʻzing boʻlsin” degan hikmat bejiz emas, yaʼni nonday aziz va totli, nekbin va qadrli soʻz bilan ham elga manzur boʻlish mumkin. Nihoyat, sheʼrning soʻnggi misrasi ham jiddiy mushohadaga undaydi. Donolar oʻgiti: “Qish koʻrsangiz, bahor keltiring”. Yaʼni noxush, sovuq xabarni ham qoʻpol, keskin ohangda emas, balki yumshoq, oqilona bir yoʻsinda aytish ham fazilatdir. Bu bilan Navoiy bizga soʻzlash odobida zarofat va nuqtadonlikning sharofatini ham anglatgan. Zero, “yamon tillik andoqkim, el koʻngliga jarohat yetkurur, oʻz boshiga ham ofat yetkurur”.

Sheʼr matnidagi barcha soʻzlar maʼnodor va ohangdorligi bilan uning taʼsirchanligini oshiradi. Garchi, ruboiyning qofiyalari **arabcha- forsha** soʻzlar boʻlsa-da, (**xub-yaxshi**, **matlub**-talab qilingan, **margʻub**-yoqimli, **mahbub**-sevimli doʻst maʼnolarida qoʻllangan) ular oʻzbekcha soʻz-iboralardek asosiy fikr va tuygʻularni kuchaytirib, sheʼrning gʻoyaviy mazmunini yorqin ifodalashga xizmat qiladi. Soʻzni malham deb bilgan Navoiy mazkur ruboiyda ham har bir soʻz, xatto tovush-ohangigacha eʼtibor berganligini koʻramiz. Chunonchi, misralardagi “oʻlgʻil” soʻzi oʻrniga “boʻlgʻil” deb, birgina xarfni qoʻshib koʻraylik: ikki B undoshi qator kelishi oʻqish va

talaffuzni og'irlashtiradi, natijada, she'riyatimiz va ravonligiga ham putur yetadi. Binobarin, "ziynatlangan she'r" (Navoiy) matnidagi nainki so'z, xatto harfni ham almashtirish mushkul. Bunday ibratimiz misollarni, Shayxzoda aytganidek, ulug' shoir "san'atxonasi"dan istagancha keltirish mumkin.

Alisher Navoiyning bunday qutlug' an'analari keyingi asrlarda ham ko'plab yetuk shoir-u yozuvchilarimiz tomonidan muvaffaqiyatli davom ettirildi. Jumladan, XX asr o'zbek adabiyotimizning Fitrat, Abdulla Qodiriy, Cho'lpon, G'afur G'ulom, Abdulla Qahhor va Mirtemir, Erkin Vohidov va Abdulla Oripov singari zabardast namoyandalari ijodi va faoliyati bu jihatdan alohida diqqatga sazovor. Ayniqsa, Abdulla Qodiriyning "O'tkan kunlar" va "Mehrobdan chayon" romanlarining tilida ko'plab arabcha, forsha so'zlarga duch kelamiz. Bulardan tashqari ushbu romanlarda fors adabiyotining buyuk namoyandalari shayx Sa'diy Sheroziy, ulug' ozarbayjon shoiri Fuzuliy singari mashhur so'z san'atkorlarining asarlaridan iqtiboslar ham keltirilgan. Misol uchun "Mehrobdan chayon" romanida shayx Sa'diyning quyidagi hikmatimiz she'ri Anvar, Ra'no, Sultonlilarning chinakam do'stlik haqidagi umumiy qarashlarini ifodalash maqsadida keltirilganligini esga olishimiz mumkin:

*"Bisho'y, ey xiradmand, az on do'st dast,*

*Ki bo dushmanonat buvad ham nishast"*

(Ya'ni: Ey hushyor kishi, dushmanlaring bilan birga o'lturishkan-hamsuhbat bo'lgan do'stingdan qo'l yuvgil. "Mehrobdan chayon", T, 1994, 537-b.)

Fors va arab tillarini yaxshi bilish va bu tillardagi so'zlarning ma'nolarini chuqur tushuna olish nafaqat mumtoz adabiyotimiz, balki hozirgi zamon adiblarining ham asarlari ma'no-mazmunini hamda muallifning g'oyaviy-badiiy maqsadini to'g'ri anglashga ham yordam beradi. Zero, ulug'

shoir-mutafakkirlar yakdillik bilan ta'kidlaganidek, "Kalidi ganji ma'ni zabondir, Agar bir nuqta ko'p bo'lsa ziyondir". Ya'ni san'at asari mohiyati va mazmunini anglash va uning fasohatidan bahramand bo'lish uchun, eng avva lo, keng lisoniy bilim, ya'ni xorijiy tillarni bilish ham talab etiladi. Masalan, Abdulla Qodiriy romanlarida arabcha- forscha so'z-iboralar va diniy istilohlar ko'p uchraydi, ammo ularning barchasi o'z o'rnida mahorat bilan qo'llangan. Chunki Abdulla Qodiriy so'z qo'llashda ham "uzoq andisha" va mas'uliyat bilan fikr yuritadi. "O'tkan kunlar"ning oxirgi faslida Kumushning fojeona o'limi bilan bog'liq voqea-tafsilotlar tasvirlanar ekan, yozuvchi arabcha **"maqtula"**, **"madfun"** kabi so'zlarini qo'llaydi: "Ertasi kun dafn marosimi bo'ldi. Janozaga Toshkandning har bir mahallasidan deyarlik kishilar ishtirok qildi. Faqat maqtulaning eng yaqinlarigina bu tantanaga yetib kelolmadilar" ("O'tkan kunlar", 373-b) Bu so'z bejiz qo'llanmagan. Kumush o'z ajali bilan emas, balki kundoshi Zaynab tomonidan zaharlab o'ldirildi, **qatl** etildi. Shu bois ham **maqtula** so'zining tanlanishi har jihatdan maqbuldir.

Fors-tojikcha so'z va iboralar Qahhor asarlarida ham san'atkorona qo'llangan. Yozuvchining "To'yda aza" hikoyasiga **"Zo'ri behuda miyon meshikanad"** ("Behuda zo'rlik belni sindirar") degan maqol epigraf qilib olingan. Darhaqiqat, hikoya qahramoni keksa doml aning chamandagul do'ppi, tor shim kiyib yurishiyu yosh bir tannozga uylanib, o'zini zo'r berib yosh ko'rsatishga behuda urinishi va nomunosib qiliqlari alal-oqibat uning ham ma'nan, ham jisman o'limiga sabab bo'lganligini chuqurroq tushunishimizda ushbu maqol o'ziga xos bir kalit vazifasini o'taydi. Bunday misollar boshqa adiblarimiz ijodida ham ko'plab uchraydi. Bulardan xulosa shuki, arabcha va forscha so'z-iboralar xalqlarimizning tarixiy o'tmishidan

guvohlik berishi bilan birga ularning yashash tarzi, tili va dini, madaniyati va ruhiyatidagi o'zaro yaqinlik-mushtaraklikni ham aks ettiradi. Bu esa tillarning o'zaro bir-birini boyitishidan ham yorqin dalolat beradi.

Yoki qadimiy forsiy bir ibora Asqad Muxtor uchun yetuk falsafiy bir she'r yaratishiga asos bo'lib xizmat qilganligi ham ibratli holdir. Rivoyat qilishlaricha, bir podsho vazir-u ulamolariga buyuribdi. Ya'ni shunday bir chora topinglarki, men qattiq dard-iztirob chekayotganimda, bu azoblardan tezroq xalos bo'layin va kayf-u safo-maishatga berilib ketganimda ham, meni tezroq mo'tadil holatga qaytarishga yordam bersin. Nihoyat, saroydagi nozikta'b shoir podshoning qo'lidagi uzukka she'riy bir satr yozdiradi: "In ham meguzarad" ("Bu ham o'tadi") Ana shu oddiy ibora Asqad Muxtor talqinida inson umrining mohiyati va uning qadri haqida teran mushohada yuritishga undovchi poetik detalga aylanadi:

*"In ham meguzarad".*

*Bali, tugib oling dilga*

*Chindan, hamma narsa so'zsiz o'tadi.*

*Lekin o'tgan har bir narsa o'zi bilan birga*

*Umrning bir qismini olib ketadi.*

Bunday misollarni boshqa shoir va yozuvchilar ijodidan ham keltirish mumkin. Bulardan shunday xulosa kelib chiqadiki, arabcha-forscha so'z-iboralar qo'llanishi ham ijodiy bir an'ana sifatida keng qo'llanib kelingan. Ular xalqlarimizning tarixiy o'tmishidan guvohlik berishi bilan birga ularning ijtimoiy-iqtisodiy sharoiti, yashash tarzi, tili va dini, madaniyati va ruhiyatidagi o'zaro yaqinlik va mushtaraklikni ko'rsatishi bilan ham ahamiyatli. Bular, shubhasiz, yuksak umuminsoniy qadriyatlardir.

## G'AFUR G'ULOM SHE'RIYATI YOLQINLARI

Atoqli shoir va adib G'afur G'ulom mansub bo'lgan katta avlod, garchand, mustabid tuzumning og'ir va murakkab sharoitida yashab ijod qilgan bo'lsada, o'zining yorqin talanti, chinakam milliy va xalqchil ijodi bilan alohida ajralib turadi. "Iste'dod, eng avvalo, tabiat ehsoni, Olloh tuhfasidir. Shu ma'noda Yaratganning o'zi G'ulom G'ulomdan marhamatini sira-sira ayamagan edi. G'afur G'ulom chindan ham ulug' zakovat egasi edi. Buning isboti shoirning jo'shqin va dono she'riyati, buning isboti-G'afur G'ulomning tug' ma tafakkur sohibi ekanligi, buning isboti-yozuvchining hech bir adibnikiga o'xshamaydigan chinakam milliy xalqchil prozasi-nasriy asarlaridir. U zot "men o'zbek Shoirim an", "o'z xalqimning tiliman" degan o'tli iqroriga sodiq qoldi." <sup>1</sup> Mashhur shoirimiz Abdulla Oripovning bu so'zlarida chuqur haqiqat mujassam.

G'afur G'ulom yangi davr o'zbek adabiyotining jahon miqyosiga olib chiqishdek ulkan sharafiga muyassar bo'lgan to'ng'ich adiblarimizdan biri edi. Xalq hayotini chuqur bilish va xalq bilan doimiy birga bo'lish, uning dardi va shodligini aks ettirishga intilishi G'afur G'ulom ijodiga kuchli bir qanot baxsh etdi va natijada uning ijodi ham hayotiylik, ham chuqur xalqchilik kasb etdi. G'afur G'ulom ijodi shunday bir mahorat maktabi bo'ldiki, unda bir tomondan, poeziyamizning murakkab va ziddiyatli taraqqiyot bosqchilarini ko'rishimiz mumkin. Ikkinchi tomondan esa, bu maktabda "oddiy bir qishloq muxbiridan akademik shoir darajasiga ko'tarilgan" ulkan xalq san'atkorining yorqin va mazmunli hayot yo'lini kuzatish mumkin.

G'afur G'ulom ijodi va she'riyatining manbalari nimalardan iborat va uning yetuk ijodkor bo'lib yetishishida qanday omillar

<sup>1</sup> Абдулла Орипов. Ўзбекининг ўз шоири. – Гафур Гулом. Танланган асарлар. – Т. 2003, 7-б.

asosiy rol o'ynadi-shular xususida fikr yuritishdan oldin G'afur G'ulom adabiyot maydoniga kirib kelgan dastlabki yillarida va o'sha davrdagi adabiy hayotni ko'z oldimizga keltiraylik. Shuni alohida ta'kidlash kerakki G'afur G'ulom va boshqa adiblarimiz adabiyot maydoniga kirib kelgan davr-20-yillar butun xalqimiz va madaniyatimiz tarixida eng murakkab va ziddiyatli bo'lgan bir davr edi.

Bu murakkab davrning haqqoniy manzaralari, xalqimiz va millatimiz boshiga tushgan og'ir fojialar, eng avvalo, Fitrat, Abdulla Qodiriy va Cho'lpon singari otashnafas adiblarimizning asarlarida ham o'zining yorqin ifodasini topgan edi. Afsuski, bu adiblarimizning o'sha davr haqiqatini butun fojialari bilan aks ettirgan o'lmas asarlari qadrlanishi yoki to'g'ri tushunilishi o'rniga so'nggi yillargacha butunlay qoralanib kelindi.

G'afur G'ulom xuddi mana shunday mustabid sho'ro tuzumining mafkuraviy hukmronlik va zo'ravonlik siyosati avj olgan bir paytda tengqurlari-Oybek, Hamid Olimjon, Abdulla Qahhor va Uyg'un singari jo'shqin talanti va o'z ovozi bilan adabiyot maydoniga kirib keldi. O'sha yillarda G'afur G'ulom kabi to'ng'ich adiblarimiz chekiga tushgan bu qismat ham ijobiy, ham salbiy mazmunga ega edi. Ijobiy tomoni shundaki, G'afur G'ulom bevosita ana shu jo'shqin va murakkab hayot ichida yashadi, obdon pishidi va xalq bilan hamnafasu hamdard bo'lib, yetuk bir ijodkor sifatida shakllandi.

Bu davrning G'afur G'ulom va unga tengqur bo'lgan avlod vakillari ijodiga ko'rsatgan dahshatli salbiy ta'siri deganda, birinchi navbatda, hukmron kommunistik mafkura va uning ijodkorlar oldiga qo'yadigan asossiz talablarini nazarda tutamiz. "Biz adabiyot maydoniga kirib kelganimizdan buyon yuzlab shoiru yozuvchilar o'tdi, -degan endi Abdulla Qahhor.-Lekin men shular orasida Cho'lpon bilan G'afur G'ulom darajasidagi ulkan iste'dodni ko'rgan emasman. Ming afsuski, bularning ikkovini ham zamon javonmarg qildi".

Abdulla Qahhorning bu soʻzlarida juda katta tarixiy haqiqat va fojia aks etib turibdi. Gʻafur Gʻulomning ulkan isteʼdod egasi ekanligini uning hayotbaxsh anʼanalrini davom ettirayotgan Erkin Vohidov, Abdulla Oripov singari talantli shoirlarimiz ham yohud uni yaqindan bilgan Said Ahmad, Asqad Muxtor va Ozod Sharafiddinov kabi adib va olimlarimiz ham yakdillik bilan eʼtirof etishadi. Masalan, davrimizning mashhur shoirlaridan biri E. Vohidov, Gʻafur Gʻulom haqidagi xotiralarida uning Sharq va Gʻarb adabiyotini chuqur bilishi va badiiy mahorati gʻoyat yuksak ekanligini taʼkidlab, jumladan, quyidagi fikrlarini bildiradi: "Gʻafur Gʻulom shunchalik isteʼdod egasi ediki, u silkinsa sheʼr toʻkilar edi. Gʻafur Gʻulom koʻnglidagi gaplarning hammasini qogʻozga tushirmay ketgan shoirlardan".

Gʻafur Gʻulom kabi ulkan adiblalarimiz tugʻma talant sohibi boʻlish bilan birga, ular ham Sharq, ham rus va jahon ilgʻor adabiyotlaridan, ham xalqning bitmas-tuganmas ogʻzaki ijodidan benihoya koʻp oʻrganganligi va oʻrganish jarayonida isteʼdodi yanada kamol topganligi bilan ibratlidir. Oʻz ijodining dastlabki qadamlaridanoq, Gʻafur Gʻulom adabiyot orqali halqqa va jamiyatga xizmat qilishni oʻzining sharaflı burchi deb bildi va umrining oxiriga qadar ana shu yuksak eʼtiqodidan chekinmadi.

*Umrinda bir minut ham boʻsh payt koʻrmadim,  
Oʻtgan boʻlsin dardsiz, oʻtsiz sevgisiz,-*

deganda Gʻafur Gʻulom toʻla haq edi. Darhaqiqat, Gʻafur Gʻulom butun umri davomida soʻnmas ishtiyoq, dard va muhabbat bilan yashadi va ijod qildi. Shoirdagi soʻnmas sevgi, eng avvalo, Vatan, inson va goʻzallik tufayli boʻlsa, uning betakror ijodi ana shu joʻshqin ehtiros va otashin muhabbati hamda milliy gʻurur tuygʻularining aks sadolari edi, deyish mumkin. Benazir isteʼdod egasi boʻlgan Gʻafur Gʻulom ulkan sanʼatkorlarga xos gʻoyat yuksak, ayni vaqtda, chuqur hayotiy maqsadga ega edi va bu ezgu maslak shoirning butun ijodiga nurli bir yoʻnalish va soʻnmas ilhom bagʻishlab turadi:

*Xalqning manfaatini ko'zlay olmasang,  
Vatan saodatin o'zlay olmasang.  
Tarjimon tilingning lol o'lgani xush,  
Xurriyat mazmunin anglay olmasang.*

Bu she'riy parchani shartli ravishda G'afur G'ulomning asosiy bir ijodiy dastu rini ifodalovchi muxtasar va mazmundor misralar deb tushunish mumkin. Eng muhimi shundaki, bu misralar zahirida G'afur G'ulomning yuksak e'tiqodi va estetik aqidalari ham aks etgan. Ya'ni, G'afur G'ulomning birorta she'ri yoki hikoyasi yo'qki, unda xalq irodasi, xalq orzu-tilagi va his-tuyg' ulari ifodalanmagan bo'lsin.

G'afur G'ulom ijodining ilk bosqichlaridanoq badiiy adabiyotning hayotdagi va jamiyatdagi yuksak mavqeini va uning insonlar qalбини musaffo-qiluvchi qudratli bir kuchga ega bo'lgan alohida bir san'at ekanligini anglab yetadi va umrining oxiriga qadar ana shu g'oyasi va e'tiqodida mustahkam turadi. Bu jihatdan shoirning quyidagi she'ri alohida ahamiyatga ega:

*Shoir yuraklarga hukm etadi,  
Ul-rentgen nuriday tez ko'ruvchan.  
Yurak puchmog'ida qolgan kirlarni,  
Qalam bilan tozalov-shoirning ishi.*

G'afur G'ulomning bu satrlari bundan yetmish yillar ilgari aytilgan, lekin ular butun, ya'ni O'zbekistonimiz mustaqil bo'lgan hozirgi kunlarda ham o'z qimmatini yo'qotgan emas.

G'afur G'ulom ijodini va butun she'riyatining asosiy yo'nalishini belgilangan bosh mavzu-bu eng avvalo inson va uning g'oyat rang-barang va sehrli dunyosidir. Quyidagi satrlarda ana shu hayotiy haqiqat chuqur ifodalangan:

*Butun kitoblarimni varaq-varaq axtaring,  
Hainisha ulug' inson G'afurning temasida.  
Insonning qatra qoni menga olamcha mazmun,  
Faqat o'zing buyuksan quyosh sistemasida.*

Bunday teran mazmunli she'rlarni o'qir ekanmiz, beixtiyor yana bir haqiqatni kashf etish mumkin. Bu haqiqat shundaki, G'afur G'ulom tabiatan insonparvar san'atkor edi va, ayniqsa, uning chuqur gumanist shoir bo'lib yetishishida jo'shqin hayot dorilfununi bilan birga Navoiy kabi daho san'atkorlar ham ma'nan va ruhan ustozlik qilgan desak, xato qilmagan bo'lamiz.

G'afur G'ulom, shubhasiz, tom ma'nodagi yangi va novator shoir edi. Lekin uning ijodida va ayniqsa, boy va rang-barang she'riyatida ulug' Navoiy, Sa'diy, Bedil singari daholar kuylagan so'fyona g'oyalar va falsafiy aqidalar ham yangicha talqinlarda muvaffaqiyatli davom ettirilganligini kuzatish mumkin. Shu munosabat bilan taniqli adabiyotshunos, akademik Baxtiyor Nazarovning yaqinda nashr etilgan "G'afur G'ulom olami" (2004y) asarida ta'kidlangan muhim bir fikr e'tiborga loyiq: "Insonning atom zarrasiga, atomga o'xshatilishini XX asr o'rtalaridagi adabiyotga olib kirgan shoirlardan biri, ehtimol, G'afur G'ulom bo'lsa, ajabmas". Darhaqiqat, bunday tashbehlarini G'afur G'ulomning Asqad Muxtor so'zlari bilan aytganda, qomusiy bilim va tafakkurining, sarhad bilmas badiiy estetik olamining o'ziga xos e'tirofi, deyish mumkin.

G'afur G'ulom asarlariga baho berishda, albatta, ularning qanday mavzuga bag'ishlanganligi yoki biror-bir siyosiy rahbarni ulug'laganiyu yoxud madh etganligiga qarab emas, balki eng avvalo mazkur she'rlarda G'afur G'ulomdek betakror bir shoirning talanti qay daraja namoyon bo'lganligi va shoirning hayot va inson to'g'risidagi falsafiy-estetik qarashlari qanchalik teran aks etganligiga qarab baho berilsa, san'atning muhim talablariga rioya qilingan bo'ladi.

Masalan, G'afur G'ulomning 30- yillarda yaratilgan va o'sha davr o'zbek she'riyatida katta voqea bo'lgan asarlaridan biri "Turksib yo'larida" degan mashhur she'rini eslaylik. Agar sobiq sho'ro tuzumi va mafkurasidan kelib chiqilsa, bu she'r ham sotsializmni ulug'lovchi va partiya bilan inqilobni sharoflovchi,

ya'ni yangi davrni madh etuvchi shunchaki an'anaviy bir usar sifatida baholanishi kerak. Lekin she'rdagi eng muhim jihat, bizningcha, shoirning yuksak poetik mahorati va ayniqsa, olis o'tmishning teran haqiqatlarini hayratomuz obrazlar orqali ochib bera olganligida desak, yangilishmagan bo'lamiz. Ya'ni, G'afur G'ulomning dastlabki asarlaridan bo'lishiga qaramasdan, bu she'rda chinakam klassiklarga xos san'atkorlik va mazmundorlik hamda ta'sirchan ohangdorlik mavjudki, bular bugun ham ko'plab shoirlarimizga yuksak poetik mahorat bobida namuna bo'lib xizmat qilishi mumkin:

*... Bu yo'llar*

*Ko'p qadam yo'llar,*

*Besh million,*

*O'n million,*

*Yuz million nafar*

*Qullar va tullar,*

*Gardanda cho'yandan quyilgan zanjir,*

*Yerlarda hashorat kabi,*

*Ochlikdan,*

*Zorlikdan gezarib labi,*

*Ojiz, mahkum, xor va betabdir*

*Non deya, non deya, surunib kechmishdir...*

G'afur G'ulomning allaqachon adabiyotimizning oltin xazinasidan o'rin olgan bunday she'rlarida namoyon bo'lgan yuksak so'z san'ati va poetik mahorati haqida hayrat bilan o'ylaganda, beixtiyor mashhur rus yozuvchisi Lev Tolstoyning bir fikr yodimizga keladi. "Sa'natkor-degan edi Lev Tolstoy, o'z fikrini chuqur va go'zal qilib ifodalash uchun yozuvchilik mahoratini shu darajada mukammal egallashi kerakki, u asar yozayotganida xuddi yurib ketayotgan kishi qadam tashlashning oddiy qoidalari haqida o'ylamagandek, yozish qoidalari haqida juda oz o'ylasin". G'afur G'ulomning ko'plab she'rlari va qissa-

hikoyalari mana shunday favqulodda yuksak mahorat bilan yaratilgandir.

G'afur G'ulom she'riyatining hayotiyliigi va ularning ta'sirchanligini benihoya oshirgan muhim omillardan biri, shubhasiz, milliylik ekanligini shoirning ko'plab asarlari misolida yaqqol kuzatish mumkin. Birgina misolga to'xtalaylik: xalqimizning fashizm bilan bo'lgan hayot-mamot janglarida 1945 yili g'alaba qozongandan so'nggi xush kayfiyati va butun mamlakatimiz bo'ylab taralgan shodlik tuyg'ularini ifoda etish uchun boshqa shoir-yozuvchiga kamida bir necha sahifalar kerak bo'lardi. G'afur G'ulomesa mana shu cheksiz shodlik tuyg'ularimizni qisqa satrlarda katta mahorat bilan aks ettirishga va muhimi chuqur o'zbekona tafakkur va serjilo bo'yoqlarda milliy til va detallar orqali o'quvchining esida qoladigan jonli manzaralarda badiiy ifoda etadi:

*Shodlik qo'shini bosdi saodat ko'chasini,  
Go'daklar jaranglatar hayitlik tangasini.  
Kelinchaklar axtarar pardoq qutichasini,  
Qirq kokil bo'lsin, deydi, qistaydi yangasini,  
Bu kun chin arafadir...*

E'tibor beraylik, she'riy parcha bor-yo'g'i besh satrdan iborat. Lekin shu qisqa satrlarda G'afur G'ulomning tengsiz badiiy mahorati ham, chuqur milliy tafakkuri va xalqchilligi ham yorqin mujassam. Chunki faqat o'z xalqi va millati, ruhiyatini xuddi ona o'z farzandining ko'nglini yaxshi bilganiday, chuqur bilgan va o'sha xalqchilik va milliylik qon-qoniga singib ketgan shoirgina bunday mazmundor va rangdor obrazlar va unitilmas manzaralar yaratishga qodir bo'ladi.

Fikrimizning yana bir dalili sifatida O'afur O'ulomning ma'lum ma'noda yttuk badihago'yligidan ham yorqin dalolat beruvchi va chinakam milliy tafakkur ba o'z bekona bag'rikenglikning go'zal bir namunasi bo'lgan "Bizning uyga qo'nib o'ting do'stlarim" she'ridan bir bandini keltiraylik:

*Keksa shoir tilidan ovoqimiz,  
Shunday o'tsin har bahoru yozimiz,  
Ko'p ko'rinsin ko'zingizga ozimiz,  
Do'stlar uchun jonimiz-муёзимиз,  
Bizning uyga qo'nib o'ting, do'stlarim!*

"Sen yetim emassan" day shoh asarlari bilan xalqimizni dunyoga tanitgan ulug' alloma G'afur G'ulomning "daryodil shoir"ligi (Ozod Sharafiddinov) ham, uning abadiyatga duxldorligi ham, eng avvalo, shoirning mana shunday oliyhimmat va keng fe'lida, beqiyos o'zbekona tantiligida bo'lsa kerak.

## **ADABIYOTIMIZNING SO'NMA S YULDUZI**

### **Hamid Olimjon portretiga chizgilar\***

Qadim va boy tarixga ega bo'lgan adabiyotimiz silsilasida muhim bir bos qich bo'lgan XX asr o'zbek adabiyoti tarixini Hamid Olimjon ijodisiz to'liq tasavvur etib bo'lmaydi. U tengqurlari-G'afur G'ulom, Oybek, Abdu'lla Qahhor va Shayxzoda singari ko'p qirrali ijod sohibi edi. Ijodkor ma'lum bir davr farzandi, muhit hodisasi bo'lganligi uchun ham, u yashagan davrning asosiy tamoyillari, ruhi uning ijodiga o'z ta'sirini o'tkazishi tabiiy. Hamid Olimjon ijodiyoti va she'riyatining hayotiy manbalari nimalardan iborat? Uning yetuk ijodkor va yorqin shaxs bo'lib ulg'ayishida qanday ijtimoiy-estetik omillar asosiy rol o'ynaydi? Bular xususida fikr yuritishdan oldin Hamid Olimjon adabiyot maydoniga kirib kelgan og'ir yillarni va o'sha davrdagi ijtimoiy-siyosiy va adabiy hayotni ko'z oldimizga keltiraylik. Shuni alohida ta'kidlash kerakki, Hamid Olimjon avlodi ijod olamiga kirib kelgan 20-yillar butun xalqimiz va madaniyatimiz tarixida eng murakkab va ziddiyatli bir davr bo'lganligi endilikda

\* maqola adabiyotshunos Yu.Karimova bilan hammualliflikda yozilgan.

ro'yi rost ko'rsatilmoqda. Bu murakkab davrning haqqoniy manzaralari – xalqimiz va millatimiz boshiga tushgan fojealar, eng avvalo, Fitrat, Abdulla Qodiriy va Cho'lponlar asarlarida ham o'zining yorqin ifodasini topgan edi.

Hamid Olimjon xuddi mana shunday mustabid sho'ro tuzumining mafkuraviy hukmronlik va zo'rvonlik siyosati avj olgan bir paytda tengqurlari – Oybek, G'afur G'ulom, Qahhor, Uyg'un va Mirtemir singari jo'shqin ovozi va iste'dodi bilan adabiyot maydoniga kirib keldi. Bu to'ng'ich adiblarimiz chekiga tushgan qismat ham ijobiy, ham salbiy mazmun-mohiyatga ega edi. Ijobiy tomoni shundaki, Hamid Olimjon bevosita ana shu jo'shqin va murakkab hayot ichida yashadi, toblandi va xalq bilan hamnafas-u hamdard bo'lib, yetuk bir ijodkor sifatida shakllandi. Bu davrning Hamid Olimjon va unga tengqur avlod vakillari ijodiga ko'rsatgan dahshatli salbiy ta'siri deyilganda, birinchi navbatda, hukmron kommunistik mafkura va uning ijodkorlar oldiga qo'ygan asossiz va bema'ni talablarini nazarda tutamiz. Hamid Olimjon kabi yirik adiblarimiz tug'ma iste'dod sohibi bo'lish bilan birga, ular ham Sharq, ham rus va jahon ilg'or adabiyotidan, ham xalqimizning bitmas-tuganmas og'zaki ijodidan benihoya ko'p o'rganganligi va bu o'rganish jarayonida iste'dodi yanada kamol topganligi ibratlidir.

Shoir Mirtemir 20-30-yillar Samarqand adabiy-madaniy muhiti, xususan, Hamid Olimjonning jo'shqin faoliyatini eslab, u Mixail Svetlovning "Grenada" sini juda yaxshi ko'rishini, nihoyatda ta'sirchan o'qishini, keyinchalik esa shu she'rni chiroyli tarjima qilganligini ta'kidlaydi. Insonlarni ozod va obod ko'rishni istagan, hurlikni jon qadar suygan, g'ayrati, matonati ichiga sig'magan, hayotsevar o'smir yigit - "Grenada" qahramoni bilan davr shiddati talab etayotgan hozirjavoblik, safarbarlik, fidoiylilik, yangi turmushdan olingan turfa taassurotlar va yoshlikning romantik ehtiroslariga to'lib-

toshgan Hamid ruhiy yaqinlik his etgan, o'z idealini uning timsolida ko'rgan bo'lsa, ajab emas.

“Davr murakkab edi, – deb yozadi Zulfiya, – ba'zilar o'zi bilan o'zi, ba'zilar esa atrofdagilar bilan bahslashardi. Qurilayotgan yangi zamon mashaqqatlari, shiddatlari orasida uning kelajagini juda yorqin tasavvur etish va ishonish hammaga ham birday nasib bo'lavermas edi. Hamid Olimjon esa o'zi ishonibgina qolmay, boshqalarni ham ishontira olish qobiliyatiga ega edi”.<sup>2</sup> Shoirning kuyida gi shiddatli satrlari ham o'sha ishonchdan tug'ilgan:

*Dunyo ostin-ustun bo'ldi,  
Yangi dunyoning  
Qarashlari o'tkir, Hujumlari zo'r,  
Yengilgan dunyoning bag'rini bosib  
Yulduzga intilgan bu davr mag'rur.*<sup>3</sup>

Hamid Olimjon “qizil o'lka”ning o'quv, matbuot dargohlarida, jamoat tashkilotlarida o'ziga singdirilgan g'oyalarni “yo'qsil dardi uchun kuygan er yigitning yuragi” bilan qabul qilar, “ariq-ariq qonlar” evaziga qurilayotgan yangi hayot “hur turmush” bo'lishiga, unda motamlar tarixi o'tda yonishiga, o'lka “baxtlar vodiysi” bo'lib qolishiga qattiq inonardi va ana shu umid-ishonch uning ilk ijodining g'oyaviy mavzu-mundarijasini belgilab berdi.

20-30-yillarning juda ko'p yosh shoirlari va, albatta, Hamid Olimjon ham xalqlar otasi boshchiligida, partiya rahbarligida olib borilayotgan har bir ishning to'g'riligiga, uning baxayr bo'lishiga shubhalanmagan. Shuning uchun ham o'z qalam kuchlarini hech ikkilanmasdan sinfiy-inqilobiy ishlarga safarbar deb bilganlar sotsialistik Vatan erishayotgan har bir yutuq: qishloqqa traktorning kirib kelishi, to'g'on qurilishi, elektr stansiyalarining barpo etilishi, temir yo'l yotqizilishi

<sup>2</sup> Zulfiya. Asarlar. 3-jild. – T., 1986, 12-b.

<sup>3</sup> Hamid Olimjon. O'rik gullaganda. – T., 1990, 64-b.

ham dolzarb badiiy mavzu bo'lavergan, kim o'zarga madh etilgan, go'yo she'riyatning o'zi ham ulkan sanoat maydoniga aylanib qolgandek tuyuladi bu davrda.

Ba'zi adabiyotshunoslar davr va adabiyot, jumladan, Hamid Olimjon haqida fikr yuritib, "Afsuski, bu iste'dod ko'proq nokerak narsalarga sarf bo'ldi. Nachora, aslida bu ham shoirning qismati: murg'ak yoshidanoq sho'ro ta'sirida shakllangan, o'ziga singdirgani yolg'on haqiqatlarga chin haqiqat deya, yurakdan ishongan va o'smirlarga xos o'jar fidoyilik bilan davrning ziddiyatli g'oyaviy kurashlar maydoniga kirgan faol shaxs", deb yozishadi<sup>4</sup>. Darhaqiqat, Hamid Olimjon faol, hatto juda faol, ayni paytda, o'ziga xos va kuchli shaxs bo'lmaganda, stalincha qatag'onning ajal tegirmoni uni ham juda ko'p ziyolilar qatorida yutib ketishi hech gap emas edi.

1937-yilni Oybekning ayoli Zarifaxonim "boyqush kelgan yil", deb ataydi. Ziyolilarga qiron keltirgan bu yil Hamid Olimjonni ham chetlab o'tmadi.

Qatag'onga uchragan o'zbek ziyolilari haqidagi adolatni tiklashda xayrli ishlarni amalga oshirgan adabiyotshunos Nairn Karimovning yozishicha, jumhuriyat Yozuvchilar uyushmasining birinchi raisi Rahmat Majidiy hibsga olinganda, Hamid Olimjon siyosiy idoraga qo'ng'iroq qilib, uning rartiya ishiga

Ammo Siyosiy idoradagilar uni eshitishni ham xohlamaydilar.

Ana shunda Hamid Olimjon: "Unday bo'lsa, meni ham qamang. Men ko'p masalalarda Rahmat Majidiy bilan maslakdosh bo'lganman", deydi. Hamid Olimjonning yirik shaxs va shijoatli ijodkor ekanligidan yorqin dalolat beruvchi bunday keskin e'tiroflarsiz ham sho'ro jallodlari uning boshi

<sup>4</sup> D.Quronov. "Adabiyot nadur" yoki Cho'lponning mang'lu savoli. – T., 2006, 58-b.

uchun ham dor tikmoqda edilar. Shoirning adolattalabligi bu ishni tezlashtirib yubordi. 1937-yil 14-dekabrda bo'lib o'tgan Yozuvchilar uyushmasining umumiy majlisida Hamid Olimjonning shaxsiy masalasi ko'riladi. "Xalq dushmanlari Akmal Ikromov, Fayzulla Xo'jayevning chet eldagi sheriklari Mustaf o Cho'qayev, Zakii Validiylar bilan muntazam aloqada bo'lib turgan, xalq dushmani Mirtemirga moddiy yordam bergan. "Qizil qalam" tashkilotida Akmal Ikromovning ustanovkalarini amalga oshirgan, 1925-yili Oltoy, Botu kabi xalq dushmanlari bilan aloqada bo'lgan. "Qizil qalam" jamiyatida mas'ul kotib bo'lib ishlab yurganda, nomiga fashistik jurnallar kelgan. "Siyob", "Buxoroni sog'inganda", "Ishim bordir o'sha ohuda", "Zarafshon" kabi she'rlarida qora o'tmishni qo'msaydi" kabi ayblovlar bilan Hamid Olimjonga tuhmat toshini yog'diradi. Shoirdan "Qizil qalam" tashkilotiga a'zo bo'lgan boshqa ijodkorlar haqida ko'rsatma berishni talab etadilar.

Hamid Olimjonga nisbatan qo'yilayotgan siyosiy ayblar kun sayin ortib bordi. O'sha paytdagi eng nufuzli matbuot nashrlarida ("Qizil O'zbekiston", "Madaniy inqilob" gazetalari) Hamid Olimjon nomiga qora bo'yoq chaplanadi. Nihoyat, bu ishlar pirovardi Hamid Olimjonni millatchi shoir sifatida Yozuvchilar uyushmasidan o'chirib tashlash bilan yakunlanadi. Butun vujudi bilan o'zining haqligiga ishongan shoir qo'mitaning qaroriga qaramasdan, Yozuvchilar uyushmasi yig'ilishlarida qatnashaveradi. Kechagina o'zlarini Hamid Olimjonga do'st deb bilib yurgan ba'zi insonlar shoirdan majlisdan chiqib ketishini talab qilishganda, Hamid Olimjon: "Nega chiqar ekanman? Mening joyim shu yerda. Ular chiqib ketsin!", deydi. Vaziyat shu darajada keskinlashadiki, Hamid Olimjonning majlisdan chiqib ketishi ovozga qo'yiladi. Bu to'polonning oxiri, albatta, Hamid Olimjonni qamoqqa olish bilan yakunlanishi kerak edi. Ammo shoir "Bashar quyoshiga" she'rini yozib, uni o'sha kuni Hamza teatrida

qo'yilishi kerak bo'lgan spektakldan oldin sahnaga chiqib, hukumat rahbarlari oldida o'qib beradi. Shoir ana shunday tadbir bilan 37-yil qatag'onidan o'z jonini saqlab qoladi. Agar Hamid Olimjonda ichki bir qat'iyat, o'ziga ishonch, matonat bo'lmaganda edi, bekordan bekor nobud bo'lib ketishi hech gap emas edi. Ya'ni, xalqona aytganda, o'z boshiga yoqqan qorni o'zi kuradi, oqilona tadbir bilan sho'ro doridan nafaqat boshini qutqardi, balki Yozuvchilar uyushmasidagi o'z o'рни va mavqeini ham saqlab qoldi. 1938-yil 18-aprelida Yozuvchilar uyushmasining tashkilot qo'mitasida shoirni O'zbekiston Yozuvchilar soyuzida haqiqiy a'zo qilib qoldirishga qaror qilinadi.

Hamid Olimjon ijodining dastlabki onlaridanoq davr bilan qanchalar hamnafasligi, hozirjavob va sermahsul qalam sohibi bo'lib yetishganligini 30-yillar boshida birin-ketin nashr etilgan asarlaridan ham tasavvur etish mumkin. Shoirning jo'shqin ijodiy faoliyatining "Ko'klam"i bo'lib, 1929-yilda maydonga kelgan ilk to'plamidan so'ng qisqa vaqt ichida "Tong shabadasi" (1931) hikoyalar to'plami, "Olov sochlar" (1931), "Poyga", "O'lim yovga" (1932) she'riy to'plamlari kitobxonlar qo'liga yetib bordi. Eng muhimi, bu to'plamlarda Hamid Olimjonga xos bo'lgan ko'tarinki ruh, shoirona keng mushohada va tafakkur, yangi hayotni poetik idrok etish, tasvirlash qobiliyati kuchayib bordi. Shuni alohida ta'kidlash lozimki, Hamid Olimjon hamisha jo'shqin va ko'tarinki ilhomiy holatda irod etgan. Yosh shoirdagi bu holat dunyoni yangidan qurayotgan "zo'r" xalqning ilhomiy holati tufayli tug'ilgan edi.<sup>5</sup>

Hamid Olimjon ijodiy va ijtimoiy faoliyatining avval boshidanoq "Men... sevinchli hayotga borlig'im bilan otildim", - degan edi. Darhaqiqat, Hamid Olimjonning aksariyat

<sup>5</sup> Salohiddin Mamajonov. Lirik olim, epik ko'lam. - T., 1979, 82-83 b

she'rlarida baxt va shodlik motivlari doimiy yetakchilik qildi. Bu holat ham shoirning tabiatidan, ruhiyatidan kelib chiqadi.

Hamid Olimjon ruhan jo'shqin, ko'zi bilan ham, qalbi bilan ham birdek go'zallikka intilgan, faqat va faqat atrofni to'kis ko'rishga intilgan hayotsevar ijodkor edi. Shuning uchun ham adabiyotshunos Ibrohim G'afurov: "Hamid Olimjonning ruhiy dunyosida fojiali yo'nalish yo'q. She'r va ilhomni shukuh, sof shukuh deb biladi", - deb yozganda haq edi.

Haqiqatan ham, Hamid Olimjon oliy ne'mat - latif ilhomiy holatda so'zning ilohiy qudratini ko'proq munavvar tuyg'ularning ifodasiga xizmat ettiradi. Uning "Eng gullagan yoshlik chog'imda", "Ishim bordir o'sha ohuda", "Xayoling-la o'tadi tunlar...", "Xayrlashuv" kabi durdona she'rlarining o'quvchini ohangrabodek o'ziga tortuvchi joziba kuchi ham shunda.

Shoir sof lirikasining eng go'zal namunalaridan "O'rik gullaganda"ni Hamid Olimjon ijodining muzayyan poetik cho'qqisi deb atash mumkin. XX asr o'zbek milliy nasrida "O'tkan kunlar" qanchalik mangulikka da'vogar bo'lsa, she'riyatda "O'rik gullaganda" ana shunday boqiylik sari yuz tutmoqda. Zero, Hamid Olimjon ijod etgan davr va undan keyin ham adabiyotimizda baxt, bahor, o'rik gullari haqida yuzlab she'rlar bitildi, qo'shiqlar yozildi. Ammo har yili ham o'zbek xonadoniga bahor Hamid Olimjonning "O'rik gullaganda" she'ri bilan kirib keladi desak, haqli e'tirof bo'lur edi.

Ko'ngil guldek nozik, deydilar. Inson ko'ngli gulga mengzaladi. Shuning uchun zamon talato'mlaridan ozurda bo'lgan ko'ngil haqida Mirzo Bobur shunday deydi:

*Mening ko'nglimki gulning g'unchasidek tah-batah qondur,  
Agar yuz ming bahor o'lsa, ochilmog'i ne imkondur.*

She'r shukuhi, ilhom shukuhi, ijod etish shavqi Hamid Olimjon qalbini, ko'nglini o'rik gullari misol bezab, to'ldirib turadigan go'zallik. Bularsiz shoir umri gullarning totini yelga oldirib qo'ygan quruq novdadek yalang'och, fayzsiz. 1937-boyqush yilining sovuq ayovsiz yellari juda ko'p "gullarni" sovurib ketdi. "O'rik gullaganda" shu davr mahsuli – umid, armon, xavotir va iztirob to'la shoir ko'nglining dardli izhori.

"Mayli deyman, qilmayman g'ash", - deydi shoir. G'ash, g'ashlik ko'ngil sifati. U iztirob va dardning hosilasi. Izitirob va dard esa insonni yuksaltiradi, iste'dodga qudrat bag'ishlaydi. Shuning uchun ham bir she'rda Usmon Nosir: "Dardimsanki, she'rim yaxshisan", - deydi. E'tirof etish kerakki, Hamid Olimjon ijodida darddan, munavvar iztirobdan tug'ilgan she'rlar talaygina. "O'rik gullaganda" esa shularning yorqin bir namunasi.

Biz yuqorida Hamid Olimjonni kuchli va faol shaxs dedik. Aslida, bu uning ijodiy, ijtimoiy va adabiy-ilmiy faoliyati va shaxs sifatidagi insoniy fazilatlarini yaxshi bilgan zamondoshlari e'tirofi.

Hamid Olimjon 1932-yili O'zbekistonda ta'sis etilgan Madaniy qurilish tekshirish institutining adabiyot bo'limida katta ilmiy xodim bo'lib ishlaydi. 1932-1934-yillarda Yozuvchilar soyuzining nashri bo'lgan "Sovet adabiyoti" jurnalida mas'ul kotiblik vazifasida faoliyat ko'rsatadi.

1934-yilda O'zbekiston Fanlar komiteti tashkil qilinib, uning tarkibida Til va adabiyot instituti ochiladi. Hamid Olimjon bu institutda ilmiy xodim, keyinchalik adabiyot bo'limining rahbari sifatida 1937-yilga qadar ishlaydi. Hamid Olimjon adabiy-ijodiy ishlar bilan bir qatorda samarali ilmiy izlanishlar ham olib bordi, o'zbek adabiyotining dolzarb masalalariga jiddiy e'tibor qaratdi. Binobarin, Hamid Olimjon ijodiy faoliyatining samarali bir yo'nalishi

uning tarjimonlik va adabiyotshunoslik salohiyatida yaqqol ko'zga tashlanib turadi. Ayniqsa, Alisher Navoiy hayoti va ijodini o'rganishda, shuningdek, yangi davr o'zbek adabiyotining shakllanishi va taraqqiyoti muammolarini yoritishda Hamid Olimjonning izlanish va tadqiqotlari barakali bo'lganligini e'tirof etish joiz. To'g'ri, Hamid Olimjonning tanqid va adabiyotshunoslik asarlarida ayrim biryoqlama va bahsli xulosa, qarashlar ham (jumladan, jadidchilik, Fitrat haqida) uchraydiki, ular ko'proq murakkab davr va g'oyaviy-siyosiy mafkura bilan izohlanadi. Qolaversa, bunday biryoqlamaliklar Hamid Olimjon adabiy-estetik qarashlarining asosiy mazmun yo'nalishini tashkil etmaydi.

1938-yilda respublikamizda Alisher Navoiyning 500 yillik yubileyiga tayyorgarlik boshlanadi. Hamid Olimjon Hukumat yubiley komitetining ilmiy kotibi, keyinchalik esa (1940-yil) Komitet raisi o'rinbosari vazifasini bajaradi. Ana shu yillari Hamid Olimjon Navoiy ijodining ulug'vorligi va adabiy merosining ahamiyati haqida yigirmadan ortiq maqolalar yozadi, ma'ruzalar qiladi. O'zbek adabiyotini yuksaltirishda, chin ma'noda xalqchil qilishda folklorning ahamiyati buyukligini chuqur anglagan Hamid Olimjonning "Alpomish" dostoni ustidagi bir olim ham muharrir sifatidagi faoliyati "asriy olqishga sazovor mehnatdir". Hamid Olimjonning bir qator maqolalari jahon adabiyoti, jumladan, rus adabiyotining A.S.Pushkin, Lev Tolstoy va Maksim Gorkiy singari zabardast namoyandalari hayoti va ijodini o'rganishga bag'ishlanganligi bilan e'tiborni tortadi. Chunonchi, Hamid Olimjonning chuqur ehtiros bilan yozilgan "Yozuvchilarning omonsiz yovi" va "Buyuk siymo" (1938) maqolalarida Gorkiy ijodining yorqin pafosi va kurashchanlik ruhi yaxshi ochib berilgan. "Xalq dushmanlariga, fashistlarga qarshi Gorkiyda bo'lgan g'azab cheksiz va chegarasiz edi, - deb yozadi Hamid Olimjon. - Gorkiy ularni to'g'ridan to'g'ri ikki oyoqli hayvonlar deb atar edi.

Fashistlar haqida yozar ekan, Gorkiyning soʻz xazinasini buyuk bir gʻazab bilan toʻlqinlanar edi. Gorkiy xalq dushmanlari, fashistlar, yovuzlarga qarshi “butun jahon tribuni” edi. Gorkiy tafakkurining qudrati va yozuvchi ijodining olamshumul mohiyati haqida bunday chuqur va odilona mulohazalar 30-yillar - hali XX asr oʻzbek adabiyotshunosligi va tanqidchiligi gʻoyaviy-estetik jihatdan ham, metodologik jihatdan ham toʻla shakllanmagan, balki endi rivojlanib kelayotgan bir davrda aytilganligi eʼtiborga olinsa, bu maqolalarning qimmatini yanada oshadi.

Hamid Olimjon Oʻzbekistonimiz va xalqimizning boy madaniyati va tarixi bilan haqli ravishda gʻururlanganidek, oʻzbek kitobxonlarini rus adabiyotining yetuk namunalari bilan tanishtirishdek masʼuliyatli ishga ham oʻzining ijodiy bir burchi deb qaraadi. A.S.Pushkin, L.Tolstoy, M.Gorkiy, V.Mayakovskiy, A.Serafimovich, N.Ostrovskiy kabi mashhur adiblarning mumtoz asarlarini oʻzbek tiliga oʻgʻirishda ham jonbozlik koʻrsatdi. Bu boradagi iibratli xizmatlari uchun hukumatning Faxriy yorligʻi bilan taqdirlandi.

1939-yil Hamid Olimjon Oʻzbekiston sovet yozuvchilar uyushmasining raisi qilib saylanadi va umrining oxirigacha shu vazifada ishlaydi. 1943-yili Oʻzbekiston Fanlar akademiyasining muxbir aʼzosi etib saylanadi.

Hamid Olimjon Yozuvchilar uyushmasiga rahbarlik qilgan yillar ikkinchi jahon urushi davrining eng qiyin pallariga toʻgʻri keldi. Urush taqozosi bilan sobiq ittifoqning turli shaharlaridan kelgan yozuvchi, olimlar orasida ukrainalik ijodkor A.Deych xotiralarining oʻziyoq Hamid Olimjonning bu davr faoliyatiga yorqin taʼrif beradi: “Oʻzbekiston Yozuvchilar uyushmasining raisi Hamid Olimjon juda yosh boʻlishiga qaramay, mohir tashkilotchi edi...”

U bizlarning har birimiz bilan mohirona til topib gaplashar, iliq munosabatda boʻlardi. Hamid Olimjondagi

har bir san'atkorning qalbiga yo'l topish iste'dodi ulkan davlat arbobiga xos bilimdonlik bilan uyg'unlashib ketgandi. Hozlarni kutib olgan Hamid Olimjon bunday degan edi: "Men Toshkent sizlar uchun urush tugashini kutib o'tiradigan kutish dargohimas, balki butun umr esda qoladigan qadrdon uylingiz bo'lib qolishini istayman. Vaqt kelib Moskvaga qaytganingizda ham har biringiz o'zbek adabiyoti va madaniyatini unutmasdan, uning taraqqiyoti uchun xizmat qilishingizni istayman".<sup>6</sup>

Shu tariqa Hamid Olimjon bir necha millat yozuvchishoirilarini ezgu bir maqsadga birlashtira olgan edi. Shoir ko'plab tashkiliy va jamoat ishlari ichida ham ijod uchun vaqt topgan. Zulfiya shunday guvohlik beradi: "Hamid Olimjon "Ijodkorlar uchun yozgan narsasidan bo'lak hech qanday imtiyoz bo'lmasligi shart", degan aqidaga rioya qilar, biror satr she'r yozmagan kunida o'zidan juda norozi bo'lar, o'sha kunni umri hisobiga qo'shmay, o'chirib tashlagisi kelardi". Zero, Sarvar Azimov to'g'ri ta'kidlaganidek, doimiy izlanish, tinimsiz ijodiy mehnat va asar yaratish Hamid Olimjon uchun muqaddas holat edi.<sup>7</sup>

Muqanna qo'zg'oloni tarixiga qiziqish, shu haqda asar yozish ishtiyoqi Hamid Olimjonda Sadriddin Ayniy ta'sirida Samarqandda Pedakademiya talabasi yekanligida, "Zaynab va Omon" poemasi va "Jinoyat" dramasi yozish niyati esa 1933-yili Farg'ona vodiysi bo'ylab safarda tug'iladi. Ammo bu ijodiy niyatlarini Hamid Olimjon 10-12 yildan so'ng, poetik mahorati yetilgan bir paytda, amalga oshirdi.

1942-yili yozib tugallangan va 1943-yil 21-avgustda ilk marta sahnaga qo'yilgan "Muqanna" dramasi nafaqat Hamid Olimjon ijodida, balki butun o'zbek adabiyoti va madaniy hayotida ham muhim bir voqea bo'ldi. Ikkinchi jahon

<sup>6</sup> A.Deych. O'zbekiston qalbi. T. Adabiyot va san'at nashriyoti, 1979, 24-b

<sup>7</sup> Sarvar Azimov. Abadiyat. - T., 1988, 97-b.

urushining og'ir yillarida yaratilgan "Muqanna" dramasi, eng avvalo, o'zining chuqur Vatanparvarlik g'oyasi, yuksak badiiyligi bilan ajralib turadi. Hamid Olimjonning vosh qa ko'plab she'riy va publisistik asarlari kabi bu drama ham xalqimiz Qalbidagi tuyg'ularni, ayniqsa, yovuz dushmanga bo'lgan qahr-g'azabi va erk-ozodlik uchun kurash tuyg'ularini jo'sh urdiradi, ularni matonat va jasoratga undaydi.

Muqanna o'zining chinakam xalqparvarligi, erk va ozodlik uchun mardonavor kurashi bilan bir necha avlodlarga ibrat bo'lib xizmat qilganligi tarixiy haqiqatdir. Xalq Muqannaning kimligi va orzu-a'molini so'raganda, u o'zini va yuksak maqsadlarini shunday izhor etadi:

*Sizni bosgan jarohatlarga malham,*

*Ozodlikdir shiorim,*

*Hurriyatdir topinajak ollohim!*

*Faqirlarga uzataman qo'limni*

*Menga kelsin barcha jabr ko'rganlar,*

*Uyi kuyib ko'cha-kuyda yurganlar...*

Drama tarixiy o'tmish voqealarini chuqur aks ettirishi bilan birga, u olis o'tmishda mislsiz qahramonlik ko'rsatgan Muqanna singari buyuk ajdodlarimiz vatan himoyasi uchun kurashayotgan jangchilarimizga ruhiy madadkor bo'la olganligini aks ettirishi bilan ham ahamiyatlidir. Hamid Olimjon o'zining ijodiy-g'oyaviy niyatini bayon etib, aytgan quyidagi so'zlari diqqatga molikdir: "Bir asar yozayki, u teatr sahnasidan turib, dushman bilan kurashsin. Xalqning kuchiga kuch, dushmanga bo'lgan g'azabiga g'azab qo'shsin...Chingizxon Buxoro devorlariga yaqinlashib qolganda, Torobiy xalqni ajnabiy zolimlarga qarshi kurashga undadi. Chingizxonga qarshi otlangan kishilarning tili va dilida Muqanna ismi bo'ldi". Bu asar, eng avvalo, fashist gazandalarga qarshi ayovsiz janglar olib borayotgan jangchilarga qarata yozilgan va shu

boisdan ham uning har bir satri ko'tarinki falsafiy ruh, jangovar publisistik ohang, safarbarlik va vatanparvarlik g'oyalari bilan yo'g'rilgan:

*Mening onam shu tuproqda tug'ilgan,*

*Bobolarim shu tuproqqa ko'milgan.*

*Shu tuproqda kindigimning qoni bor,*

*Shu tuproqda avlodimning qoni bor...*

Muqanna erksevar xalq irodasi va dushmanga bo'lgan nafratining yuksak bir timsoliga aylanadi. U dushmanga tiz cho'kkandan ko'ra olovda yonib, nafrat o'tiga aylanishni va mangu olov bo'lib, xalq yuragini hamisha alangalatib, ularni ozodlik uchun kurashga chorlab turuvchi qasos ramziga aylanishni afzal ko'radi:

*Olovni yoq, volidayi muhtaram,*

*Olovni yoq, yorisin yeru olam.*

*Nafrat o'ti kabi yonib qonlarga,*

*Qo'shilaman million-million jonlarga,*

*Yovni jondan yomon ko'rganligim rost,*

*Bundan so'ngra nomimni qo'ying: qasos!*

Dramadagi asosiy qahramonlardan biri bo'lgan Guloyim Muqannaga hamisha hammaslak va hamkor bo'ladi va bosqinchilarga qarshi, adolat va ozodlik uchun kurashda ham matonat ko'rsatadi. U o'zining donoligi, mardligi, pokiza muhabbati va sadoqati bilan xalq dostonlaridagi jasur ayollarga o'xshaydi va mana shunday fazilatlari bilan o'quvchilar mehrini qozonadi. "Muqanna" dramasi o'zining g'oyaviy-badiiy yetukligi, chuqur vatanparvarlik g'oyalari bilan tomoshabinlar e'tiboriga sazovor bo'ladi va Yozuvchilar uyushmasi tomonidan yuksak baholanib, Davlat mukofotiga tavsiya etiladi. Erk va ozodlik, mustaqillik g'oyalari bilan yo'g'rilgan bunday yetuk asarlar bizning kunlarimizda ham o'z ahamiyatini yo'qotgan emas. Zeroki, ona diyorni

sevish, uning uchun kerak bo'lsa, jonini fido qilish ruhi bugungi milliy g'oyalarimizga hamohangdir. Yangi davr o'zbek she'riyati va poemachiligida yorqin bir sahifa ochgan Hamid Olimjon eng qiyin janr – dramaturgiyada ham qalam kuchini namoyish etib, yana bir karra o'zining serqirra ijodkor ekanligini isbotladi. Asarning g'oyaviy-badiiy quvvatini yuqori baholagan atoqli yozuvchi A.Fadeyev: “Muqanna” pyesasi g'oyat zo'r iste'dod bilan yozilgan», - deydi. Hamid Olimjon o'zining 1944-yili yakunlangan “Jinoyat” dramasida jamiyat taraqqiyotining ma'naviy omillaridan hisoblangan axloq, inson erki va burchi masalalari, o'ta murakkab, chigal va nozik insoniy munosabatlarni bir o'zbek oilasi misolida badiiy tadqiq etadi.

O'zbek xonadonida ota – oila ustuni. Oila qo'rg'onining mustahkamligi ana shu ustunning nechog'lik sobitligiga bog'liq. Drama qahramoni munofiq ota Shahriyor tabiatidagi nopoklik, buzuqlik tufayli ham bu azaliy sharaflı burchni unutadi. O'z nafsı yo'lida o'g'li Iftixor va uning sevgilisi Xumorning orzularini razilona poymol etib, ayni paytda, Gulzorni ham chin baxtdan mahrum etadi. Shaxriyor oilasiga va otalik burchiga ham xiyonat qiladi. Alam va armon bilan yonayotgan Gulzor qo'li bilan o'z o'g'liga og'u tutadi.

Dramada faqat Shahriyorning jinoyati fosh bo'lmaydi. Bu asarda o'quvchi diqqatini jalb qiladigan yana bir jinoyat bor. Bu o'z taqdiriga befarq, o'z muhabbati va orzu-umidlarini himoya etolmagan jur'atsiz Iftixor jinoyati. Asar so'ngida bu g'oya Iftixorning achchiq iqrori orqali ifodalangan:

*Allaqachon men ajal sharobini  
Ichib olib tortardim azobini*

*Chunki meiling o'zim edim gunohkor,  
Ojiz edim, bejur'at-u, beqaror.*<sup>8</sup>

Pyesada yoritilgan hayotiy ma'naviy-axloqiy muammolar bugun ham dolzarbligini yo'qotgani yo'q. Shu tariqa Hamid Olimjon o'zbek dramaturgiyasi rivojiga muhim hissa qo'shgan yirik san'atkor sifatida ham e'zozga loyiqdir.

Shoir, dramaturg, adabiyotshunos, publisist, notiq, davlat arbobi. Vu sohalarning birortasida Hamid Olimjon, Zulfiya ta'biri bilan aytganda, "chala qurib, shala yiqmagan". U o'zi namoyon bo'lgan jabhalarning "fidoyi mehnatkashi", "mohir ishchisi" bo'lgan. Shuning uchun ham Mirtemir: "Bilmagani oz, o'qimagani kam, har narsadan xabardor, chin ma'nosi bilan o'qimishli qalamkash edi. Uning yirik adibligiga, bilim ufqining kengligiga, ulkan arboblighiga bir so'zlashgan odamda shubha qolmas, aytgani ikki bo'lmas, vojib va bajarilishi zarur gapday qabul qilinar edi", – deb yozsa, G'afur G'ulom: "Biz hammamiz raisimiz sifatida Hamidni g'oyat hurmat qilardik, unga itoat qilar edik. Hamidning rahbar sifatidagi ish metodlaridan yana birisi shu ediki, u hech qachon bir vazifani amri farmoyish bilan buyurmas edi. Gap nimada ekanligini tushuntirar edi. Siz o'z navbatida shu vazifani bajarib qo'yganligingizni bilmay qolar edingiz"<sup>9</sup>, – deydi.

Rus adabiyotining atoqli vakillaridan biri N. Tixonov: "Niyatlari ko'p, ko'p narsani bilgan, ko'p narsaning mohiyatini anglab yetgan, o'zining salmoqli so'zini aytishga qodir ulkan shoir", deb eslaydi Hamid Olimjon haqida.

Bunday yuksak va samimiy e'tiroflar bilan tanishar ekanmiz, ular ortidan nurdek balqib "peshonasida va yirik ko'zlarida...

<sup>8</sup> Hamid Olimjon. Mukammal asarlar to'plami. 4-tom. Pyesalar. – T.: Fan, 1981, 292-b.

<sup>9</sup> G'afur G'ulom. Mukammal asarlar to'plami. 12-jildlik, 11-jild. – T.: Fan, 1989.

ulug'lik ochiq-oydin", birgina suhbatidayoq "ko'zlaridan ko'ngillarga yo'l oladigan" navqiron Hamid Olimjon siymosi namoyon bo'ladi. Shu o'rinda qisqa bir izoh berib o'tish zarurati tug'iladi. Gap shundaki, keyingi paytlarda ayrim adabiyotshunos va kitobxonlar Hamid Olimjon va u mansub bo'lgan avlod vakillarining ijodiga "yangicha" yondashishga ortiqcha berilib ketib, ba'zan mazkur adiblarimiz ijodiyoti yoxud ayrim yetuk asarlari haqida ham bepisandlik bilan mulohaza yuritish, ularga noo'rin ta'na toshlarini otishga mayl qilishadi. Hamid Olimjon va boshqa ustoz adiblarimiz ijodiga shu taxlitda bir yoqlama yondashilsa, "sotsialistik tuzum" va uning mafkurasi haqidagi ko'plab "qizil so'zlar" uchun ularni osongina ayblash mumkin. Hamid Olimjon va boshqa us toz adiblarimiz ijodiga shu taxlitda bir yoqlama yondashilsa, "sotsialistik tuzum" va uning mafkurasi haqidagi ko'plab "qizil so'zlar" uchun ularni osongina ayblash mumkin.

Holbuki, baxtiyormiz deb, "qonlari bilan she'rlar bitish" va "o'zi yo'q qo'rg'onga fidoyi jonlari bilan qalqon" (Abdulla Oripov) bo'lish bu avlodning eng katta fojiasi bo'lganligi endilikda ayon bo'lmoqda; yaqin o'tmishimizning bu dahshatli haqiqati, biz, yoshlar uchun achchiq, lekin hayotiy saboq hamdir.

Shu bilan birga ulug' adiblarimizning yuksak badiiy mahorati hamda ularning o'z yurti va xalqiga bo'lgan cheksiz sadoqat-e'tiqodi bugun ham ibrat namunasi bo'la olishidan ko'z yummasligimiz kerak.

Hamid Olimjon asarlarini tahlil etishda, albatta, ularning qanday mavzuga bag'ishlangani yoki biror siyosiy rahbarni ulug'lagani-yu madh etganiga qarab emas, balki, eng avvalo, mazkur she'rlarda Hamid Olimjondek betakror bir shoirning talanti qay darajada namoyon bo'lganligi, uning hayot va inson to'g'risidagi falsafiy-estetik qarashlari qanchalar

teran aks etganligiga qarab baho berilsa, san'atning muhim talablariga rioya qilingan bo'ladi.

Masalan, Hamid Olimjonning 30-yillarda yaratilgan va o'zbek she'riyati da katta bir voqea bo'lgan mashhur asarlaridan biri "Baxtlar vodiysi" ni eslaylik. Agar sobiq sho'ro tuzumi va mafkurasidan kelib chiqilsa, bu she'r ham sotsializmini ulug'lovchi va partiya bilan inqilobni sharafllovchi, ya'ni yangi davrni madh etuvchi shunchaki an'anaviy bir asar sifatida baholanishi mumkin. Lekin she'rdagi eng muhim jihat, bizningcha, shoirning yuksak poetik mahorati va ayniqsa, o'lmishning teran haqiatlarini hayratomuz obrazlar orqali ochib bera olganligida desak, yanglishmagan bo'lamiz. Ya'ni shoirning bu she'rida chinakam klassiklarga xos san'atkorlik va mazmundorlik hamda ta'sirchan ohangdorlik mavjud ki, bular bugun ham ko'plab shoirlarimizga badiiyat jihatidan namuna bo'la oladi.

XX asr o'zbek adabiyoi, xususan, she'riyati va dramaturgiyasi tarixini, qolaversa, tanqid-adabiyotshunosligini Hamid Olimjon ijodiy faoliyatisiz to'liq tasavvur etib bo'lmaydi. U garchand, qisqa umr ko'rgan bo'lsada o'zining betakror iste'dodi va yorqin shaxsiyati bilan adabiyotimiz va madaniyatimiz tarixida unutilmas iz qoldirib ketdi. U yirik ijodkorlar kabi ko'p qirrali iste'dod sohibi edi. Nafaqat hassos shoir, dramaturg, balki, ayni vaqtda, taniqli jamoat arbobi, mohir tarjimon, uetik adabiyotshunos, folklorshunos sifatida ham ibratli faoliyat ko'rsatdi.

Adabiyotimizning ulkan namoyandalari iste'dodini hech kamsitmagan holda, bir muhim haqiqatni e'tirof etish o'rinli bo'lardi. Ya'ni, Hamid Olimjonning shoirlik talanti ham, nodir shaxsiyati, qolaversa, rahbarlik salohiyati ham juda erta yetilganligi va ijodkorlik mas'uliyatini ham ko'pgina tengqurlariga nisbatan juda chuqur his etish bilan e'tiborini jalb etadi. Binobarin, shoirning "Ko'klam" nomli ilk she'riy

to'plami 1929-yili nashr etilib, adabiy jamoatchilikning e'tiborini qozongan paytda, Hamid Olimjon hali 20 yoshga ham kirmagan bir o'spirin bo'lgan. Yoxud O'zbekiston Respublikasi Yozuvchilar uyushmasiga raislik qilishdek mas'ul vazifani bajarishga kirishganda, u hali o'ttiz yoshga to'lmagan navqiron yigit edi. Beixtiyor yodimizga shoir zamondoshlarining yakdil e'tirofi keladi: "Hamid Olimjon ko'p mahoratli she'rxon bo'lishi bilan birga birinchi darajali notiq ham edi. Hamid Olimjon nutqning jozibasi va malohati nimada, deb o'zimga savol berar edim. Keyin anglashimcha, bu "s'ir" Hamidning yoqimli, qalblarga singuvchi ovozi bilan birga uning katta original aqlida, chinakam olimday izchil mantiqiy tafakkurida, yuksak shoirday so'zni g'oyat ixcham, qovushimli va bo'rttirib izhor qila bilishida ekan.

Mana shuning uchun bo'lsa kerak, Hamid Olimjon deyilganda, mening ko'zim oldida, keng xalq ommasi oldida baland minbardan turib o'z qalbining sadosi va aqlining yorug'i bilan so'zlayotgan yoki she'r o'qiyotgan ajib, nafis va jozibador shoirning qiyofasi turadi", - deb xotirlaydi M. Shayxzoda.

Darhaqiqat, Hamid Olimjon, eng avvalo, ana shunday yorqin talanti bilan xalqimiz mehrini qozondi va o'zining ko'plab yetuk asarlari bilan adabiyotim izning oltin xazinasini boyitishga munosib hissa qo'shdi. Shoir ijodi, xususan, she'riyati mavzu yo'nalishi va g'oyaviy-badiiy mazmuni bilan boshqa ko'plab adibl ar imizning asarlari bilan hamohanglik kasb etsa-da, uning she'rlari o'zining tabiiy soddaligi, ravonligi va chuqur xalqona ruhi bilan ajralib turadi. Boshqacha aytganda, Hamid Olimjon she'rlari xalq dostonlari, qo'shiq va termalari singari g'oyat sodda, ravon unlarda o'quvchining nafasini qaytaradigan, tushunishi og'ir bo'lgan biror jumla yo noo'rin qo'llangan so'z-ibora uchramaydi. Shundan bo'lsa kerak, uning she'rlari bir o'qishdayoq kitobxon ong va qalbiga

ko'chadi, xotirasi da bir umr naqshlanib qoladi. Fikrimizning dalili sifatida bir-ikki misol keltiraylik:

*Derazamning oldida bir tup  
O'rik oppoq bo'lib gulladi.  
Novdalarni bezab g'unchalar  
Tongda aytdi hayot otini.  
Va shabboda qurg'ur ilk sahar  
Olib ketdi gulning totini...  
Yoki:  
Tog'lardagi qip-qizil lola,  
Bo'lib go'yo yoqut piyola.  
Buloqlardan uzatadi suv,  
El ko'zidan qochadi uyqu...*

Bular badiiy ijodning eng yuksak mezonini bo'lgan go'zal soddalikning yorqin namunalari bo'la oladiki, bunday misollarni shoirning deyarli barcha she'rlaridan, doston va balladalaridan hech qiynalmay keltirish mumkin. Albatta, bunday badiiy mukammallika erishish o'z-o'zidan yuzaga kelmaydi. Yosh shoirning tabiat in'om etgan yorqin iste'dodiga go'yo bir qanot bag'ishlab, bamisoli "yer bag'ridagi kuch va haroratni uyg'otgan saxiy quyosh nurlari"dek (Belinskiy) uning butun salohiyati bilan barvaqt namoyon bo'lishiga imkon bergan qator ma'naviy omillarni unutmaslik lozim. Hamid Olimjon adabiyot olamiga kirib kelgan ilk qadamlaridanoq o'zbek mumtoz adabiyotidan hamda jahon adabiyotining buyuk namoyandalari ijodidan ibratli saboq oldi. Yosh shoirning o'zi samimiy e'tirof etganidek, "o'qimagani, bilmagani kam qoldi".

Hamid Olimjon iste'dodiga ruhiy madad va tuganmas ilhom bag'ishlagan yana bir qudratli manba – bu xalq og'zaki badiiy ijodi bo'ldi. Yoshligidanoq jahon adabiyoti va mumtoz she'riyatning betakror go'zalliklarini chuqur his eta olgan H.Olimjon bu adabiyotdagi falsafiy teranlik, umuminsoniy

g'oya va mazmun kabi o'lmas an'analarni ijodiy davom ettirdi. Ta'kidlash kerakki, Hamid Olimjon chinakam novator san'atkor va mutafakkir sifatida ulug' ustozlarning boy adabiy merosi hamda xalq dostonlari va ertaklarini chuqur mehr bilan o'rganib, ularning badiiy mahorat sirlarini ijodiy o'zlashtiribgina qolmasdan, balki bu bebaho merosni ko'z qorachig'idek asrash va uni to'plab, nashr ettirish borasida ham beqiyos fidoiylilik, jonbozlik ko'rsatdi. Bu jihatdan ayniqsa, Hamid Olimjonning buyuk Alisher Navoiy adabiy merosini targ'ib etish borasidagi faoliyati tahsinga loyiqdir.

O'zbek adabiyotshunoslik sohasida navoiyshunoslik va folklorshunosligimiz endilikda, xususan, Istiqlol sharofati bilan yuksak bir bosqichga ko'tarildi. Lekin navoiyshunosligimizning tamal toshlarini qo'yib, uning istiqbolli tamoyillarini ko'rsatib berganlardan ham Hamid Olimjon ekanligini unutmashlik lozim. 30-yillarda sho'ro mafkurasi hukmron bo'lib, tariximizdan va milliy qadriyatlarimizdan g'ururlanish u yoqda tursin, ular haqida jindek iliq so'z aytish xatarli bo'lgan qatag'on yillarida Alisher Navoiyning tengsiz san'atkor ekanligi, uning ijodi jahon adabiyoti va madaniyati taraqqiyotida yuksak bir cho'qqi ekanligini asoslab berish uchun nechog'lik zakovat va tafakkur zarur bo'lishi o'z-o'zidan ayon. Yoxud "Alpomish"ning buyuk xalq dostoni ekanligini va uning g'oyaviy-badiiy fazilatlarini baralla ulug'lash uchun qanchalik chuqur tarixiy, mantiqiy dalil va ijodiy jasorat talab qilinar edi! Hamid Olimjon ana shunday yetuk, zukko donishmand va ijodiy shijoat sohibi ekanligini ko'rsatdi.

Hamid Olimjonning ikkinchi jahon urushi yillaridagi faoliyati ham g'oyat jo'shqinligi va ko'lamining kengligi bilan kishini hayratga soladi. Bu davrda Hamid Olimjon

Ijodi yanada chuqurroq xalqchilik va otashin jangovarlik kasb etadi. Chinakam vatanparvar va xalqlar do'stligining otashin kuychisi bo'lgan shoir urushning dastlabki kunlaridanoq xalqni fashizmga qarshi oyoqqa turg'azuvchi va uning qalbida yovuz dushmanga nisbatan nafrat olovini alangalatuvchi o'lmas asarlarini yaratdi. Urushning ikkinchi kuni e'lon qilingan va adabiyotimizda harbiy-vatanparvarlik lirikasini boshlab bergan "G'alaba qo'shig'i" she'ri qanchalik g'alabaga ishonch ruhi bilan sug'orilgan bo'lsa, "Qo'lingga qurol ol", "Yigitlarni frontga jo'natish" kabi she'rlarida va "Jangchi Tursun", "Roksananing ko'z yoshlari" balladalarida ham tinchliksevar xalq xohish-irodasi va ruhiyati shu qadar teran ifodalangan.

"XX asr o'zbek she'riyati qalam ahlining ko'pligi, ammo iste'dod darajasining turli-tumanligi bilan o'ziga xoslik kasb etadi. Bu shoirlar orasida abadiyatga daxldor, o'zlarining mustahkam ma'naviy qo'rg'onlari va adabiy mamlakatlarini qurib bitirganlari bor".<sup>10</sup> Bor-yo'g'i 35 yil -yigit yoshini ham yashab ulgurmagan, shundan 15 yilini ijodga bag'ishlagan Hamid Olimjonning o'z iste'dodi va yetuk asarlari bilan Vatani va xalqiga mehri-sadoqati bilan tiklagan ma'naviy qo'rg'oni, adabiy mamlakatining poydevori o'zbek zaminida mustahkam, bardavom turajak. Mustaqilligimiz sharofati bilan bir guruh tanikli san'atkorlar qatorida Hamid Olimjonga "Buyuk xizmatlari uchun" ordeni berilishi yurtdoshlarimiz qalbida mamnuniyat va faxr hislarini uyg'otdi. Hamid Olimjonning durdona asarlari, adabiyotimiz va ma'naviyatimiz ravnaqiga qo'shgan ulkan hissasi uning ijodi ham, nurli siymosi ham unutilmas ekanligidan dalolat berib turadi.

<sup>10</sup> Bahodir Karimov. "XX asr o'zbek she'riyati antologiyasi" kitobiga so'zboshi. – T., 2007, 3-b.

## ABDULLA QAHHORNING SO‘Z SAN’ATKORLIGI

Buyuk mutafakkirlar ta’kidlaganidek, badiiy adabiyotning asosiy quroli tildir. Badiiy adabiyotni “so‘z san’ati” deb ta’riflashlarida ham katta asos va mantiq bor. Yoxud ko‘plab mashhur shoir-yozuvchilar va adabiyotshunoslar yakdillik bilan “Adabiyot tildan boshlanadi” deyishlari ham bejiz emas. Shu boisdan ham mumtoz va hozirgi zamon adabiyotining barcha ulug‘ adiblari badiiy asar tiliga va undagi har bir so‘z va iboraga alohida e’tibor bilan qarashgan. Asrlar davomida rivojlanib davom etib kelayotgan bu an’ana badiiy ijodning muqaddas bir qonuniyatiga aylangan desak yanglishmagan bo‘lamiz. Bu qutlug‘ adabiy – estetik an’analar zamondosh adiblarimiz tomonidan ijodiy davom ettirilayotganligi ham so‘z san’ati rivojining muhim bir omili ekanligidan dalolat beradi. Bu jihatdan mashhur adibimiz Abdulla Qahhor ijodi va uning badiiy til haqidagi qarashlari alohida e’tiborga loyiq. Ushbu maqolamizda ana shu mavzuining ba’zi jihatlari imkon darajasida o‘rganiladi.

Abdulla Qahhorning o‘zbek tilimizning sofliги va rivoji uchun izchil kurashi va uning betakror so‘z san’atkorligi hech kimda shubha uyg‘otmaydi. Binobarin, taniqli qahhorshunos va uslubshunos olimlarimiz to‘g‘ri ta’kidlaganidek, adibning so‘z tanlash va qo‘llash san’ati o‘ziga xos bir mahorat maktabidir. Bunday mavzu va muammolarni keng o‘rganish, ayniqsa, bugungi kunda yanada dolzarb va muhim ahamiyatga egadir.

Tarixdan ma’lumki, ulug‘ adib va mutafakkirlar o‘z faoliyati davomida hamisha o‘z milliy tillarining sofliги va ravnaqi uchun faol kurashib kelganlar va bu bilan ham o‘zlarining vatanparvarlik burchlarini ado etganlar. Qalbida Istiqlol yolqini so‘nmagan Abdulla Qahhor ham ona tilimizning matonatli jonkuyarlaridan edi. Ibratli bir holat: Abdulla Qahhorning

adabiyot va tanqidchilik yoxud yoshlar ma'naviyati va madaniyatiga bag'ishlangan bironta nutq yo maqolasi yo'qki, unda adabiy tilimizning beqiyos boyligi va imkoniyatlaridan faxrlanib yozmagan yoxud uning jiddiy muammolaridan tashvishlanib, keskin fikrlar bildirmagan bo'lsin.

Adib ko'plab maqola va nutqlarida tilimiz va uning beqiyos rangdor-jozibadorligi va cheksiz imkoniyatlari haqida alohida to'xtalib o'tgandi. "Tilimiz shu qadar boy va qudratliki, unda Firdavsiy va Shekspir ham, Pushkin va Tolstoylar ham bemaolol "gapira olishi" mumkinligini faxr bilan ta'kidlagan edi. Zotan, Qahhor kabi ustoz adiblarimiz o'zlarining jahon adabiyotidan qilgan yetuk badiiy tarjimalari bilan bu haqiqatni to'la isbot qilib bera olgan edi. Shu bilan birga, ba'zi bo'sh, mazmunan sayoz asarlar uchun tilimiz aybdor emasligi, balki o'sha yozuvchining o'zi no'noq va talantsiz ekanligini ham kuyinib tanqid qilgandi. Eng muhimi, adabiyotimiz va tilimizning ulkan jonkuyari bo'lgan Abdulla Qahhorning bunday jiddiy tanqidiy fikrlari bugun ham o'zining dolzarbligini yo'qotgani yo'q va yo'qotmaydi ham. Chunki badiiy adabiyot va uning asosiy quroli bo'lgan til ham hamisha insoniyatga xizmat qiladi va u bilan doimo hamnafas bo'lib yashaydi. Demak, Abdulla Qahhor singari ulug' adiblarimizning badiiy til haqidagi muhim aqida va qarashlari uning yuksak so'z san'atkorligi bilan birga ma'naviyatimiz rivoji yo'lida xizmat qilaveradi.

Abdulla Qahhor adabiy-tanqidiy asarlarida katta o'rin tutuvchi muammolardan biri, hech shubhasiz, badiiy asar tili masalasidir. Chunki til uning uchun hamisha eng muhim sohagina emas, balki adabiyot rivojining asosiy sharti, omili bo'lgan. Abdulla Qahhor tasavvuriga ko'ra, til yozuvchining asosiy quroli, adabiy formaning muhim bir elementi bo'lishi bilan birga, asar mazmunining munosib bir shaklda namoyon bo'lishi hamdir. Bu haqda yozuvchi shunday deydi: «Adabiyot – bu til! Men shu vaqtga qadar biror yozuvchi tilsiz, imo-ishoralar

bilan badiiy asar yaratganini eshitganim yo`q... Agar hozir mendan «Siz uchun til badiiy ijodning boshqa muammolari orasida qanday o`rin tutadi?» – deb so`rasha, men javob berishga qiynalaman. «Asosiy o`rinni», – deyishdan boshqa so`zim yo`q».

Adibimiz bu fikrini tilga bo`lgan g`oyat mas`uliyatli munosabatini va badiiy til haqidagi qarashlari tub mohiyatini belgilovchi negiz deb qarash mumkin. Binobarin, mana shu nuqtai nazar yozuvchining til xususidagi butun adabiy-tanqidiy faoliyatining samarali yo`nalishlarini belgilovchi asosiy tayanch nuqtalardan biri bo`lib xizmat qiladi. Shuni ham alohida ta`kidlash lozimki, A. Qahhorning haqiqiy badiiy asar tili uchun kurashi *hech* qachon biryoqlama, ya`ni faqat mukammal shakl uchungina bo`lmay, balki u ayni paytda chuqur mazmun va yuksak g`oyaviylik uchun ham kurashish edi. Aslida, bundan boshqacha bo`lishi mumkin ham emas. Chunki til shunchaki tashqi bir bezak yoki libos bo`lib emas, balki asar mazmunining, yozuvchi g`oyaviy-estetik maqsadining badiiy ifodasi bo`lib yashaydi.

Abdulla Qahhor san`at asarining asosiy sharti bo`lgan til bilan mazmunning bunday yaxlitligini ta`kidlab, jumladan shunday yozgan edi: «Adabiy asarning joni – uning mazmuni, lekin bu jonning jon bo`lishi uchun jasad ham kerak. Jonni jasadsiz tasavvur qilish mumkin emas». Boshqa bir o`rinda bu fikrni yanada aniqlashtiradi: «Kitobning o`qishli bo`lishi avtorning kitobxonga aytadigan to`la mag`izli va juda zarur fikri bo`lganini ko`rsatadi».

Adibning bu so`zlaridan «yaxshi tili bo`lmagan asarda chuqur mazmun ham yo`q», deb xulosa chiqarish to`g`ri bo`lar edi. Negaki til shunday bir ko`zguki, unda badiiy adabiyotning deyarli barcha fazilat va qudrati aks etishi mumkin. Shuning uchun ham badiiylikning haqiqiy qadrllovchisi bo`lgan Abdulla

Qahhor har bir adabiy asarning chinakam san'at namunasi ekanligini, eng avvalo, o'sha asarning shavq bilan o'qilishida, tilning jozibadorligida ko'radi. O'zining bu mezonini rad etib bo'lmaz faktlar bilan shunday asoslaydi: «Rus va jahon adabiyoti klassiklaridan qaysi biri o'qib bo'lmaydigan kitob yozgan? Bularning dunyoni zabt qilganlariga birdan-bir sabab kitoblarning o'qishli bo'lganligi emasmi?» (VI t., 276-b.)

Darhaqiqat, mumtoz adabiyot vakillarining mukammal mazmun yaratish maqsadida asar tilida har bir jumla, har bir so'z va hatto ayrim tovushlarga ham jiddiy e'tbor berishi ular uchun badiiy ijodning «oltin qonun»laridan biriga aylangan edi. Klassiklar an'analarining mohir davomchisi bo'lgan Abdulla Qahhor ko'z oldida hamisha ana shu muqaddas haqiqat — oliy mezon turadi.

Xo'sh, o'qishli kitob deganda, Abdulla Qahhor nimalarni ko'zda tutdi? Uningcha, haqiqiy badiiy asar tili qanday bo'lmo'g'i kerak? Bu savollarga adib o'zining 1939-yili yozilgan bir maqolasida lo'nda va aniq javob bergan edi. Maqolada Abdulla Qahhor sevimli ustoz A.P.Chexovning yuksak san'atkorligi haqida mulohaza yuritib, jumladan, shunday deydi: «Ikki satr she'rda berilgan fikrni ming variantini aytsa bo'ladi, lekin bu ming variantining hech satri shu ikki satrday ham sodda, ham qisqa, ham kuchli, ham ta'sirli bo'lmaydi. Ikki yo'l sher singari «Yovuz niyatli kishi»ni ham ming xil qilib yozish mumkin, lekin qahramonni bundan ravshan, bundan mukammal tarzda gavdalantirish, bundan o'tadigan biron uslub topib, kitobxonga manzur bo'ilshi mumkin emas» (VI, 238-239). Mana Abdulla Qahhor badiiy asar tiliga nisbatan qo'yadigan asosiy talablarning o'ziga xos bir muxtasar bayoni.

A.Qahhorning fikricha, asar tilining soddaligi va tiniqligi shu bilan belgilanadiki, u yozuvchi fikrini kitobxonga to'la anglatsin va asarda tasvirlanayotgan inson qiyofasini,

predmet yoki muayyan holatni o'quvchi ko'z oldida yaqqol gavdalandira olsun. Bunga misol tariqasida yozuvchining «Bemor» hikoyasidan olingan mana bu parchani o'qiqlik: «Sotiboldi ertadan kechgacha oftobshuvoqda gavronlar ichiga ko'milib, savat to'qiydi. To'rt yashar qizchasi qo'liga ro'molcha olib, opasining yuzini karaxt, nimjon, xira pashshalardan qo'riydi: ba'zan qo'lida ro'molcha, mukka tushib uxlab qoladi. Hamma yoq jim. Faqat pashsha g'ing'illaydi, bemor inqillaydi; harzamon yaqin-yiroqdan gadoy tovushi eshitiladi: <Hey do'st, shaydullo, banomi Ollo, sadaqa raddibalo baqavli rasuli xudo...» (I, 57).

Bu parchada o'tmishdagi qashshoq bir oilaning zabun va nursiz hayoti aniq va jonli tasvir etilgan, o'quvchi go'yo Sotiboldining g'aribona kulbasidagi ayanchli ahvolni yaqqol ko'rib turgandek, majolsiz bemorning og'ir darddan chekayotgan mungli nolasini butun qalbi bilan eshitayotgandek bo'ladi. Parchada aks etayotgan sovuq sukunat, xira pashshalarning g'ing'illashi, gadoning tilanish ohanglari tasvirni yana ham kuchaytiradi va kitobxon ko'z oldida dahshatli o'tmishining haqqoniy bir manzarasi paydo bo'ladi. Bularga, albatta, yozuvchining hayotni haqqoniy tasvirlash mahorati va so'z san'atkorligi tufayli erishiladi.

Hikoyaning tiliga e'tibor bersak, unda o'quvchi diqqatini chalg'ituvchi yoki susaytiruvchi jumlar yoxud noo'rin qo'llanilgan birorta ibora, hatto so'zni uchratmaymiz. Asar tili boshdan-oyoq oddiy so'zlardan iborat, lekin shu oddiylilik o'quvchiga kuchli ta'sir etadi. «Kitobxonga bir fikrni anglatish yoki bir narsani tasavvur qildirish uchun kishining boshini qotirmaydigan, ochiq, ravon va sodda til kerak, – degan edi A. Qahhor. – Surat oldirayotgan kishi suratga chiroyli va kelishib tushmoqqa behuda zo'r berib, o'zining tabiiy holatini buzganiday, yozuvchi "chiroyli" va "qoyil" qilib yozishga behuda zo'r bersa,

*adabiy asar uchun zarur bo'lgan tildagi soddalik, tabiiylik buziladi*». Yuqorida biz ko'rib o'tgan misol bu mulohazalarning to'g'riligiga yorqin dalildir. Abdulla Qahhor tilda qisqalik va ixchamlikka erishishni adabiy asarning latofat belgilaridan biri deb biladi. Uning fikricha, qisqalik — bu oz so'zlar vositasida ko'p va chuqur ma'nolarni anglatish demakdir. Boshqacharoq qilib aytganda, bu katta mazmunni ixcham shaklda ifoda etish san'atidir. Abdulla Qahhor asarlari uchun ham xarakterli bo'lgan bu fazilat yozuvchining badiiy asarlarni baholashida ham muhim mezon bo'lib xizmat qiladi. Chunonchi, u yosh bir yozuvchining ikki hikoyasini tahlil etar ekan, ulardan birida «kattakon ijtimoiy illatni tangaday o'ringa joylaganligini muallifning jiddiy muvaffaqiyati sifatida qadrlagan bo'lsa, boshqa birida esa «tariqcha ma'no bir paqir suvda suzib yurganligi», ya'ni asardagi mazmun sayozligi va ortiqcha so'z-bayon ko'payib ketganligi uchun, unga salbiy baho beradi. Yoki Ma'ruf Hakimning dastlabki hikoyalarini tahlil qilar ekan, ularning tilidagi nuqsonlarni, ayniqsa, ko'p so'zlilikni keskin qoralab, jumladan, shunday deydi: «Buyuk Pushkin hozir bo'lsa, «Hayot qo'shig'i» degan hikoyalar to'plamini chiqargan Ma'ruf Hakimning qulog'idan cho'zib, yuziga bir tarsaki urar va «Pushti gullagan o'riklar o'z gullarini to'kib, dovuchcha tugar edi», «Otning jilovini siltab, tezlashishini qistadi» dema, «O'rik gulini to'kkan edi», «Otni jadallatdi» degin der edi».

Ko'rinadiki, tilda qisqalikka erishish shunchaki bir fazilatgina emas, balki chinakam san'at asari yaratishng, yuksak badiiylilikning muhim bir sharti va omilidir. Ko'p so'zlikni Abdulla Qahhor «adabiy laqmalik», «ezmalik» deb, doimo qattiq tanqid qilardi. Chunki u yozuvchining aytmoqchi bo'lgan fikri, maqsadi noaniq ekanligini ko'rsatadi, haqiqatni xiralashtiradi. «Ko'p so'z yolg'onning yuzini pardozlash uchun kerak. Haqiqat shunday jononki, pardoz uning yuzini buzadi», — degan edi u. Bu

ulkan yozuvchining ijod jarayonida kashf etilgan va butun ijodi bilan tasdiqlangan muhim haqiqatlarning biridir. Shu o'rinda A. Qahhorni «Yozuvchining birpas ham kitobxonni unutishga haqqi yo'q» degan fikrini biroz o'zgartirib, «Yozuvchi birorta ham so'zni noo'rin qo'llamasligi kerak» deb aytish ham mumkin. Binobarin, A. Qahhorning quyidagi e'tirozi ham san'atning ana shu qat'iy bir talabini ifoda etishi bilan diqqatni jalb etadi. U «Poeziya yuksak san'atdir» (1940) degan maqolasida shunday yozadi: «Chustiyning hamma she'rlarida «nur» so'zi uchraydi. Chustiy qayerda ifoda topolmasa, bunga ko'pincha harakat ham qilmaydi, ishni «nur» bilan osongina bitiradi-yu qo'yadi».

Haqiqatan ham, Chustiyning 1939-yili chiqarilgan to'plamini ko'zdan kechirsak, unda «nur» so'zi shu qadar ko'p va noo'rin qo'llanilganligining va natijada bu so'zning kitobxonni bezdiradigan bir kalimaga aylanib qolganligining guvohi bo'lamiz (Dalil tariqasida to'plamdagi «Lochin bilaklar», «O'zbekistonga yutuq», «She'riy doklad», «Armug'on», «Yulduzim», «Zarli maydonlarimiz» kabi she'rlarini ko'rsatib o'tish mumkin).

Bunday formalizmning boshqa bir ko'rinishini Abdulla Qahhor Said Nazarning «Yashil boylik» nomli romanining tili misolida ham ko'rsatib o'tadi. Chunonchi, quyidagi parchalar mazkur roman tilining badiiylik mezonlariga javob bera olmasligidan guvohlik beradi: «Vigovor kitob ustida berildi», «Salqin yer teshasi zarbidan baldog'i chirt uchib ketgan sariq, qizg'ish yaproqlar havoda qanot qoqa-qoqa yer bag'irlab oyoq cho'zib yotishibti», «It Nusratga qarab iljaydi» va h.k.

Oddiy bir kitobxonda ham norozilik uyg'otuvchi bunday jumlar, shubhasiz, tilga e'tiborsizlikning va badiiy ijod mas'uliyatini chuqur his etmaslikning noxush bir oqibatidir.

To'g'ri, Abdulla Qahhor Chustiyning «nur» so'zini deyarli har bir she'rida o'rinli-o'rinsiz ishlataverishiga haqli e'tiroz

hildirgani holda, uning o'zi «beto'xtov» degan ayni bir so'zni birgina «O'g'ri» hikoyasida bir necha marta qo'llaydi: «*Ellikboshi beto'xtov aminga xabar qilmoqchi bo'lib chiqib ketdi*», «*Amin ham «Men beto'xtov pristavga xabar beraman» deydi*», «*Tilmoch tortiqni oldi va beto'xtov pristavga yaxshilab tushuntirishga va'da qildi...*», «*Pristav Qobil boboning baxtiga, beto'xtov hokimga xabar beraman demasdan, aminga bor deb qo'ya qoldi...*»

Qiziq, xalq tilining bu qadar mohir zargari bo'lgan Abdulla Qahhor nechuk bir so'zni qayta-qayta ishlatdi ekan? Holbuki, tilimizda bu so'zning sinonimi bo'ladigan «to'xtovsiz», «darrov», «darhol» va «tezda» kabi qator so'zlar ham bor ediku. Gap shundaki, Abdulla Qahhor bu so'zlarning ko'z ilg'amas farqlarigacha, eng nozik ma'no bo'yoqlarigacha e'tibor beradi va harakat-tezlik ma'nosi kuchliroq ekanini (hamda nisbatan jarangli va salmoqli bo'lganligi) uchun, «beto'xtov» so'zini tanlaydi. Eng muhimi, bu so'z «oq it, qora it – baribir it» bo'lmish amin va ellikboshilarning qallobligi, nosamimiyligi, qolaversa, ularning balandparvoz ohangda so'zlashga moyilligini ham chuqurroq ifodalay olgan.

Mazkur so'z yozuvchining boshqa asarlarida, jumladan, «O'tmishdan ertaklar» qissasida ham uchraydi: «*Amin gapni ko'paytirmabdi, odamlarning gapiga ham quloq solmabdi, dadamga «Qishloqdan beto'xtov ko'chib keting!» – debdi*». Bu o'rinda ham «beto'xtov» so'zi amin qiyofasini aniq chizib berishda alohida salmoqqa ega. Nihoyat, bu so'z zahirida yozuvchining amin va ellikboshilarning o'ta munofiq va mug'ombirligini masxaralash ohangi ham sezilib turadi. Shunday ekan, «beto'xtov» so'zining bir necha marta qo'llanishi ham asar tiling qashshoqligi yoxud adibning til bobidagi hafsalasizligidan emas, balki uning so'z tanlash mahoratidan va tilning haqiqiy zarshunosi ekanligidan bir nishonadir.

Gap ma'lum bir so'zning qayta-qayta ishlatilishi haqida borar ekan, bu o'rinda Abdulla Qahhor ijodini ancha keng

o'rgangan yirik adabiyotshunos olim H. Abdusamatovning bir fikriga to'xtalib o'tishga to'g'ri keladi. Tadqiqotchi o'zining «Abdulla Qahhor» nomli kitobida yozuvchining «Sinchalak» qissasi haqida fikr yuritib, jumladan, *«unda avtor o'z ijodida ishlatilgan bironta iborani, maqolni qayta ishga solmaydi...»*<sup>11</sup>, deydi. Haqiqatan ham, «Sinchalak» qissasining tili naqadar jozibali, benihoya boy va rang-barang ekanligi hechkimda shubha uyg'otmaydi. Ehtimolki, asarning butunittifoq va hatto, chet ellik kitobxonlari tomonidan ham qizg'in kutib olinganligining muhim sabablaridan biri ham shu bo'lsa. Biroq, H. Abdusamatovning yuqoridagi xulosasi, ma'lum darajada e'tirozga loyiq. Avvalambor, san'at asarini, ko'pmillatli adabiyot tarixida ham katta bir voqea deb tan olingan «Sinchalak»dek asarning yutuqlarini baholashda unda yozuvchi ijodida ilgari qo'llanilgan biror ibora yoki maqolning qayta ishga solingan-solinmaganligini asosiy me'yor qilib olish to'g'ri bo'lmasa kerak. Ikkinchidan esa, qissa tilida ayrim o'rinlar borki, ular bevosita tanqidchining fikrini rad etadi. Chunonchi, Abdulla Qahhor asar personajlaridan bo'lgan eshonning tashqi ko'rinishini tasvirlar ekan, shunday yozadi: *«...bir tomonga silliq qilib taralgan sochi oyog'idagi amirkon tuflisidan ham qoraroq va ko'proq yaltiroq edi»*. «Bu tasvir, haqiqatan ham juda aniq va mohirona chizilgan, lekin u o'quvchiga avvaldan bir oz tanish. Men yozuvchining «Sarob» romanidagi Murodxo'ja domlaning portretini yaratishda ishlatilgan quyidagi so'zlarni ko'zda tutayapman: *Kichkina do'ppisi qoplay olmagan tepakal boshi hozirgina pardozlangan sariq etikning tumshug'iday yaltiroq edi...*

Boshqa bir o'rinda esa mazkur asar qahramonlaridan biri Ehson do'sti Saidiyga qarata shunday deydi: *«yoshlik toshqin suv, sug'oradigan ekinigizni sug'orib qolmasangiz o'tib ketadi»*... «Sinchalak» qissasida ham Qalandarovning raykom sekretari Nosirov tomonidan toshqin suvga qiyos qilinganligini

<sup>11</sup> H. Abdusamatov. Abdulla Qahhor. – T. Uz davlat 1960, 203 bet.

xotirlaylik. Holbuki, Abdulla Qahhordek katta tajriba va mahorat egasi bo'lgan adibimizdan kitobxonlar original, yangi qiyos va tasvirlar kutishga haqli edi, deb o'ylaymiz. Shuningdek, asar tilida Abdulla Qahhor uslubiga unchalik xos bo'lmagan bir-ikki og'ir jumlar ham uchraydi, bu nuqson taniqli adabiyotshunos O.Sharafiddinovning «Kelajakka chorlovchi qissa» nomli taqrizida o'z vaqtida qayd etilgan edi. Lekin ular juda juz'iy nuqsonlar bo'lganligi uchun, asarning g'oyaviy-badiiy qimmatiga aytarli jiddiy ta'sir ko'rsatmaydi. Bunday fakt yana shu bilan izohlanishi mumkin, har bir ijodkorning sevimli mavzusi, muhim fikrlari va uning til boyligidan mustahkam o'rin olgan xarakterli ibora va so'zlari ham bo'ladi, yozuvchi aksariyat hollarda u yoki bu tarzda shularga murojaat qiladi.

Modomiki, Qahhorning «Sinchalak» qissasi tili haqida to'xtalgan ekanmiz, iste'dodli munaqqid Anvar Jabborning mazkur qissaga bag'ishlangan «O'z davrining mashhur asari» nomli maqolasi bizni g'oyat taajjublantirganligini ham aytmasdan o'tolmaymiz. Maqola muallifining badiiy asar tahliliga yangicha yondashishga intilishi va ayrim mulohazalari o'quvchida ma'lum darajada qiziqish uyg'otishini inkor etmagan holda, uning «Sinchalak» qissasidagi deyarli barcha xotin-qizlarning tili individuallashtirmagan va ular hayotiy emas, degan xulosalari butunlay asossiz ekanligini qayd etishga majburiy. Biz bu o'rinda dalil tariqasida oddiy kitobxonlarga ham yaxshi tanish bo'lgan ko'plab xarakterli misollarni takrorlab o'tirmaymiz – buning uchun qissadan yuzlab sahifalarni ko'chirishga to'g'ri kelar edi. Yaxshisi, asarni xolisona nekinlik bilan mutolaa qilgan har bir o'quvchi undagi nafaqat bosh qahramonalar, balki o'nlab personajlar tili va nutqi ham ularning o'ziga xos va munosib tarzda yaratilganligiga ishonch hosil qilish mumkinligini ta'kidlash bilan cheklanamiz. (Quyiroqda shu asardan bir misol ham keltiramiz).

Ikkinchidan esa, dastlabki badiiy asarlari bilan yozuvchilarimiz orasida «boy va chiroyli til egasi» sifatida tan olingan va nafaqat tengdosh adib va tanqidchilarning, balki Abdulla Qodiriy va Cho'lpon ustozlarining ham e'tirofiga sazovor bo'lgan A. Qahhordek mohir so'z san'atkorining ijodiy kamolot pallasida yozilgan «Sinchalak» qissasining millionlab kitobxonlarga manzur bo'lgan beqiyos jozibali tili A. Jabborga ma'qul bo'lmagan ekan, nachora? Balki munaoqqid badiiy asar tili haqidagi qarashlarini va adib ijodiga munosabatini biroz o'zgartirish zarurligini o'ylab ko'rsa, yomon bo'lmasdi. A. Qahhorning til haqidagi qarashlarining ahamiyatli tomonlaridan biri shundaki, ular haqiqiy asar tili yaratishning «sirlari»ni ham ochib beradi. Yozuvchi maqolalaridan birida ayrim asarlarning o'qishli bo'lmasligining sababini ko'rsatib, shunday xulosaga keladi: «Bizningcha, rangsiz, nursiz, haroratsiz yozilgan asarlar hayotni chuqur o'rganmasdan, uning achchiq-chuchugini totmasdan, o'sha hayot odamlarining qalbiga qalbni payvand qilmasdan, dardsiz, ehtirossiz yozilgan asarlardir»

Bu fikrga qo'shilmaslik mumkin emas. Lekin yana shuni ham aytish lozimki, hayotni chuqur bilish va ilhom bilan yozish yozuvchining<sup>1</sup> asar tili ustida ishlash zaruratini hech qachon inkor etmaydi. Zeroki, «*ilhom badiiy asarni xato va nuqsonlarsiz yozishga yordam bermaydi*». Shu sababli Abdulla Qahhor asar qo'lyozmasi ustida qunt bilan ishlashni chinakam badiiy asar tili yaratishning eng muhim omillaridan biri deb biladi. Bu jihatdan adibning bir adabiyotshunos tomonidan berilgan «*Siz qanday ishlaysiz?*» **degan savolga javoban aytgan so'zlari ibratlidir:** «Men yozilgan jumlanı, hatto sahifani ham ustidan tuzatolmayman. Jumla, hatto butun bir sahifadagi bir so'zni o'chirib, o'rniga boshqasini yozish uchun, boshqa qog'ozga o'sha jumla, hatto sahifani ko'chirib yozaman. Bir sahifani o'rta hisob bilan o'n besh-o'n olti marta ko'chiraman, shubhasiz, har safar sahifaga sayqal beraman». A. Qahhorning bu so'zlari 1960-yilda

aytilgan. O'zining dastlabki asarlari bilan oq yozuvchilar orasida «shoy va chiroyli til egasi» (Hamid Olimjon) bolib tanilgan A. Qalibhordek so'z zargarining har bir sahifani bunchalar ko'p va qayta-qayta ko'chi rishga, har gal ularga sayqal berishga qanday zarurat bor ekan? Haqiqiy so'z san'atkorigagina xos bo'lgan bu xususiyatni, ehtimol, juda ko'p sabablar bilan tushuntirish mumkindir. Biroq men bu xarakterli faktni yozuvchining o'z so'zlari bilan izohlashni istardim.

1944-yili Abdulla Qahhor yoshlar seminarida so'zlagan nutqida shunday degan edi: "His, ichki dard kishining qalbini toshirib yuboradi. O'zining dardiga boshqalarni sherik qilish, yuragini bo'shatish kishiga azob berish darajasiga yetadi. Shu vaqtda qo'l qalamga boradi. Kishining ko'ziga hech narsa ko'rinmaydi. Yozish uchun hech narsa halal bermaydi. Fikr to'kila boradi. Yozib ulgurib bo'lmaydi. Kishidagi mana shunday holatni, odatda, ilhom deyishadi..."

Bu so'zlarda yozuvchi ijodiy laboratoriyasining eng hayajonli va mas'uliyatli bir bosqichi — "yulduz onlari" aks etayotganini unutmaganimiz holda, asosiy diqqat- e'tiborimizni "Fikr to'kila boradi. Yozib ulgurib bo'lmaydi", degan jumalarga qarataylik. Modomiki, yozuvchi ilhom bilan qalbi to'la his-hayajon bilan yozar ekan uning qo'lyozmalarida ayrim fikr va jumlalarning tartibsiz bo'lishi, tasvirda ba'zan ortiqcha so'zlar yoki takror o'rinlar bo'lishi tabiiy holdir. Bunday holat ko'plab yirik yozuvchilarning ijod jarayoni uchun xarakterlidir. Masalan, L.N.Tolstoy badiiy ijod jarayonidagi ko'tarinki bu holatni shunday e'tirof etadi: *"Qo'shiqni ikki xil kuylash mumkin: tomoqdan chiqarib va yurakdan... Adabiyotda ham shunday: xayolan to'qib yozish ham, qalb xohishi bilan yozish ham mumkin. Agar miyangdan to'qib yozadigan bo'lsang, so'zlaring qog'ozga itoatkor va silliq bo'lib tushadi. Yurak amri bilan va qalb to'la his-hayajon bilan yozayotganingda esa fikrlar shu qadar ko'p,*

obrazlar behisob, yorqin va kuchli xotiralar shu qadar zich bo'ladiki, ularning qog'ozdagi ifodasi noto'liq, g'aliz bo'lib chiqadi"<sup>12</sup>.

Shunday ekan, yozuvchi ilhom va ehtiros bilan yozilgan asarning tilini ham qayta-qayta ko'zdan kechirishi, uning har bir sahifasiga sayqal berishi qanchalik zaruriy shart ekanligi o'z-o'zidan ravshan bo'lib qoladi. Aslida, badiiy adabiyotning so'z-san'ati ekanligi ham yozuvchini, ayniqsa, mana shu bosqichida yaqqol namoyon bo'ladi.

A.Qahhorning badiiy asar tiliga bu qadar jiddiy e'tibor berishiga yana bir asosiy sabab bor. Bu yozuvchining kitobxon oldidagi yuksak mas'uliyat hissidir. Kitobxon, Abdulla Qahhor fikricha, kattakon bilimdon, yuksak did egasi. A. Qahhorning bu xulosasi ko'pgina taniqli yozuvchilarning fikrlari bilan hamohang. Binobarin, mashhur shoir S. Marshak kitobxonning estetik didi va chuqur hayotiy bilimini ta'kidlab, uni "san'atkor o'quvchi" deb ta'riflagan edi. Bunday kitobxon uchun asar yozish yozuvchidan qanchalar mas'uliyat va iqtidor talab qilishi so'zsiz ayondir. Abdulla Qahhor bu mas'uliyatni juda chuqur his etadi. Boshqa adiblarni ham ana shu burch va mas'uliyatni unutmaslikka va asar yozayotganda o'zini "donishmand bir kishiga imtihon topshirayotgandek" sezishga da'vat etadi. A. Qahhorning yon daftarlaridan biriga *"Sergap-ezma odamni suhbatda izza qilish, sergap-ezma notiqqa "qisqaroq bo'lsin!" deb so'z tashlash kifoya, lekin sergap-ezma yozuvchini, albatta, sudga berish kerak"*, deb qayd qilingan. Bu so'zlarni faqat yozuvchining kuyunib aytgan shaxsiy noroziligi debgina emas, balki yuksak didli o'quvchilar ommasining manfaatini ifodalovchi jiddiy va haqli bir talab deb ham tushunish mumkin.

Abdulla Qahhor badiiy asar tilining musiqiyligi, ohangdorligiga ham alohida e'tibor beradi. Chunki tilning

---

<sup>12</sup> Л.И.Толстой. О литературе. М.Госиздат. Худ.лит., 1955, с. 10.

ohangdorligi haqiqiy san'at asarining muhim jihati bo'lib hisoblanadi. *Bu haqda taniqli rus yozuvchisi A. S. Makarenko shunday deydi: "Muayyan narsa-hodisani tasvirlashda o'shanga mos ton topish va uni asar so'ngigacha yoki hech bo'lmaganda ma'lum joyigana saqlash juda muhim ahamiyatga ega. Ohangdorlik nima? Bu yumor, kinoya, zaharhandalik, tantanavorlik, sovuqlik, g'am-alam, quvonch, pessimizm va optimizm kabilarning ma'lum miqdoridir.*

Asar mazmuniga mos ohang topish va uni asarning har bir satriga va butun ruhiga singdirib yuborish yozuvchidan yuksak san'atkorlik talab qiladi. Jahon adabiyotining mashhur hikoyanavisi A. P. Chexovning quyidagi so'zlari bunga misol bo'la oladi: "Kecha men kun bo'yi Saxalin iqlimini o'rganish bilan ovora bo'ldim. Bunday narsalar haqida yozish qiyin, lekin har qalay, oxiri shaytonni qo'lga ilintirdim. Men asarda tabiatning shunday bir tasvirini berdimki, kitobxon uni o'qiyotganda, go'yo sovuq bo'layotgandek tuyuladi.

Badiiy asar tilidagi bunday ohangdorlik Abdulla Qahhor uchun ham mazmun va shakl mutanosibligiga erishishning muhim bir vositasi, badiiylikning jiddiy bir sharti edi. Dalil tariqasida yozuvchining "Dahshat" nomli hikoyasidan olingan ushbu parchani ko'zdan kechiraylik: "Yaqin ikki haftadan beri ko'z ochirmayotgan kuzak shamoli yaydoq daraxtlar shoxida chiyillaydi, guvillaydi, tomlarda vishillaydi, yopiq eshik va darchalarga bosh urib, uf tortadi... Shamol goh och bo'riday, uvillar goh o'lim changa liga tushgan mushukday pixillar, vag'illar, hech narsa-hech narsa ko'rinmas edi..."

Hikoyada sodir bo'ladigan dahshatli hodisalarning ilk darakchisi bo'lgan bu tasvir butun asarga sovuq bir ohang bag'ishlaydiki, bu ohang hikoyadagi keskin dramatizm va fojiani yanada kuchaytiradi va qahramonning ruhiyati va ichki kechinmalariga to'la mos keladi. Agar hikoya mazmuini mungli bir qo'shiqqa qiyos etsak, undagi tasvir va ohangdorlikni ana

shu g'amgin qo'shiq mazmunini ifoda etuvchi og'ir va hazin bir kuy deb atash mumkin. Bunday misollar Abdulla Qahhorning mohir so'z san'atkori ekanligini ko'rsatishi bilan birga, ayni paytda, yozuvchining adabiy-estetik qarashlari bilan uning badiiy ijodi ajralmas, yaxlit bir ma'naviy olam ekanligidan ham dalolat beradi.

A. Qahhorning tilga munosabatidagi yana bir ibratdi yo'nalish sifatida uning xalq tilini o'rganish hamisha yozuvchining asosiy vazifasi deb qaraganligini ko'rsatish lozim. Binobarin, bu jihatdan ham Abdulla Qahhor hozirgi ijodkor yoshlar oldida e'zozli bir ustoz bo'lib gavdalanadi. Negaki, u umrining oxiriga qadar ijod qilishdan to'xtamagandek, tilni o'rganishni ham hamisha yozuvchilik mehnatining ajralmas bir qismi deb bildi. Chunonchi, 1967-yili Abdulla Qahhor «Voprosy literatury» jurnalining savollariga javob berar ekan, jumladan, quyidagilarni aytgan edi: *«Agar yozuvchi toza vijdonli bo'lsa, uning uchun asar yozish yil sayin qiyinlashashib boradi... yozuvchi hech qachon «Men yozishni yaxshi o'rganib oldim» deb, o'zini xotirjam qsilmasligi kerak...»*Bu so'zlar yosh ijodkorlarni o'zlariga nisbatan talabchanlikni oshirishga va chinakam badiiy til yaratish yo'lida doimiy izlanishiga undovchi ezgu bir chaqiriq bo'lib xizmat qila oladi.

Abdulla Qahhor xalq tilini o'rganish yozuvchi uchun nechog'lik ahamiyatli ekanligini qayta-qayta takidlar va uni yorqin dalillar bilan isbotlab berishdan erinmas edi. Zotan, Abdulla Qahhor asarlari xalq tili boyliklaridan ijodiy foydalanishtshning ham o'ziga xos bir namunasi bo'la oladiki, bu haqiqat bir qator tadqiqotchilar tomonidan haqli ravishda ko'rsatib o'tilgan. Shu munosabat bilan men ikki adabiyotshunos olimning Abdulla Qahhor prozasida xalq og'zaki ijodining rolini ko'rsatishga bag'ishlangan bir maqolasini eslatib o'tishi va diqqatinngizni undagi bir fikrga jalb etishni lozim topamiz.

Maqola mualliflari professor S.Mirzaev va filologiya fanlari nomzodi A.Fayziyev A.Qahhorning xalq og'zaki

Ijodiyoti boyliklaridan, jumladan, xalq maqollaridan keng foydalanganligini qiziqarli misollar bilan namoyon etib, ko'pgina qimmatli mulohazalari bayon etishadi. Biroq, bu faktni tuzatishda, bizning nazarimizda, birtomonlikka yo'l qo'yilgan ko'rinadi, yaxshi maqol va hikmatli iboralarining ko'p qo'llanishi faqat xalq og'zaki ijodidan muvaffaqiyatli foydalanishning bir natijasi sifatidagina baholanadi. Mualliflar o'zlarining bu xulosalarini «san'atkorlik bilan qo'llash», «ustalik bilan ishlatish» kabi so'zlar bilan shu qadar zo'r berib takrorlaydilar, oqibatla Abdulla Qahhor asarlaridagina ayrim oddiy jumlar, chunonchi, «O'limidan qo'rqqan kishi qahramon bo'lolmaydi» yoki «Odam odamdan baxra oladi» singari fikrlar ham xalq, og'zaki ijodi namunalariga asoslanningan holda yaratilgan, tamoman yangi, original va xalq, aforizmlari darajasidagi xarakterli iboralar deb ta'riflanadi. U, albatta, haqiqatga unchalik to'g'ri kelmaydi.

Bizningcha, xalq maqollari va iboralarini ko'p qo'llash (ular maqola mualliflarining guvohlik berishicha, birgina «Qo'shchinor chiroqlari»da yuzga yaqin», «Sinchalak» qissasida esa ellikka yaqin ekan) ening avvalo yozuvchining noyob bir fazilatidan, ya'ni mazkur maqol va iboralar mansub bo'lgan xalq hayotini, uning og'zak tabiati va xarakterini chuqur bilganidan yorqin dalolat beruvchi muhim jihat sifatida e'tiborga loyiq emasmi? Ikkichidan esa, xalq, maqollari va iboralarga xos bo'lgan qisqalik va mazmundorlik kabi fazilatlar Abdulla Qahhor uslubining, fikrlash qobiliyatning, umuman, yozuvchi iste'dodning xarakterli bir xususiyti, boshqacha aytganda, bu fazilat A.Qahhorga xos bo'lgan obrazli tafakkurning tabiiy bir ko'rinishi sifatida ardoqlanishi lozim. Fikrimizni oydinlashtirish va dalillash maqsadida bir-ikki misol keltiraylik.

*«Abdulla Qahhorning badiiy tilida tasvirning meyorini bilishlik, klassiklardagina uchraydigan go'zal soddalik va hassoslik ko'zga tashlanib turadi, – deb yozadi P.Qodirov. U xalq*

maqollaridan keng foydalanish bilan birga, maqolday kuchli iboralar, obrazlar yaratadi. Masalan, romanda («Qo'shchinor chiroqlari») Safarov bir so'z aytadi: *«Kambag'al non deb bosh ko'tarsa, boy-mushtumzo'r qon deb, tosh ko'taradi»*. «O'zbekiston bo'ylab sayohat» kitobida. V.Vitkovich bu iborani xalq maqoli deb keltiradi. Bu haqiqatan ham xalq maqoliga o'xshaydi, lekin aslida «Qo'shchinor chiroqlari»dan chiqqan. Boshqa bir misol: filologiya fandari doktori, professor U.Normatovning guvulik berishicha, «Ufq» romanining ToshDU talabalari va hodimlari davrasida o'tqazilgan muhokamasida A.Qahhor, jumladan, shunday dedi: *«Said Armad ba'zan kitobxon kulavermasa, qitiqlab ko'ldiradi. Yig'layvermasa, ko'ziga piyoz surtib yig'latadi»*. Bu so'zlar, ham o'zining soddaligi, obrazdililigi va umumlashma xarakteri bilan xalq, iboralaridan farq qilmaydi. Lekin bunday faktlarni ham yuqoridagidek butunlay folklorning ta'siriga bog'lab qo'yish yozuvchining shaxsiy uslubi jo'nlashtirishga, ijodkor tafakkurining imkoniyat va qudratini kamsitishga olib keladi, deb o'ylayman.

Fikrimizni yanada oydinlashtirish maqsadida bu o'rinda navoiyshunos Yoqubjon Ishoqovning Navoiy ijodidagi folklor namunalariga o'xshash hikoyat va rivoyatlar xususida bildirgan quyidagi bir xulosasini keltirib o'tish ortiqcha bo'lmasa kerak: *«Folklor uslubidagi har qanday hikoyat va rivoyatlarga traditsion yoki folklor mulki sifatida qarash to'g'ri bo'lmaydi»*. Y.E.Bertels «Lison-ut-tayr» asaridagi hikoyalar munosabati bilan to'g'ri ta'kidlaganidek, ko'pgina epizodlarning (ya'ni hikoya, rivoyat) paydo bo'lishi Navoiyning boy hayotiy tajribasi bilan bevosita aloqadordir. Shoir faqat folklor uslubidan foydalangan. Masalan, «Sab'ai sayyor»dagi epizodik hikoyalar, shuningdek, boshqa dostonlardagi ba'zi tamsillargaham Navoiy badiiy fantaziyasining mahsuli deyish mumkin.

Xuddi shuningdek, Abdulla Qahhor asarlari va uning nutqida ko'plab uchraydigan xalq maqollari darajasidagi ixcham

va ma'nodor iboralar ham eng avvalo adibning obrazli tafakkuri mahsuli sifatida qaralishi to'g'ri bo'ladi. Zotan, Abdulla Qahhor asarlarining o'ziga xos tili va yozuvchi zamondoshlarining yakdillik bilan bitilgan *zarif xotiralari ham shundan guvohlik beradi*. «Abdulla Qahhor og'zidan chiqqan har bir ibora chuqur mantiqiy, tagdor, obrazli bo'lar edi» – *deya hayrat bilan eslaydi Erkin Vohidov. Bu fikrni O.Sharafiddinov shunday davom ettiradi:*

«Abdulla Qahhordagi obrazli tafakkur to'la edi... Abdulla Qahhorning ana shu o'ziga xos tafakkuri tufayli yuzlab iboralar, ta'riflar tug'ilganki, adib ularni benihoya saxiylik bilan hammaga ulashaveradi. Bu iboralar hozir ham ko'pgina odamlar o'rtasida iliq tabassum bilan eslab yurishadi. Lekin eng muhimi shundaki, bu obrazli tafakkur tufayli uning hikoyalari ham, qissalari ham, romanlari ham, pyesalari ham, hatto maqolalari ham vaqt o'tgan sari yashnab, yarqirayotgan asl javohir bilan boyigan edi».

Bunday xotiralarni ko'plab keltirish mumkin. Ayniqsa Abdulla Qahhorning bu noyob fazilati, ya'ni adibning deyarli har bir fikri kishini lol qoldiruvchi ohori to'kilmagan so'z va iboralar bilan boyitilishi mohir tarjimon va adabiyotshunos Kibriyo Qahhorovanning «Chorak asr hamnafas» asarida bag'oyat qiziqarli misollar asosida samimiyat bilan bayon etilgan. Ulardan yana bir bor ayon bo'ladiki, Abdulla Qahhor asarlaridagi hikmatli iboralar yozuvchining o'ziga xos obrazli tili va tafakkurining bevosita bir ifodasi o'laroq vujudga kelgan.

Ma'lumki, badiiy asarda obrazlilik va emotsionallikning yuzaga kelishida sifatlash (epitet), o'xshatish, metafora va mubolag'a singari tilning badiiy tasvir vositalari ham muhim o'rin tutadi. Biz bu o'rinda A. Qahhorning sifatlash va o'xshatish haqidagi qarashlariga imkoniyat doirasida to'xtalib o'tamiz.

A. Qahhorning fikricha, sifatlash tasvirlanayotgan predmet yoki insonning eng xarakterli, eng muhim va asosiy belgisini ko'rsatgandagina va shu bilan birga g'oyat sodda va original

bo'lgandagina badiiylilik uchun xizmat qilishi mumkin. Buning uchun esa yozuvchi epitetlardan foydalanishda juda extiyotkorlik va ustalik bilan ish ko'rishi zarur. Binobarin, Abdulla Qahhor asarlaridagi epitetlar ana shunday mahorat va talabchanlik bilan yaratilganki, ulardan ayrimlari bilan tanishib o'taylik.

Chunonchi, yozuvchi «Ming bir jon» hikoyasining qahramoni Masturaning ko'zlariga nisbatan quyidagi epitetlarni qo'llaydi: «*Uning o'lim pardasi qoplagan yuzida chaqnab turgan ko'zlari*», *Masturaning yuzidan o'lim pardasi ko'tarilganda hayot to'la ko'zlari o'lik yuziga jon kiritganday bo'ldi*», «*Tanidim! Faqat ko'zidan tanidim! Kulimsirab, olamga tabassum sochib turgan bu juvon o'sha Mastura edi...*» (I, 305-bet). Bu epitetlar Masturadek irodali va bardoshli insonning ko'zlariga naqadar muvofiq keladi. Haqiqatan ham, o'n yildan beri o'lim bilan mardona olishgan va hayotga bo'lgan favqulodda katta muhbbati bilan o'limni ham enggan Masturaning ko'zlari faqat ana shunday hayotdan darak berib turuvchi ko'zlar bo'lishi qanchalar tabiiy va ishonarli. Bu sifatlashlar yozuvchining qahramonga bo'lgan xayrixohligini aks ettirish bilan birga, ayni vaqtda, ular o'quvchi qalbida ham iliq munosabat tug'dirishga sabab bo'ladi. Adibning asosiy maqsadlaridan biri ham ana shundan iborat edi.

Boshqa bir misolni ko'zdan kechiraylik. Yozuvchi «Bemor» hikoyasidagi Sotiboldining g'aribona xonadonini tasvirlab, bemor atrofidagi pashshalarni «karaxt, nimjon, xira», deb ta'rif etadi. Bu epitetlar asar tilidagi obrazlilikni kuchaytirishi bilan birga, ayni paytda, Sotiboldining kulbasidagi qashshoqlikni, bemorning chorasiz va og'ir dardi tufayli unda hukm surayotgan sovuq va ko'ngilsiz vaziyatni yanada jonli va tasvirli qilib ko'rsatish uchun xizmat qiladi.

Yana bir misol: A.Qahhorning «Qayg'ular» nomli hikoyasi shunday epitetlar bilan boshlanadi: «*Go'zal bir yigit eshikni*

qoqdi. Sochiga bitta-ikkita oq oralagan xotin chiqib ochdi» (I, 152-6.). Asarda ayol haqida, uning yoshi va tashqi ko'rinishi haqida boshqa tavsif keltirilmagan. Lekin voqea davomida biz bu ayolning farzandi va kelini ham bor bo'lgan kekxa va bama'ni bu kishi ekanligini bilib olamiz. (Ayolning yigitga taskin berish maqsadida aytgan so'zlarini eslaylik: «Xotiningiz bugun ertalab soat oltida Samarqandga uchdi- ku. Mening kelinim bilan birga ketdi...»)

Xuddi mana shu «kelini borligi» haqidagi muxtasar ma'lumot ayolga nisbatan yangi va xarakterli. bir epitet ham bo'la oladi. Chunki bu shtrix-tavsif «sochlariga bitta- ikkita oq oralagan» degan dastlabki epitetning tavsifiy ma'nosini yanada to'ldiradi va o'quvchining tasavvurini ham ancha kengaytiradi. Natijada, bizga ravshan bo'ladiki, ayolning yoshi go'zal yigitdan ancha katta, uning onasi tengi sofdil inson. Bu holat esa yozuvchiga «go'zal» yigitning naqadar badaxloq, bema'ni va shilqim bir kimsa ekanligini yana ham bo'rttirib va qabartirib ko'rsatish imkonini beradi. Keltirilgan misollar shuni ko'rsatadiki, Abdulla Qahhor epitetlardan foydalanishida doimo ixchamlikka, ifodalilikka va haqiqiylikka intilgan. Shuning uchun ham u yaratgan epitetlar asarda hamisha salmoqli o'rin tutadi va o'quvchi xotirasida ham uzoq vaqt saqlanib qoladi.

Abdulla Qahhor o'xshatishga ham katta e'tibor bergan. Chunki o'xshatish «o'quvchiga juda oz ma'lum bo'lgan yoki mutlaqo ma'lum bo'lmagan narsani oydinlashtirish va yozuvchining fikrini kitobxonga tez anglatishda» alohida ahamiyat kasb etadi. Bu muhim vositaning mohiyatini anglatish va uni qo'llashda A.Qahhor, eng avvalo, klassik yozuvchi tajribasiga suyanagan. U shunday yozadi: «Gorkiy qomati xunuk, semiz bir qizni bir qop tarvuzga o'xshatadi. Kitobxon qopga tarvuz solib ko'rmagan taqdirda ham darrov ko'z oldiga keltiradi. Gogol birovning yuzini kurakka, yana birovning yuzini bodringga o'xshatadi. Bodring bilan kurakni

kitobxon juda yaxshi biladi. Bulardan ko'rinadiki, o'quvchiga oz ma'lum bo'lgan yoki mutlaqo ma'lum bo'lmagan narsa unga juda ham yaxshi ma'lum bo'lgan narsaga o'xshatilishi kerak.

Abdulla Qahhor badiiy tasvirning bu muhim qoidasiga to'la va izchil amal qilganligining guvohi bo'lamiz. Jumladan, u maqolalarida aytim yosh yozuvchilarning o'xshatish san'atiga nisbatan e'tiborsizlik bilan yopdashishni aytib, ularni asarlaridagi o'xshatishlarning ma'nosi mavhum va murakkabligini ko'rsatib o'tadi. Masadan, mana bu o'xshatishni olaylik: *«U qayg'uli bir tusda bo'ynini qisib, o'likdan qo'rqib qochib, qayerga qochishni bilmay qolgan kishiday ko'z yoshlarini mo'ltillatib turar, ko'z yoshlari esa ikki chakkasidan pastga oqib tushar edi...»* (Ma'ruf Hakimning «Nazir» hikoyasidan). Hiqiqatdan ham, bu murakkab va noaniq o'xshatish o'quvchiga qorong'u bo'lgan narsa, holatni oydinlashtirish u yoqda tursin, hatto yozuvchi aytmoqchi bo'lgan fikrning ham xiralashtirib, chigallashtirib turibdi. Tabiiyki, bunaqa o'xshatishlar asar tilini og'irlashtirishi bilan birga, uning ta'sir kuchini ham susaytiradi.

O'xshatishdan foydalanishda ham Abdulla Qahhor ustoz sifatida tanildi desak, yanglishmagan bo'lamiz. Misollarga murojaat qilaylik.

Yozuvchining «O'tmishdan ertaklar» qissasida «Zingerli boy» degan bir bob bor. Unda xoriждан keltirilgan tikuv mashinasi qora qo'ng'izga qiyos qilinadi. Darhaqiqat, bu sodda va ixcham o'xshatish o'quvchiga oz ma'lum bo'lgan predmetni yanada oydinlashtirib kelishi bilan birga, ayni paytda, tikuv mashinasini ilk bor ko'rayotgan yosh Abdulla hamda unga «hayrat va shubha», «xavotirlik va maroq» bilan tikilayotgan sodda odamlarning ham tushuncha-tasavvuriga, ong-saviyasiga juda mos keladi.

Yoki «Dahshat» hikoyasini esga olaylik. Yozuvchi Unsinning qabristonga borishini tasvirlar ekan, shunday o'xshatishdan foydalanadi: *«Unsin xuddi dadasidan katta hayitlik olib, bozor*

boshiga ketayotgan yosh boladay chopqillab, qarshidan esayotgan shamolga soʻz bermay, baʼzan irgʻishlab borar edi...» Asar sujetidan maʼlumki, Unsin daxshatli kabristonga bormoqda. U tirik inson, qabriston vahimasi va qoʻrquvdan holi emas. Lekin undagi qoʻrquv-vahimani bir qadar yengillatuvchi va ozurda koʻngliga ozgina boʻlsada xotirjamlik bagʻishlovchi bir kuch bor. Bu Dodxo zulmidan tezroq ozod boʻlish, ertagayoq Ganjiravonga joʻnash, ota-onasini, dugonalarini koʻrish umidi «(Unsinning eng ogʻir damlarda ota-onasi va yaqin kishilarni eslashi ham qanchalik tabiiy). Shu umid Unsinga quvonch va kuch bagʻishlaydi va uni ezgu maqsadi yoʻlida dadil harakat qilishga undaydi. Unsinning oʻlim xavfi oldidagi bu holati va lekin oʻy-kechinmalarini mana shunday oʻxshatish orqali yorqin ifodalashga erishilgan.

A.Qahhorning oʻxshatishlardan foydalanishdagi yana bir jihatini alohida qayd etish kerak. Abdulla Qahhor yaratgan oʻxshatishlar asar tilining ifodaliligi va taʼsirchailigini oshirib, likrni sodda va ixcham shaklda bayon etishdan tashqari, ular yozuvchining muayyan pozitsiyasini – qahramonlarga munosabatini yaqqol koʻrsatib turishi bilan xarakterlidir. Chunonchi, “Xoʻrozqandga oʻxshamay oʻl!” (“Toʻyda aza”), “Hammadan uning qomatini ayting: afsuski, ming afsuski, qoʻli ikkita-da, yoʻqsa, eng chiroyli nasha chilimiga oʻxshar edi” (“Qizlar”), Xoʻroz ham “men qichqirmasam tong otmaydi” deb oʻylar ekan” (“Sinchalak”), “Kalla deb jun chiqqan qovoqni koʻtarib yurgan ekanman...” (“Ogʻriq tishlar”) kabi oʻxshatishlar mazkur asarlarning gʻoyaviy-badiiy maqsadiga toʻla mos ekanligidan tashqari, ular yozuvchining qiyoslanayotgan qahramonlarga boʻlgan munosabatini ham yorqin aks ettira oladi. Agar Abdulla Qahhor ijodini ulkan bir dengiz deb tasavvur etsak, keltirilgan misollar shu maʼnaviyat dengizidan bir-ikki tomchi, xolos. Lekin shularda ham A.Qahhorning mohir soʻz sanʼatkorligi va uning muhim adabiy-estetik qarashlari yorqin namoyon.

## MOHIR TARJIMON VA MATNSHUNOS

### Kibriyo Qahhorova haqida qaydlar

Yetuk adabiyotshunos va tarjimon, noyob iste'dod sohibasi Kibriyo Qahhorova (1914-1996) haqidagi fikrlarimizni mashhur ustozimiz, O'zbekiston Qahramoni Ozod Sharafiddinov so'zlari bilan boshlash maqbul ko'rindi:

"Kibriyo opa ko'p ulug' fazilatlarga ega edi. Bilmadim, ularning ildizlari qaerdaykin - Samarqand tuprog'ida tug'ilib, uning betimsol havosidan shimirib ulg'ayganidami? Yoki otasi Lutfulla mahdumning unga bergan beqiyos tarbiyasida mi? Yoki bo'lmasa Abdulla Qahhor bilan chorak asr hamnafas bo'lgani sabab bu adibning ulug'ligi unga ham yuqqanidami? Ehtimol, ularning bari birlashib bu ayolga noyob fazilatlar baxsh etgandir?"<sup>13</sup>

Bu mulohazalarning barchasida hayotiy haqiqat mujassam va ularga yana bir jihatni qo'shish mumkin: Kibriyo opadagi tug'ma qobiliyat, ya'ni fe'li-saji yasidagi shoirona ta'bi nazm, quvvai hofiza, zukkolik va zarofatgo'ylik ham u kishini yetuk ijodkor bo'lishida muhim omil bo'lgani shubhasiz. "Kibriyo opa Qahhorova tebransalar she'r to'kilardi, lutf yog'ilardi. Sa'diy, Hofiz, Hayyom, Bedilning baytlari sochilardi. Opamizda manman degan shoirlar havas qilsa arzigulik nozikta'b, tiniq xotira, she'riy so'z hissi mavjud edi"<sup>14</sup>

Nurli bir sog'inch va hayrat bilan bitilgan bu satrlar Abdulla Qahhor va Kibriyo opalarni aziz ustozlariday ko'rib, ularni hamisha chuqur ehtirom bilan e'zozlagan O'zbekiston Qahramoni, xalqimizning sevimli shoiri Erkin Vohidov qalamiga mansub. Ular ham Kibriyo opaning orifona she'riy

<sup>13</sup> Ozod Sharafiddinov. Ijodni anglash baxti. T."Sharq" nashriyoti, 2004, 313-314-bet.

<sup>14</sup> E. Vohidov. Ikki og'iz dil so'zi.- Kibriyo Qahhorova. Chorak asr hamnafas. T. 2007, 3-b.

muhabbat va saboqlaridan bahramand bo'lgan yuzlab ijodkorlar va umidli yoshlar qalbida qanchalar fayzli va yorqin xotiralar qoldirganidan dalolat beradi.

Abdulla Qahhor va Kibriyo opalar hayotini yaqindan bilgan, ularning shaxsi va ijodini chuqur o'rgangan adabiyotshunoslar ularning 1944-yildagi ilk uchrashuvini ham tasodifiy emas, balki Yaratganning xohish-irodasi bilan muqarrar ro'y bergan ilohiy bir tuhfa-in'omi sifatida talqin etadiki, bu baxtli ijobat lahzalari ham "ilmi g'ayb" bilan izohlansa kerak. "Nazarimda, – deb yozadi Ozod aka o'z esdaliklarida, – taqdir birlarini Qo'qo'nda, ikkinchilarini Samarqandda yulduzlarini bir-biriga to'g'rilab yaratgan-u, "qani boringlar, bir-birlaringni topib olinglar", degandek, hayotning katta yo'lga solib yuborgan. Ular birlarini topgunga qadar hayotning past-baland yo'llarida ancha ovorai sargardon kezishgan, ozmi-ko'pmi qiyinchilik ko'rishgan, turmushning achchiq-chuchugini tatishgan. Hatto ikkovlari ham oilaviy turmush nima ekanini sinab ko'rishgan." (O'sha asar, 322-b)

Darhaqiqat, Abdulla Qahhor bilan Kibriyoxonim dastlabki uchrashuvidanoq ular go'yo bir-birlari uchun yaratilgandek, bir-birlari uchun qanchalar kerakli va qadrli ekanligini, bir so'z bilan aytganda, mushtok ko'ngillari qanchalar mos ekanligini butun vujudi va botiniy nigohlari bilan his etgan bo'lsalar ne ajab! Ular bir-birlari bilan ham ruhan, ham ma'nan qanchalar yaqinligini Qahhorning Kibriyoxonimga aytgan "dil izhori"dan ham tasavvur qilish mumkin: "Shu mahalgacha men xotin zotidan hamsuhbat, hamnafas, ulfat topilishini xayolimga ham keltirmagan edim. Siz xayrlashib ketganingizdan keyin o'ylab qurasam, meni tushunadigan, dardimga malham bo'ladigan hitta odam bor ekan, lakalovlik qilib, uni ham qo'ldan chiqarib yuborishimga sal qopti. Shuni sezdimu yosh boladay orqangizdan yugurdim" (Chorak asr hamnafas. 25-bet). Abdulla Qahhor bilan Kibriyoxonimning shikasta dillari bir-birlaridan

malham topishi va ular qalbidagi pokiza his-tuyg'u va nekbin orzu-niyatlar ularning ibratli oila qurishlariga mustahkam asos bo'lganligi nafaqat ular uchun baxt, balki xalqimiz, adabiyotimiz uchun ham taqdirning bir mukofoti edi deyish mumkin. Shu munosabat bilan ko'proq boshqa millatlar adabiyoti va san'ati vakillarining oilaviy hayotida uchr aydigan ba'zi omadsizlik va nomutanosiblik oqibatlarini ham yodga tushadi.

Jahon adabiyoti tarixidan bizga ma'lumki, ko'pgina mashhur san'atkorlarga turli sabablarga ko'ra to'kis oilaviy baxtu ro'shnolik nasib etmagan. Xususan, ayrim talantli shoir va yozuvchilarning oilaviy baxtsizligidan tashvish chekkan Maksim Gorkiy bu fojeaning jamiyatga va adabiyotga qanchalar jiddiy zarar yetkazganligini taassuf bilan ta'kidlagani bejiz emas. Hatto Lev Tolstoydek daho yozuvchi bilan uning ayoli Sofya Andreevna qancha yillar birga umrguzaronlik qilgan va bir nechta farzandlar ko'rib ularni voyaga yetkazishgan bo'lsalar- da, ular o'rtasida mushtarak bir e'tiqod yoxud g'oyaviy maslakdoshlik u yoqda tursin, ba'zan o'zaro bir-birlarini tushunish, hamfikrlilik ham yetishmaganligi- achchiq haqiqat. Tolstoydek dunyoga mashhur adibning umri oxirida uyidan bosh olib chiqib ketganligi va xastalanib, chekka bir temiryo'l bekatida g'aribona holda hayotdan ko'z yumganligining sabablaridan biri ham- mana shu ruhiy va ma'naviy jihatdan yolg'izlik bo'lsa kerak.<sup>15</sup>

Eng avvalo, Oллоhning inoyati, qolaversa, islom ma'rifati va milliy qadriyatlarimiz bo'smi-xalqimiz e'zozlagan mashhur adiblarimiz o'zlarining munosib umr yo'ldoshlari bilan ham baxtli taqdir sohiblari bo'lganligini hamisha havas va sevinch bilan tilga olamiz. Bu jihatdan, ayniqsa, atoqli adiblarimiz- G'afur G'ulom va Maharram opa, Oybek va Zarifa Saidnosir ova, Hamid Olimjon va Zulfiyaxonim, Said

<sup>15</sup> L.N.Tolstoy. Sobr.soch.v 20-ti tomaj,t.18, Pisma 1887-1910 gg. M, Xud. lit. 1965.

Alimud va Saida Zunnunova, Ozod Sharafiddinov va Sharofat opa kabi (bu ro'yxatni yana davom ettirish mumkin) taniqli ijodkorlarimizning mazmunli oilaviy hayoti "Insoniy baxtning qadri nimada, kimlarga o'xshab yashash kerak?" degan o'y-kuyollar bilan hayot bo'sag'asida turgan yoshlarimiz uchun ham g'oyat ahamiyatli deb o'ylaymiz.

Eng muhimi, mashhur adib va allomalarimiz uchun "sadoqat, halollik va ezgulik mehrobi bo'lib kelgan" fidoiy ayollari ulug' adiblarimizni, Abdulla Qahhor aytganidek, nafaqat "tishining kavagida asrab", yuksak qadrlaganlar, balki ularning zimmasidagi sharaflı burch va mas'uliyatni ham chuqur anglab, butun hayoti va ijodi davomida doimiy hamdam-hamkorlari bo'lishgan. Asarlarining birinchi o'quvchisi va kotibasi, qolaversa, g'amxo'r munaqqidi va maslahatgo'ylari ham ana shu sabru qanoatli, fozila ayollari bo'lgan.

Taniqli shoiramiz Oydin Hojjeva ardoqli ustozlari - Zulfiyaxonim bilan Hamid Olimjonlarning dahshatli urushning suronli yillarida ham qiyinchiliklari og'ir sharoitlarga qaramasdan jo'shqin ilhom va ishtiyoq bilan ijod qilganliklarini xotirlab, "Ular bitta nafasga aylanib baxtiyor yashar, ishlar edilar", deb yozadi.<sup>16</sup> Nafaqat adabiyot ixlosmandlari, balki butun xalqimiz qalbida o'chmas iz qoldirgan ulkan tarixiy haqiqat va cheksiz fidoyilikni teran ifodalagan bu go'zal lutf-tashbehni Qahhor bilan Kibriyoxonlarning yorqin hayoti va ijodiga nisbatan ham faxr bilan aytish mumkin.

Xususan, Kibriyo opa ustoz Abdulla Qahhor haqidagi g'oyat ta'sirchan va ibratomiz xotiralarida "Biz hamisha bir tanu bir jon bo'lganmiz", deb yozganda juda haq edi. Mamnuniyat bilan yo'g'rilgan bu e'tirof, ehtimol, Kibriyo opani yaxshi bilmagan va bu so'zlar zamiridagi mehru-muhabbat, sabru matonat va

<sup>16</sup> Oydin Hojjeva. San'atkor tarjimon. – "Jahon adabiyoti", №3, 2014, 98-bet.

fidoiylilikni tasavvur eta olmaydigan kishilarga bir mubolag'a bo'lib tuyular. Bu kabi e'tirozlarga o'rin qoldirmaslik uchun Abdulla Qahhor bilan Kibriyo opaning hayotda ham, ijodda ham-hamisha qo'sh qanot bo'lib yashaganligi va ular o'rtasidagi muomala- munosabatlar qanchalar oqilona, qanchalar nazokatli va orifona, zavqli va hayotbaxsh bo'lganligini ko'rsatuvchi hayratangiz lavhalardan ba'zilarini keltirib o'tish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Mana – Abdulla Qahhorning "Yon daftar"laridagi teran va hayotiy bir mulohaza, iqrornoma tarzida aytilgan ibratli bir hikmati: "Biz er-xotingina emasmiz, er-xotinlik oramizdagi munosabatning bir juz'igina. Agar biror tashqi majburiyat bizni er- xotinlikdan mahrum qilsa, oramizdagi munosabat juda kam zarar topadi" (Abdulla Qahhor. Asarlar, 6-tom, 472-bet). Darhaqiqat, ularning pokiza imon-e'tiqodida ham, adabiyotni qanchalar muqaddas bilishi va unga cheksiz sadoqatida ham, yuksak did, fikr va qarashlarida ham, qolaversa, do'stu shogirdlariga mehru-oqibatida ham ajib mushtaraklik yaqqol namoyon edi. Binobarin, ham ruhan, ham ma'nan yakdil bo'lgan bu ikki ulug' siymoning serfayz-totuv hayoti va samarali ijodiy faoliyati bilan chuqurroq tanishgan va ularning samimiyat va milliylikka yo'g'rilgan fasohatli so'z va xotiralarini havas va hayajon bilan o'qigan kitobxon shunday bir xulosaga kelishi tabiiy: Sharqona tarbiyali yetuk ota-onalar o'z farzandi jigarbandini qanchalik mehr-muhabbat bilan ulg'aytirsa, Kibriyo opa ham Abdulla Qahhorga shunchalik mehru-shafoat va g'amxo'rlik ko'rsatgan va uni cheksiz fidoyilik bilan beqiyos ardoqlagan edi, desak, ayni haqiqatni aytgan bo'lamiz.

Maqtovga xasis, haqgo'y- realist Qahhorning o'limi oldidan Kibriyo opaga aytgan minnatdorlik to'la quyidagi so'zlari ham ana shu hayotiy haqiqatni ifodalashi bilan ham ko'plar uchun unutilmas saboq va ibrat bo'la oladi: "O'tinib so'rayman, bundan buyon mashina haydamang, ikki kishi

edik, endi bittamiz qoldik. Siz o'zingizni ehtiyot qiling. Yana bitta gapim shuki, agar men Abdulla Qahhor bo'lgan bo'lsam, faqat siz tufayli bo'lganman. Boshqa ayol bo'lganida, mening shu xarakterimga bir haftadan ortiq chiday olmas edi. Sizsiz, ehtimol, men bundan yigirma yil burun o'lib ketgan bo'lardim" (Chorak asr hamnafas, 122-123-betlar). Chindan ham, Abdulla Qahhor hayotini Kibriyo opa bilangina butun deb bilar, hamisha unga suyanardi va u kishisiz ko'ngli yarim, ilhomi ham so'nik, xuddi yetim boladek mung'ayib qolishiga barcha yaqinlari, do'stu- shogirdlari ham ko'p bora guvoh bo'lishgan.

Abdulla Qahhor umrining so'nggi og'ir kunlarini O'zbekistonimizdan yiroqda- Moskva shahridagi kasalxonada o'tkazgan. Kibriyo opa har doimgidek, kechayu-kunduz yonlarida, bir daqiqa ham oldilaridan jilmaydi, o'lim bilan mardona kurashayotgan adibimizga tasalli berib, dardini yengillatishga urinadi. Qalami va haqgo'yligi bilan el- yurtga xizmat qilishdek sharaflı burchiga bir umr sodiq bo'lgan Abdulla Qahhorning "Ming bir jon" hikoyasida insonning hayotga va yashashga bo'lgan so'nmas mehr va ishtiyoqi, metindek mustahkam irodasi madh etilgan. Umrining oxirgi daqiqalarida ham ruhiyati va jasorati so'nmagan Abdulla Qahhorning va uni chorak asr boshida ko'tarib, cheksiz g'amxo'rlik ko'rsatgan, quvonchu- dardini bo'lishgan eng aziz va qadrlı hamdami Kibriyo opaning ham ko'ngillaridan balki hikoya qahramoni Masturaning umidbaxsh so'zlari o'tgan bo'lsa, ehtimol: "Men odam bolasining o'lim kutishiga, ya'ni dunyodan umid uzishiga ishonmayman. Hatto tildan qolgan kasalning rozilik tilashib qaragani ham dunyodan umid uzgani emas, balki "rozilik tilashgani hali erta", dermikin degan umid bilan, dunyoda tengi yo'q, timsoli yo'q zo'r umid bilan qaragani deb bilaman".

Afsuski, o'lim- haq. Shafqatsiz o'lim Kibriyo opaning ulug' adibga bo'lgan ulkan mehr-muhabbati, cheksiz sadoqat va

iltijolarini ham pisand qilmaydi. Abdulla Qahhorning vafoti xalqimiz, adabiyot va ma'naviyatimiz uchun ham, barcha yaqinlari va ayniqsa, Kibriyo opa uchun g'oyat og'ir yo'qotish bo'ldi. Bu musibat Kibriyo opa hayoti va taqdirida qanchalik og'ir asorat qoldirgani va ularga qanday bardoshi yetganini keyinchalik shunday eslaydi: "Ochig'i, men ustoz vafotidan keyin uzoq yashamasam kerak, deb o'ylagandim. Biroq Lev Tolstoy aytganiday, har qanday qayg'u ham jarohatga o'xshar ekan; jarohat asta-sekin bitganidek, qayg'u ham, dog'i qolsa-da, vaqt o'tishi bilan eskirar ekan.

Bu yorug' olamda xalq mehri, tasallisi, yoru do'stlarning daldasi, qolaversa, ustozdek so'z san'atkori bilan birga kechirgan umrimning nurli xotiralari meni shu yoshgacha olib keldi. Qalbim to'rida saqlangan ana shu xotiralarni odamlarga aytib berish, vaqti kelib ularni qog'ozga tushirish uchun ham yashashim kerak, deb o'ylar edim". (Chorak asr hamnafas, 5, 125-betlar)

Kibriyo opaning orzulari ijobat bo'lib, muxlislar uchun tabarruk qadamjoga aylangan muqaddas dargoh- Abdulla Qahhor uy- muzeyida bir necha yillar ustoz chirog'ini yoqib, shukronalik bilan yashash va ijod etish nasib etdi. Zero,

*"Az noumediho base umed ast,*

*Poyoni shabi siyah safed ast"*

(Har qanday umidsizlikning tagida umid yotadi,

Har qanday qora tun ham yorug' kun bilan tugaydi)

deganlariday, hayot yana davom etadi. Kibriyo opa niyat qilganiday, qolgan umrini ham Abdulla Qahhorga- ustozning ushalmagan orzu- armonlari va vasiyatlarini ro'yobga chiqarishga va uning asarlarini to'plab, xalqqa va minglab o'quvchilariga yetkazishdek xayrli ishlarga bag'ishlaydi. Jumladan, Kibriyo Qahhorovanning 1987-yili yozilgan va 2007-yili to'ldirilib, qayta chop etilgan "Chorak asr hamnafas"

asari nafaqat qahhorshunoslikda, balki xalqimizning ma'naviy va adabiy hayotida ham quvonchli bir voqea bo'ldi deyish mumkin. Mashhur shoirimiz Erkin Vohidov muxtasar so'zboshisida yozganidek, nafaqat adabiyot muxlislari, balki butun xalqimiz tomonidan sevib o'qib kelinayotgan bu nurli xotiralar Abdulla Qahhordek zabardast adib hayoti va ijodining maktab darsliklarida ham yoritilmagan muhim tomonlarini, ayniqsa, yozuvchining betakror shaxsini va ko'plab asarlarining yaratilish tarixini o'rganishda ham qimmatli manba bo'lib xizmat qilishi shubhasizdir.

Ustozning barhayot ruhi va u kishidan qolgan zarif xotiralarni bir soniya bo'lsin unutmagan Kibriyo opaning yelib-yugurishi bilan amalga oshirilgan va o'zbek kitobxonlari bilan birga dunyoning ko'plab millatlari ham bahramand bo'lib kelayotgan Abdulla Qahhorning rus tilidagi ikki jildli va o'zbek tilidagi besh jildlik asarlarining nashr etilishi ham tahsinga loyiqdir. Bu asarlarni to'plab, nashrga tayyorlash sertashvish va zahmatli yumush ekanligini Kibriyo opaning nashriyotlarga, tarjimonu muharrirlarga, qolaversa, men kabi yosh qahhorshunoslarga yo'llagan ko'plab xat va yozishmalaridan ham tasavvur etsa bo'ladi. Alohida mehr-e'tibor va kuyunchaklik bilan bitilgan bu xatlarda, (jumladan, menga yozgan maktublarida ham) Abdulla Qahhor asarlarini mumkin qadar to'liq va tezroq hamda benuqson nashr ettirish va ularni keng jamoatchilikka taqdim etishdek ezgu maqsad va niyat ustuvor edi.

Mustaqillik yillari yanada mukammal tarzda qayta nashr etilgan bu asarlarni yana qancha yosh avlodlar o'qib- o'rganib, o'zlarining ma'naviyati, tili va madaniyatini boyitishiga va Abdulla Qahhor bilan Kibriyo opadek takrorlanmas siymolarning ruhlarini shod etishlariga ishonchimiz komil.

Kibriyo Qahhorovadagi ijodiy iste'dod va zullisonayn qobiliyat uning adabiy- badiiy tarjimonlik faoliyatida yanada

yaqqol namoyon bo'lganini ko'rishimiz mumkin. Bu jihatdan taniqli adabiyotshunos Naim Karimovning "Kibriyoxonim va uning xotiralari to'g'risida" deb nomlangan so'ngso'zidagi quyidagi mulohazalari e'tiborga molik: "Agar Kibriyo opadek mehnatsevar, serqirra ijodkor va zukko ayol Abdulla Qahhorga bag'ishlagan hayotining beshdan bir ulushini tarjimonlik ishlariga ajratganida, balki adibning barcha asarlarini tojik tiliga, qanchadan-qancha fors-tojik va rus adabiyoti namunalari esa o'zbek tiliga tarjima qilgan bo'larmidi". Haq gap. Ammo Kibriyo opa butun umriyu mehrini Qahhorga baxshida etish orqali ham adabiyotga, xalqqa xizmat qilganidan hayotini mazmunli, o'zini behad masrur sezar edi.

O'quvchilik yillaridayoq nashriyotda ishlagan va ko'plab fors-tojikcha she'rlar va ilmiy-publitsistik matnlarni rus-o'zbek tillaridan tarjima qilib, ancha tajriba- malaka orttirgan Kibriyo opani badiiy tarjima sohasiga rag'batlantirgan va bu jarayonda ustoz- rahnamolik qilgan ham Abdulla Qahhor bo'lgan. Ularning ijodiy hamkorligi ham Qahhorning jiddiy bir maslahat va taklifi bilan boshlangan: "Bilasizmi, bitta xonadonda- bitta yozuvchi yetarli. Siz, baribir, yozuvchi bo'lib, mendan o'tkazolmaysiz. Keling, o'rtamiyona yozuvchi bo'lgandan ko'ra, yaxshi tarjimon bo'lgan afzalroq. Undan ko'ra siz menga yordam qiling, men yaxshiroq yozuvchi bo'lay, men sizga yordam qilay, siz yaxshi tarjimon bo'ling" (Chorak asr hamnafas, 35-36-betlar). Shu tariqa Kibriyoxonimdagi iqtidor to'g'ri va samarali yo'nalishga boshqariladi va tez orada u o'zbek va rus tillarini puxta o'rganib oladi, tili va qalami charxlanib, kichik asarlarni tarjima qila boshlaydi. O'z navbatida, Kibriyo opadagi tarjimonlik qobiliyatining yuzaga chiqishida Abdulla Qahhorning o'ziga xos, oqilona talabchanligi va g'amxo'rliqi beqiyos bo'lganligini Kibriyo opaning zarif xotiralaridan anglash mumkin: "Ona bolasining tetapoya bo'lishi, mustaqil qadam tashlashi uchun qancha urinsa, nechog'liq jon kuydirsa,

ustoz ham mening o'zbek tilini mukamal o'rganishim va yaxshi tarjimon bo'lishim uchun shunchalik sabru matonat bilan harakat qilganlar" (Chorak asr hamnafas, 38-bet).

Aslida, badiiy tarjima ham- ijodning o'ziga xos va murakkab bir sohasi. Binobarin, chinakam shoir yo yozuvchi, eng avvalo, tug'ma, tabiiy iste'dodi bilan ajralib tursa, tarjimon ham ana shunday iste'dodga ega bo'lishi va ayni vaqtda, tarjimonlik mahoratini puxta egallashi, kamida ikki tilni yaxshi bilishidan tashqari o'zga millat hayoti va ruhiyatini ham chuqur his etishi talab etiladi. Darhaqiqat, Cho'lpon va G'afur G'ulom, Shayxzoda va Asqad Muxtorday zabardast adiblarimizning Shekspir tragediyalarini yoxud Abdulla Oripov va Erkin Vohidovlarning Dante va Gyotening jahonshumul asarlarini tarjima qilish jarayoni ham qanchalar murakkab kechgani, ya'ni qalblarni munavvar etuvchi huzurbaxsh onlar bilan birga qanday mashaqqatli ijodiy izlanishlar, chuqur badiiy mushohada va poetik tafakkur evaziga amalga oshirilgani tarjimashunoslarning tadqiqotlari orqaligina ayon bo'lishi mumkin.

Shu ma'noda hassos shoirimiz Hamid Olimjonning 30-yillarda Pushkin asarlarini o'zbek tiliga tarjimasi bilan bog'liq bildirgan fikri bugun ham dolzarbligini yo'qotmagan: "Pushkindan muvaffaqiyatli qilingan har bir parcha, har bir satr shoir ijodida muhim bir bosqich, chunki bu adabiy-ijodiy ish - sodda tilmochlik emas. Shuning uchun ham Pushkindan biror asarni yaxshilab tarjima qilish bilan shoir o'z ijodida yangi bir pog'ona oshadi".<sup>17</sup>

O'shanda Hamid Olimjon Lev Tolstoyning jahon adabiyoti durdonalariga aylangan mashhur asarlarini ham o'zbek tiliga o'girilishini orzu qilgandi. Dunyo adabiyoti rivojida alohida bir bosqichni tashkil etgan Lev Tolstoy asarlari

<sup>17</sup> Hamid Olimjon. Asarlar, 3-tom, Toshkent, O'z.Dav.nashr., 1960. 279-bet.

ham Abdulla Qahhor, Kibriyo Qahhorova, Mirzakalon Ismoiliiy, Ozod Sharafiddinov va Holida Ahrorova kabi adib va mohir tarjimonlarning ijodiy mehnatlari tufayli o'zbek kitobxonlarining ma'naviy mulkiga aylandi. Nafaqat Tolstoy ijodida, balki 19-asr rus adabiyotida ham tengsiz bir cho'qqi bo'lmish "Urush va tinchlik" romanini tarjima qilish bamisoli buyuk adib bilan ijodiy musobaqaga kirishishni anglatardi va bu mas'uliyatli, qutlug' ish Abdulla Qahhor bilan Kibriyo Qahhorova zimmasiga tushadi. Hamid Olimjonning bevaqt vafotidan so'ng Zulfiyaxonim uning ilhombaxsh qalamini kuchli iroda va jur'at bilan qo'lga olganiday, Kibriyo opa ham Qahhor ijodini so'nmas mehr va mas'uliyat bilan davom ettirib, "Urush va tinchlik"day monumental epopeya tarjimasini nihoyasiga yetkazish ga muvaffaq bo'ldiki, bu, shubhasiz, adabiyotimizning ham jiddiy bir yutug'i edi.

Abdulla Qahhor ta'riflaganidek, nomi hech qanday chegarani bilmaydigan, qalbi barcha xalqlarga mehr-muhabbat tuyg'usi va har qanday adolatsizlikka nafrat va g'azab hissi bilan to'la bo'lgan, buyuk siymo Lev Tolstoyning "Urush va tinchlik" epopeyasining bosh qahramonlaridan biri- Per Bezuxovdir. Bu obraz orqali adib o'zining diniy va umuminsoniy qarashlarini ham ifoda etganligi asar mazmunini benihoya kengaytirib, gumanizm g'oyalarini ham kuchaytirgan. Dalil tariqasida asarning Kibriyo opa tomonidan o'g'irilgan so'nggi to'rtinchi jildidan bir misol keltiramiz. Tarjimada o'zbek tilimizning boy imkoniyatlaridan qanchalik mohirona foydalanilganini kengroq tasavvur etish uchun quyidagi yirik bir parchani olishni lozim topdik:

"Perni ilgari qiyinagan, Per doim izlab yurgan narsa-yashashdan maqsad nima degan savol uning uchun endi yo'q edi...Uning maqsadi bo'lishi mumkin emasdi, chunki hozir uning ishonchi bor edi. Endilikda u biron qonun-qoida, so'z va yo fikrga emas, balki borlig'i hamisha sezilib turgan xudoga

ishonar edi. Ilgarilari Per xudoni oldiga qo'ygan maqsadlaridan qidirardi. Maqsadni qidirish- xudoni qidirish demak edi; biroq to'satdan asoratda yurgan chog'larida so'z bilan, fikr-mulohaza bilan emas, balki bevosita tuyg'u bilan angladiki, bir vaqtlar enagasi aytganidek, xudo mana, qarshisida turar ekan va hamma yerda hoziru nozir ekan.

Per ulug', aql yetmaydigan darajada cheksiz xudoning tajallisini ilgari hech narsada ko'ra olmas edi. Endilikda esa Per buyuk, abadiy va intihosiz narsa hamma yerda hoziru nozir ekanligini ko'ra olishga o'rgandi...

Ilgari butun fikriy nazariyalarini barbod qilgan mudhish savoldan: "Nima uchun?" degan savoldan endi qutulgan edi. "Nima uchun?" degan savolga hozir uning qalbida jo'ngina bir javob: shuning uchunki, xudo bor, bu o'sha xudoki, uning amrisiz kishining boshidan bir tola sochi ham tushmaydi, degan javob hamisha tayyor turar edi". (Urush va tinchlik, 4-jild, 246-247-betlar)

Albatta, Lev Tolstoydek ulkan san'atkorning o'ziga xos tagdor ma'no va chuqur hayotiy mazmunga boy, bunday serqatlam matnidagi zalvorli, hatto anchayin og'ir jumlar, so'z va iboralarni asliyatdagidek, aynan tarjima qilish tarjimondan qanchalik badiiy did va malaka, yuksak tafakkur va tasvirlash mahorati talab etishi- tabiiy hol. Eng muhimi yana shundaki, tarjima asliyat tili va uslubiga to'liq mos-muqobil bo'lishi bilan birga unda Tolstoyning ongi va qalbida kechgan bir umrlik iztirobli izlanishlari samarasi o'laroq, shakllangan kuchli tasavvufona ruhiyat va dunyoqarashidagi bag'riknglik ham o'zining ravshan ifodasini topa olganligiga amin bo'lamiz.

Shu munosabat bilan e'tiboringizni odamzod hayoti va qalbidagi bunday yuksak his-tuyg'ular, murakkab va ziddiyatli o'y-kechinmalarni asliyat tili va uslubidan farq qilmaydigan darajada tiniq ifodalab berish Kibriyo opaga ham qiyin, ham oson kechganligiga qaratishni istar edik. Har bir jumla va hatto

soʻz-iboralarida ham yaxlit maʼno-mazmun va rang-barang ruh aks ettirilgan buyuk yozuvchi asarini rus tilidan oʻzbek tiliga muqobil darajada oʻgirish qiyinligini tasavvur etish uchun mutaxassis- olim boʻlish shart emas.

Ammo bu jarayon "oson kechgan" degan xulosamiz koʻpchilikni taajjublantirsa kerak. Osonligi shundaki, Tolstoyning xudoni, haqiqatni izlashi va oʻzlikni anglashning mohiyati haqidagi diniy va dunyoviy tafakkur-qarashlari bilan yoʻgʻrilgan epik koʻlamdor tasvir tagmaʼnolarini his etish va ularni oʻzbek tilida mohirona ifodalashga Kibriyo Qahhorova har jihatdan tayyor boʻlganligiga shubha yoʻq.

Chunki Kibriyoxonim otalari Lutfulla mahdumning doimiy mehr-eʼtibo ri bilan 3-4 yoshidan boshlab arab-fors tillaridagi koʻplab sheʼr va hikmatlarni yod bilgan, olti yoshligidayoq Qurʼoni Karimni toʻgʻri va ifodali qiroat qilishni oʻrganibgina qolmay, koʻplab muqaddas oyatu kalimalarning maʼnolarini ham tushuntirib bera olishdek noyob qobiliyatga ham ega boʻlgan.

Hali toʻliqsiz oʻrta maktabni rosmiana bitirmagan yoshgina oʻquvchi Kibriyo xonning bunday layoqatiga hatto Sadriddin Ayniydek allomalar ham tan berishgan va uni nashriyotga ishga olishgan. Yoxud oʻrta maktabni tugatgani haqida Attestati ham boʻlmagan Kibriyoxonim bilan Sank-Peterburg (Leningrad) da gi Sharqshunoslik universitetining uchta professori suhbat oʻtkazib, uning iqtidoriga qoyil qolishadi. Suhbatda Mirzo Bedilning bir nechta mashhur ruboiylarining maʼno va badiiy xususiyatlarini ham fors, ham rus tillari da tahlil qilib berganidan ular hayratga tushadi va uni hech qanday imtihonsiz, mamnuniyat bilan 4-kursga qabul qilishadi. Boz ustiga endigina talaba boʻlgan Kibriyoxonim Sharqshunoslik institutida tayyorlanayotgan tojikcha-ruscha lugʻat tuzishda ham rus olimlariga maslahatchi boʻlib yordam beradi. Kibriyo opaning yuksak ilmiy-ijodiy salohiyatidan guvohlik beruvchi

bunday yorqin misollarni ko'plab keltirish mumkin va ularni Lev Tolstoy asarlarini tarjima qilish jarayoni bilan bog'lashimizning ham muayyan asosi bor.

E'tibor berilsa, romanda Per Bezuxovning inson hayotining ma'nosi va yashashdan maqsadi haqidagi iztirobli o'y-kechinmalari va dunyoqarashidagi o'zgarishlari tasvirida "ma'naviy durbin" iborasi ham qo'llangan. Kibriyo Qahhorova tarjimada bunday muqobil so'zlarni bejiz ishlatmagan. Ya'ni "ma'nolar otasi" deya ta'riflangan Bedilning: "Ko'zni yumgil, ko'ngling ko'zga aylansin" kabi mashhur satrlarida teran ifodalangan umuminsoniy g'oya va qarashlar Lev Tolstoyga tanish bo'lganligi va ulardan ijodiy ta'sirlanganligi adib biografiyasi va asarlari ruhidan ham sezilib turadi. Mirzo Bedil va Sa'diy kabi mashhur mutafak-kirlarning hikmatu ma'nolarga boy satrlari bilan tanglayi qotgan Kibriyo opa Lev Tolstoyning Sharq donishmandlari ta'limotiga hamohang bo'lgan bunday chuqur falsafiy fikr va holatlarini ko'tarinki bir ijodiy ruh va ixlos bilan tarjima qilgan, deb ishonch bilan aytishimizning sababi va muhim bir omili ham shunda. Qolaversa, bu- tarjimon iste'dodining ham yorqin bir qirradi edi.

Nihoyat, Abdulla Qahhor bilan Kibriyo opa ikkovlarining ham ijodiy faoliyati, tiyrak fitrati va adabiy- estetik qarashlarida (hatto ularning nutqi va odamlar bilan so'zlashuv-muomalalarida ham) muhim o'rin tutuvchi yana bir mushtarak jihat borki, bu fazilat ham hech kimni befarq qoldirmasa kerak deb o'ylaymiz. Tarixdan ma'lumki, ulug' adib va mutafakkirlar hamisha o'z milliy tillarining sofligi va ravnaqi uchun faol kurashib kelganlar va bu bilan ham o'zlarining vatanparvarlik burchlarini ado etganlar.

Qalbida Istiqlol yolqini so'nmagan Abdulla Qahhor ham ona tilimizning matonatli jonkuyarlaridan edi. Ibratli bir holat: Abdulla Qahhorning adabiyot va tanqidchilik yoxud yoshlar ma'naviyati va madaniyatiga bag'ishlangan bironta nutq yo

maqolasi yo'qki, unda adabiy tilimizning beqiyos boyligi va imkoniyatlaridan faxrlanib yozmagan yoxud uning jiddiy muammolaridan tashvishlanib, keskin fikrlar bildirmagan bo'lsin. Dalil tariqasida birgina misol keltiramiz. Mana-Abdulla Qahhorning bundan 50 yillar muqaddam Chet tillar pedagogika instituti – hozirgi Jahon tillari universitetining talabalari bilan bo'lgan uchrashuvda so'zlagan va Kibriyo opa tomonidan nashrga tayyorlangan nutqidan bir parcha: “Men studentlar bilan ko'p uchrashganman. Studentlarning dilkusho suhbatlarini bilaman. Sizlar institutni bitirgandan keyin joylarga borib o'quvchilarga ingliz, nemis, fransuz, ispan tillarini o'rgatasizlar. Mening sizlarga aytadigan eng zarur gapim shuki, sizlar boradigan joylaringga chet tillar bilan birga birinchi navbatda o'z ona tilimiz- o'zbek tiliga cheksiz muhabbat tuyg'u sini olib boringlar! O'zbek tili-g'oyat boy, nihoyat chiroyli, har qanday fikr va tuyg'uni ifoda qilishga qodir ekanini amalda ko'rsatinglar; qaerda va qanday sharoitda ishlamanglar, til madaniyatimizning mash'ali bo'linglar!..”

Bu so'zlar zamiridagi hayotiy ma'no, olijanob maqsad va tilak mustaqil O'zbekistonimizning kelajagi bo'lmish bugungi yoshlarimiz uchun qimmatli bir dasturilamal bo'lishi bilan birga, ayni vaqtda, ular buyuk mutafakkir hazrat Navoiyning shoirlarimiz o'z ona tili- “turkiyda ko'prak yozsalar edi” degan asriy orzusi ham, eng avvalo, millatimizning ma'naviy ehtiyoji va kamoloti bilan bog'liq ekanligini anglashimizga yordam beradi. Binobarin, o'zini adabiyotimiz va tilimizning “sergak va jasur posboni” deb bilgan Abdulla Qahhor ham jonajon yurtimiz va xalqimizning farovon hayoti va yorqin kelajagini, betakror milliy madaniyatimiz va adabiyotimiz taraqqiyotini boy va go'zal ona tilimiz va uning purqudratidan ayro tasavvur etolmas edi.

Abdulla Qahhorning umri so'nggida yozgan va “Voprosy literatury” jurnalida e'lon qilingan maqolasidagi fikrlari ham

bu muammoning nechog'lik muhim ekanligidan guvohlik berib turadi: "Adabiyot- bu til! Men shu vaqtga qadar biror yozuvchining tilsiz, imo- ishoralar bilan badiiy asar yaratganini eshitganim yo'q. Agar hozir mendan "Siz uchun til badiiy ijodning boshqa muammolari orasida qanday o'rin tutadi?"- deb so'rash-sa, men javob berishga qiynalaman. "Asosiy o'rinni", - deyishdan boshqa so'zim yo'q". Bu so'zlarda katta hayotiy tajriba va ko'p yillik ijodiy izlanishlar samarasi o'laroq tug'ilgan va yozuvchi hamisha qat'iy amal qilgan muqaddas ishonch va e'tiqod mujassam. Endilikda ularni Abdulla Qahhordek buyuk adibning barcha ijod ahliga qoldirgan ezgu bir vasiyati sifatida ham xotirlash va qadrlash adolatdan bo'lar edi.

Ustozlar an'analarini izchillik bilan davom ettirgan Kibriyo opa ham hamisha tilimiz haqida qayg'urib, uning rivojiga to'siq bo'luvchi salbiy holatlarni bartaraf etishda hozirjavoblik va faollik ko'rsatganligini alohida ta'kidlash lozim. Chunonchi, Navoiy, Haydar Xorazmiy va Mashrab kabi mumtoz shoirlarimizning Devonlarini nashr etishda ayrim she'r-g'azallar matnida yo'l qo'yilgan jiddiy nuqsonlarni yoxud "Sharq yulduzi", "O'zbekiston adabiyoti va san'ati" kabi nufuzli nashrlardagi chiqishlarida matnshunoslik va tarjimachilik bilan bog'liq muhim muammolarni ham yirik mutaxassis-olimlarimizdan oldinroq va o'ziga xos nuktadonlik bilan ko'rsatib berganligi ham jamoatchilikka yaxshi ma'lum.

Abdulla Qahhor singari Kibriyo opaning yoru do'stlar va shogirdlar davrasidagi suhbatlariyu jonli so'zlashuv-muloqotlari ham nafosatli va maroqli bo'lib, nodir fikrlar, obrazli iboralarga va xalqchil hazil-mutoyibalarga boy bo'lar edi. Ayniqsa, u kishi fors-tojik, o'zbek va rus tillarini mukammal bilgani uchun u yoki bu holat, yo hodisani o'sha tillardagi xalq maqollari va hikmatli so'z-iboralari bilan qisqa va lo'nda ifodalashga mohir edi.

Masalan, aksariyat ijodkorlar kabi Abdulla Qahhor ham har kuni deyarli bir vaqtda yozuv stoliga o'tirishga odatlangani va kechalari ko'p ishlamasligini eslar ekan, "Kori shab- xandai ro'z" (ya'ni kechasi qilingan ishga kunduzi kulasan) iborasidan foydalangani ham yozuvchilik mehnatining mas'uliyati haqidagi fikrini ta'sirchan va ma'nodor qilib ifodalashiga yordam beradi.

Kibriyo opa donolarning "Har suxan joyu, har nuqta makon dorad" (ya'ni har so'zning o'rni, har nuqtaning makoni bor) degan o'gitiga hamisha qat'iy rioya etardi. Chunonchi u kishi ba'zi noshud, sergap keksalarning "Qariganingdan keyin ahvoling shu ekan: tinka-madoring qurib, hali u yering, hali bu yering og'rib, ko'rpa-to'shak qilib yotaverar ekansan..." deb, ertayu- kech nolib, oh-voh qilib yurishlarini takrorlab o'tirmasdi. Balki bunday holatlarni "Etmish- ketmish", "Haftod-afttod" yoki "Starost- ne radost" kabi ixcham iboralar bilan muxtasar va lo'nda qilib tushuntirib qo'ya qolar va doimo suhbatdoshining vaqti- e'tiborini qadrlar edi. Bunday xarakterli va ibratomiz misollarni Abdulla Qahhor bilan Kibriyo opaning hayoti va rang-barang ijodidan, qolaversa, ularning barhaayot xotiralari va yon daftarlaridagi mo'jaz qaydlaridan ham ko'plab keltirish mumkin.

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, Abdulla Qahhor va Kibriyo opa singari adib va mutarjimlarning tilimiz rivojidagi munosib xizmati va jonkuyarligi, ayniqsa, o'zbek tili mustaqil jumhuriyatimizning Davlat tili bo'lgan va milliy tilimiz ravnaqi yo'lida jonbozlik qilish-har bir ziyoli-ijodkorning yuksak fuqarolik burchiga aylangan hozirgi paytda yanada muhim ahamiyat kasb etadi. Chunonchi, taniqli adabiyotshunos va tarjimon Ibrohim G'afurov Abdulla Qahhorning birgina "O'tmishdan ertaklar"<sup>18</sup> qissasining tanqidiy matnidagi ko'plab

<sup>18</sup> Abdulla Qahhor. O'tmishdan ertaklar. Tanqid matn. Tayyorlovchi Otabek Jo'raboev, T, 2011.

nodir soʻzlar va istilohlar yozuvchining sanʼatkorligi tufayli chuqur hayotiy haqiqatni ifodalagani va ularda xalqimizning asriy turmush tajribasi va donishmandligi badiiy aks etganligini teran tahlil qilib, muhim bir muammoga eʼtibor qaratadi:

“Yoʻqolib borayotgan minglab noyob soʻzlarimiz haqida kim qaygʻuradi?”<sup>19</sup>

Bu soʻzlarning asl maʼno-qiymati, gʻoyoviy-estetik ahamiyatini anglash tafakkur va idrokimizni, maʼnaviyatimizni qanchalar boyitishi mumkin. Zotan, oʻzbek tilini xalqimizning bebaho boyligi va sanʼatkorlarining tengsiz quroli deb bilgan va har bir soʻzga zargarona munosabatda boʻlgan talabchan va hassos ustozlarning bu sohadagi serqirra faoliyati va unutilmas saboqlari ham zukko kitobxonlarimiz va ayniqsa, yosh ijodkorlar uchun oʻziga xos bir ijodiy maktab boʻlib xizmat qilishiga shak-shubha yoʻq.

## MIRTEMIR VA ZULFIYA SHEʼRIYATIDA ONA SIYMO SI

Qadimgi adabiy-tarixiy manbalarda, jumladan, koʻplab ibratomuz Hadislarda onalar tabarruk zot sifatida hamisha ulugʻlangan va inson kamolotida ularning oʻmi beqiyos ekanligi yakdillik bilan eʼtirof etilgan. Jahon adabiyotida, xususan, koʻp asrli oʻzbek adabiyotida ham ayol-ona siymosi alohida oʻrin tutadi. Hazrat Alisher Navoiy singari daho sanʼatkorlarimiz tomonidan gʻoyat yuksak ehtirom va mahorat bilan yaratilgan ayollar timsollari dunyo xalqlari adabiyotining ham eng yorqin va zarofatli sahifalarini tashkil etishi shubhasizdir. Ming yillar davomida yaratilib, boyib va sayqallanib kelinayotgan bu qutlugʻ adabiy anʼana XX asr oʻzbek adabiyotimizda ham

<sup>19</sup> I. Gʻafurov. Charx odamlari.-Abdulla Qahhor: shaxs va ijodkor. «ʼamaddun» T, 2013, 67-b.

hayotbaxsh va ilhombaxsh bir mavzu sanaladi. Bu jihatdan, ayniqsa, zabardast shoirlarimiz- Mirtemir va Zulfiya she'riyati va ulardagi g'oyaviy-badiiy mushtaraklik alohida o'rganishga munosibdir.

She'riyatimiz bobodehqoni bo'lgan Mirtemirning xotin-qizlarga va mushfiq onalarga bag'ishlangan va adabiyotimizning oltin xazinasidan o'rin olgan "Onaginam" singari mumtoz bitiklari jamlansa, salmoqli bir majmua- kulliyot bo'ladi. Eng muhimi, ularda ayol-u onajonlarning o'tmishdagi ayanchli qismati ham, qullik va tullikda kechgan fojeali taqdidan qutulib, erk va tenglikka erishgan saodatmand kunlari ham haqqoniylik va xalqona soddalik bilan tasvirlanganki, ularni hech ikkilanmay, onalarga bag'ishlangan yaxlit bir doston-qasida deya ta'riflash mumkin. Chunonchi, "Onajonlar" she'rida ana shu tarixiy haqiqatning shoirona yuksak badiiy ifodasini ko'ramiz:

*...Emish: ayol erga cho'ri, qul, banda,  
Qafaslarda qoldi go'yo parranda.  
"Ojiz maxluq, dedi, tuting kishanda!"  
Na bo'htonlardir, na bo'htonlar...*

*Na xush davron keldi, o'zga hol o'ldi,  
"Ayol- odam!" so'zi zab maqol o'ldi.  
Badgumonlar sharmisoru lol o'ldi.  
Ayol- bu hayotga xo'b jamol o'ldi.*

Keyingi misralar ham Mirtemirning hayotni qanchalar chuqur bilishi va xotin-qizlarning qadri-qimmatini, baxtu kamolini oldindan ko'ra olishidan, ya'ni uning poetik iste' dodi va tafakkuri kengligidan yorqin dalolat beradi:

*Elimning qizlari mashhur jahonga,  
Ordenlari yorug' sochar osmonga,*

*Teng ega- davlatga, yerga, xirmonga,  
Teng ega, teng sohib- baxtga, davronga,  
Teng insonlardir, teng insonlar...  
Ayol – bu hayotda to'lin oysimon,  
Do'stimizsan mushkullarda begumon.  
Farzandi-dilbandga esa mehribon  
Onajonlardir, onajonlar...*

Mirtemirga xos bo'lgan bunday xalqona soddalik va milliylik shoirning boshqa she'r va dostonlariga ham chuqur hayotiylik va teranlik bag'ishlaydiki, dalil tariqasida quyidagi misolni ko'zdan kechiraylik:

*-Alisherga alla aytib uxlatgan Sen – ona.  
Og'ushida Bobur kamolga yetgan Sen – ona.  
Torobiyni og'ir jangga jo'natgan Sen – ona.  
Olamni nurida munavvar etgan Sen – ona.  
Yig'lasa, dunyoni raso titratgan Sen – ona.  
Kulgisi saodat parvarish etgan Sen – ona.  
Daholar beshigin bedor tebratan Sen – ona.  
Mehri bahorida elni yashnatgan Sen – ona.  
Onaday oshiq yo'q ona-Vatanga, Muhtaram ona...*

Ayollarning – o'zbek onalarining cheksiz muhabbati va fidoiyligini, ko'zlarining yoshi bilan dunyoni titrata olishiyu mehrining tafti bilan el-yurti yashnata olishidek beqiyos yaratuvchanlik qudratini qisqa bir she'rda bu qadar teranlik va sharqona donishmandlik bilan go'zal va musiqiy tarzda ifodalay olish – o'ziga xos bir poetik kashfiyot deyilsa, mubolag'a bo'lmaydi. Buning uchun, albatta, Mirtemirday xalq hayoti va ruhiyatini, mushtipar va g'amdiyda o'zbek ayollarining qalb kechinmalari va ularning iroda bardoshi nimalarga qodir ekanligini chuqur hamdardlik bilan his eta oladigan va ularni o'quvchi ga "yuqtira oladigan" dilto'rtar shoirlik iste'dodi talab etiladi. Shuni ham ta'kidlash lozimki, millat va xalq hayoti, uning yashash tarzi va orzu-armonlarini chuqur bilish va

yurakdan tuyish qanchalik muhim bo'lsin, bular hali san'at asari yaratish uchun yetarli emas. Binobarin, ana shu hayot va ruhiy o'y-kechinmalarni muayyan shaxs taqdiri va timsoli orqali haqqoniy aks ettira olishgina chinakam ijod namunasi bo'lishi mumkin. Mirtemir talanti va poetik mahoratining yorqin bir jihati ham mana shunda namoyon bo'ladi. Jumladan, "Norbuvi" she'rida turmush o'rtog'i urushdan qaytmagan va uni kutishdan umidi so'nmagan oddiy bir qishloq ayolining sokin daryo misol qalbida kechgan unsiz dard-iztiroblarini mohir rassomdek ko'z oldimizda gavdalantiradi va bu og'ir tuyg'ular bizning ham ko'nglimizni chulg'ab oladi, hayot haqida jiddiy o'ylashga undaydi:

*Bir kez Norjon derdik, hozir Norbuvi,  
Ermagi nevara, ermagi hovli,  
Shu-da qadimlardan ersizlar qavli,  
O'choqboshi, urchuq, sumalak, kuvi.  
Lekin ko'zlar yo'lda, dovonda hali,  
Hali ham xos kosa, osh suzsa- ulush,  
Hali ham uyg'onar sahar ko'rib tush,  
Choponu belbog'i jovonda hali...*

Mana insoniyat boshiga misli ko'rilmagan dard-musibatlarni yog'dirgan va millionlab odamlarning yostig'ini quritgan, millionlab yosh go'daklarni yetim, yosh ayollarni beva qoldirgan dahshatli urushning sira bitmas jarohatlarining yana bir iztirobli manzarasi. Shu o'rinda beixtiyor Zulfiyaning dunyo xalqlari va musibatdiya ayollarining orzu va armonlari ifodalangan va yuksak umuminsoniy tafakkur va tuyg'ular bilan yo'g'rilgan "O'g'lim, sira bo'lmaydi urush" she'ridagi mashhur satrlari xayolimizda jonlanadi:

*.. Urush! Noming o'chsin jahonda,  
Hamon bitmas sen solgan alam.  
Sen tufayli ko'p xonadonda  
Ota nomli buyuk shodlik kam!*

XX asrning eng mash'um tarixiy voqeasi bo'lgan, 45 milliondan ortiq kishining yostig'ini quritgan, millionlab norasida go'daklarni ota-onasidan judo qilib, yetim qoldirgan, millionlab kishilarni umrbod majruh- nogiron qilgan va necha yuzlab shaharu qishloqlarni vayronaga aylantirgan Ikkinchi jahon urushining dahshatli kechinmalari va fashizm halosining mudhish asoratlari insoniyat yodidan to'ab o'chmaydi. Elimizning ardoqli shoirasi Zulfiyaning "O'g'lim, sira bo'lmaydi urush" nomli she'ri ham dunyo xalqlari va musibatdiyda insonlar qalbida aks- sado berib turganligi ayni haqiqat:

*Bas, bas, ezgu onalar qalbi  
Yashay olsin bexavf, baxt bilan...*

*Ko'krak suti va mehnat bilan  
Biz jahonga berganmiz turmush,  
Ona qalbi oyoqqa tursa,  
O'g'lim, sira bo'lmaydi urush!*

Urushning bitmas alam- izzatlarini teran aks ettirgan bunday nodir asarlar kishilarni hamisha ogohlikka da'vat etishi bilan birga, ayni vaqtda, bugungi tinch va faravon hayotimizni qadrlashga va uni saqlash uchun hamjihatlik va sobitqadamlik bilan kurashishga chorlashi bilan yanada e'zozli va ahamiyatlidir.

Bunday she'rlarning badiiy-estetik ahamiyati ularda ikkinchi jahon urushining dahshatli fojealari haqqoniy tasvirlanganligi bilangina belgilanmaydi. Ayni vaqtda, ularda Mirtemir va Zulfiyaning davr voqea- hodisalarining mazmun-mohiyatini chuqur falsafiy idrok etishlari va poetik talqin etishlaridagi jo'rovozlik va hamohanglik ham bu asarlarning g'oyaviy va hayotiy ta'sirchanligini oshirganligini anglash mumkin.

Shuni ham ta'kidlash o'rinliki, har ikki shoir ijodidagi bunday g'oyaviy-poetik mushtaraklikni ularning asarlaridagi

mavzuning yaqinligi bilangina izohlash bir tomonlamalik bo'lar edi. Aslida, ular ijodida g'am-anduh motivlarining yetakchi o'rin tutishi va mahzunlik ohanglarining kuchliligi bu ijodkorlarning shaxsiy hayotiy kechinmalari va qalblaridagi og'riqli nuqtalar bilan uzviy bog'liq ekanligini unutmasligimiz lozim.

Darhaqiqat, Mirtemirning fidoiy va jafokash onasiga bag'ishlab yozgan, o'g'illik qarzlar va armonlarini chuqur ifodalagan "Onaginam" she'ri singari Zulfiyaning ham ko'plab she'r va dostonlari uning shaxsiy g'am-anduhlari bilan yo'g'rilganini ta'kidlash lozim.

"Ko'p bilib, kam yozish" muqaddas shiori bo'lgan Zulfiyaning ilk to'plami "Hayot varaqlari" (1933 y.) bilan so'nggi yillardagi ham mazmunan, ham shaklan ko'rkam she'r va dostonlari xayolan taqqoslansa, shoiraning murakkab ijodiy yuksalish yo'llari qanchalar samarali va ibratli bo'lganligiga amin bo'lamiz. Fikrimizning dalili sifatida Zulfiyaning birgina "Mening mehribon onaginam" she'rini eslaylik. Jahon adabiyotida, jumladan, o'zbek she'riyatimizda ham bu qutlug' mavzuda necha yuzlab asarlar yaratilgan. Ammo Zulfiyaning ushbu she'ri nafaqat mazmun- ruhiyatining milliyliigi, boyligi va teranligi bilan, balki poetik tashbeh-tamsillarining originalligi bilan ham ajralib turadi. Darhaqiqat, quyidagi quyma satrlarni faqat "poetik mahorat natijasi"- deya, baholash bamisoli daraxt ortidagi o'rmonni ko'rmaslikday umumiy bir xulosa bo'lar edi:

*"Tizlaringda yotgan qo'llaring charchog',*

*Hordiq olarmikan qalb-la silasam,*

*Oppoq sochlaringga qora ko'zimning*

*Minnatdor nurini qilolsam taroq...*

*Bir umrlik yo'lda kechib, ko'rganing*

*Zarrasi madhiga yetarmi kuchim!...*

*Sen so'nggi nidomsan jon berar palla"...*

Zulfiya siymosidagi donishmand inson, Zulfiyadek sadoqatli farzand va mu'tabar ona-shoiragina bitishi mumkin bo'lgan bu

misralar zahiridagi umuminsoniy tuyg'u-ma'nolarni anglash, tuyish va ularni qalbdan kechirishdek saodatmandlik baxtini zikr etuvchining did-saviyasiga havola etib, bu o'rinda bir kuzatishimizni aytish bilan cheklanamiz: Onalar chekkan zahmatni, cheksiz mehr va fidoyilikni bu qadar tabiiy, samimiy va teran misralarda ifodalay olish dunyo she'riyatida ham kamyob hodisa...

Shoiraning bunday hayotiy teranlik va yuksak insoniy dard bilan yo'g'rilgan fashat li she'riyati bugun nafaqat yurtimiz bo'ylab, balki ko'plab dunyo xalqlari qalbida ham aks- sado berayotgan ekan, bu baxtli qismatning asosiy sabab- manbai ham, eng avvalo, Zulfiyaning o'zligida, uning yorqin shaxsiyati va yuksak e'tiqodida deyilsa, xato bo'lmas. Zero, mutafakkirlar ta'kidlaganidek, "shoir ijodiy faoliyatining manbai uning shaxsida ifodalangan ruhidadir. Binobarin, shoir ruhini va uning asarlari xarakterining dastlabki izohini uning shaxsidan qidirmoq kerak" (V.Belinskiy).

Shu munosabat bilan mashhur shoirimiz Erkin Vohidovning ijodkor shaxsi haqidagi quyidagi fikri e'tiborga molikdir: "Zulfiyani shoir qilgan o'z dardli qismati va bu dardli qismat haqidagi samimiy va ehtirosli nidosi... Uning mehr va sog'inch bilan to'lg'an misralari judolik dardida o'rtangan necha ming yuraklarga malham bo'lganini, necha ming ko'ngil daftariga ko'chirilganini xayol qilmoq kerak..." Erkin Vohidovdek nuktadon mutafakkir shoirimizning bu so'zlarida yorqin iste'dod, ulkan insoniy qalb va dard, ijodiy jasorat va yuksak poetik mahorat mujassami bo'lgan Zulfiya she'riyati va shaxsining ajralmas, yaxlit bir olam ekanligi haqqoniy inkishof etilgan. Hassos adabiyotshunos Ibrohim G'afurov ham go'yo ushbu teran fikrlarni davom ettirgandek, bizni Mirtemir va Zulfiya shaxsini, qalbining tubsizligi va she'riyatining javhari, ya'ni "poetik o'q ildizi"ni chuqurroq anglashga undaydi:

“Dunyoda so‘zlab emas, chin ma’noda bo‘zlab she’r aytgan ikki shoirni bilaman: biri Mirtemir, ikkinchisi Zulfiya...”<sup>20</sup> Nuktadonlik bilan aytilgan bu xulosaga fikran qo‘shilgan holda, qisqa bir izoh berib o‘tishni lozim topamiz.

Avvalo, Alisher Navoiyning Said Hasan Ardasher va Abdurahmon Jomiy vafotiga bag‘ishlangan ezgin misralarini va Boburning ko‘z yoshlaridan nam bo‘lgan, nola-yu afg‘on to‘la she’rlarini yodga olaylik. Navoiyning el uchun chekkan unsiz faryodlari, yig‘lab bitgan asarlarida buyuk shaxs va ijodkorning qalb iztiroblari ham aks etmaganmi va ular bizni larzaga solmaganmi? Shuningdek, Qozim Mechiev va Avetik Isaakyanning Vatan va ona sog‘inchlarini kuylovchi yoxud Anna Axmatova va Olga Bergolsning judolik dardlarini aks ettirgan asarlari, yoki ikki navqiron akasi va onasidan, Qaysin Qulievday benazir do‘stu- og‘asidan ayrilgan Rasul Hamzatov armonlari kuylangan she’r doston lar-chi? Betakror shoir va inson Abdulla Oripovning farzandlik armon-o‘kinchlarini ifodalagan, “Makonda lomakonsan, endi qaydan izlagaydurman...” satrlari bilan boshlangan shikasta misralari ich-ichdan bo‘zlab yozilganligini diydasi qattiq o‘quvchi ham tasavvur eta oladi. Bular, qolaversa, Said Ahmad va Saida Zunnunovaning mungli bitiklari ham jahon adabiyotining porloq sahifalari ekanligi ko‘pchilikka ma’lum.

Ammo haqiqat haqiqatligicha qoladi: Mirtemir va Zulfiyadek ulkan siymolar boshidan kechirgan dard-sitam, hijronu-alamlar “tog‘day zil, abadiyatday cheksiz armon” bo‘lganiday, ularning ijodi, nolalari ham o‘zlariga xosligi, purhikmat va betakrorligi aslo shubha uyg‘otmaydi. Zero, “Zulfiya o‘z mashhur asarida mushoira chodiri ichiga oyoqlarini yechib kirganlarini tasvirlaydi. Shoiramiz dunyo she’riyati ehromiga qalbining musaffo, tiniq shaffof ziyosi bilan kirgan edi. U

<sup>20</sup> Ibrohim G‘ofurov. Mangu Latofat. – Toshkent: 2008, 236-b.

hayotda ham doimo shunday pokiza ziyo kabi yashadi". Bir umr pokiza iymon bilan yashab, butun hayoti va iste'dodini el-yurtiga bag'ishlagan, millionlab qalblarga ezgulik ziyosini taratgan va hurriyatni intiq-intizor bo'lib kutgan Mir temir va Zulfiyadek ijodkorlarimizning "jo'shqin va zabardast ovozi" o'zlari bashorat qilganlariday, ozod va obod diyorimizda mangu yangrab tursa- ne ajab!

## UNUTILMAS SIYMO

### Usmon Nosir ijodiga bir nazar

Adabiyotimiz osmonida chaqmoqdek charaqlab namoyon bo'lgan va qisqa umr ko'rsa-da, o'zining noyob iste'dodi bilan ijod olamida o'chmas iz qoldirib ketgan yorqin siymolardan biri - Usmon Nosir edi. Namangan shahrida kambag'al kosib Mamatxo'ja oilasida tug'ilgan Usmonning bolaligi xuddi G'afur G'ulom va Hamid Olimjonlarning hayoti singari g'oyat qiyin kechadi. G'am- g'ussaga to'la bu alamli yillar haqida Usmon Nosir keyinchalik yozgan "Kechmish kunlarim" nomli avtobiografik manzumasida aimon bilan shunday eslaydi:

*Men o'ksib tug'ildim,*

*Bir kosib otadan,*

*Bir g'arib onadan...*

*Turmush qiyindi*

*Bizdek ko'plarga.*

Chorizm mustamlakasiga aylangan butun Turkiston o'lkasida o'sha yillari hukm surgan qashshoqlik va dahshatli ochlik minglab odamlarning yostig'ini quritadi va necha minglab oilalarni xonavayron qiladi. Mazlum xalq boshidan kechirgan og'ir ekspluatatsiya, erksizlik va xunrezliklar XX asr boshlarida yaratilgan ko'plab realistik asarlarda haqqoniy aks ettirilganligi

Mustaqillikka erishganimizdan so'nggina keng jamoatchilikka ayon bo'lmoqda. Binobarin, Cho'lponning "Qip-qizil qon bo'lib kunlar botadir, Yomon hidga to'llib tonglar otadir" satrlari zamirida xalqning unsiz iztirob-nolalari ham ifodalangan edi. Jafokash xalqimizning bu fojeali o'tmishi Usmon Nosirning ham bir qator she'r va dostonlarida chuqur hamdardlik bilan tasvirlanganligini ko'rishimiz mumkin. Chunonchi, "So'zla, tarix – chol" deb nomlangan she'rida ikkiyoqlama zulm iskanjasida yashagan erksiz va huquqsiz xalqning ayanchli qismati keksa Tarix tilidan chuqur ifodalanadi:

*"Men-qari, Men ko'rdim*

*Uzoq yillarni,*

*Tingladim nolalar*

*Tori- qillarni.*

*Bu yerda so'lganlar,*

*O'lganlar ko'rdim.*

*Bu yerda qon yig'lab*

*Qullar o'tdilar*

*Ko'kragi qurigan*

*Tullar o'tdilar...*

*Bu yerda yuksaldi*

*Nola, fig'on, zor,*

*Bu yerda tug'ildi*

*Dard bilan ozor.*

*Bu yerda o'ynadi*

*Zulm qamchisi...*

Mustamlakachilik siyosati avj olib, mehnatkash xalq qullarcha yashashga mahkum etilgan suronli yillarda otadan yetim qolgan to'rt yashar Usmon onasi Xolambibi bilan yanada nochor ahvolda qoladi. Namanganlik kosibning chevar qizi bo'lgan Xolambibi eri vafotidan so'ng (1916-y) boylar xonadonida xizmatchi bo'lib, kir yuvib, arang tirikchilik o'tkazadi va norasida Usmonni ulg'aytiradi. Usmon ham to'qqiz yoshigacha boylar xonadonida turli yumushlarni bajarishga, hatto gadolik qilishga ham majbur bo'ladi. Mushtipar onasining kechalari aytib bergan xalq dostonlari va ertaklari yosh Usmonga taskin berishi bilan birga uning murg'ak qalbida xalq og'zaki ijodiga va adabiyotga havas va muhabbat uyg'otadi. 1921-yili Xolambibi farzandining kelajagini o'ylab, o'zi xizmatini qilib yurgan Qo'qonlik savdogar Nosir hojining qistovi bilan unga turmushga chiqadi va oz o'tmay, ular Qo'qonga ko'chib

keladi va shaharning "Beshariq" ko'chasida yashaydi. Afsuski, johil o'gay ota qo'lida yosh Usmon ham, bechora onasi ham ro'shnolik ko'rmaydi, aksincha, ular qismati og'ir kechadi. Onasiga bag'ishlangan "Oq yuvib, oq tarab" nomli dastlabki she'rlaridan birida o'sha achchiq turmushning jabru-sitamlari ham bayon etilgan.

Nihoyat, 1921-yili Usmon Qo'qonda yetim va kambag'al bolalar uchun ochilgan 3-sonli maktab-internatga o'qishga kirib, bu xoru zorliklardan qutiladi. U yaxshi o'qishi bilan birga Adabiyot to'garaklarida faol qatnashib, 14-15 yoshidan she'r va maqola yozishni boshlagan. Usmonning dastlabki she'riy mashqlarini ko'rib, uning iqtidorini payqagan o'qituvchilari uni Hamza Hakimzoda Niyoziy bilan tanishtiradi va bu uchrashuv bo'lajak shoir taqdirida muhim ahamiyat kasb etadi. Dastlab internatning "Bizning ko'zgu" nomli gazetasida e'lon qilinib turgan Usmonning she'r va maqolalari tez orada Qo'qon va Farg'onadagi "Yangi Farg'o na", "Yangi yo'l" va "Er yuzi" kabi gazeta va jurnallarda ham chop etila boshlaydi.

1929-yili Qo'qon o'rta maktabini bitirgan bir guruh a'lochi o'quvchilar safida Usmon Nosir ham Sank-Peturburg (Leningrad) va Moskva shahriga ekskursiyaga boradi. Bu o'quvchilar Putilov nomli zavod ishchilariga konsert qo'yib berishadi va kechada yosh Usmon ishchilarga bag'ishlab yozgan she'rini o'qib beradi. Bularning barchasi unda o'ziga bo'lgan ishonch va mas'uliyat tuyg'usini oshiradi. 1929-1930 o'quv yili endigina 17 yoshga kirgan Usmon Qo'qon shahridagi Ta'lim-tarbiya kursida ilmiy mudir va o'qituvchi bo'lib faoliyat boshlaydi.

1930-yili Usmon Nosir shoir Temur Fattoh bilan birga Moskvadagi Kinematografiya instituti (VGIK)ning ssenariya fakultetiga o'qishga kiradi. Ammo xastaligi tufayli bir yildan so'ng yana Qo'qonga qaytib, o'qituvchilik bilan shug'ullanadi; ayni paytda, adabiyot va muxbirlar to'garaklarini ochib, ularga o'zi rahbarlik va g'amxo'rlik qiladi.

1932-yilning kuzidan boshlab Usmon Nosir Samarqanddagi Pedakademiya (hozirgi SamDUning) filologiya fakultetida o'qiydi. Abdurauf Fitrat, Sadriddin Ayniylardek ustoz adib va allomalar saboq bergan bu muqaddas dargohda u bilan birga Hasan Po'lat, Amin Umariy, Adham Hamdam, Nasrullo Davron va Hakim Zohidiy kabi ijodkorlarning ham tahsil olishi qizg'in adabiy va ilmiy muhitni yuzaga keltiradi. Talaba Usmon Nosirning "Bobomning falsafasi", "Yoshlik" va "Bodom gullagan kechasi" kabi dastlabki she'rlari Pedakademiyaning va Samarqand viloyatining ro'znomalarida bosilib chiqadi. Shu yillari Usmon Nosir yaratgan yangi she'r, hikoya, ocherk va maqolalari Qo'qon va Farg'onadagi gazetalarda ham muntazam nashr etib turilganligi uning ijodiy izlanishlari rang-barang va samarali bo'lganligidan yorqin dalolat beradi.

Usmon Nosirning sobiq Ittifoqning ko'plab yirik shaharlarida, jumladan, Kavkaz o'lkasida, Ozarbayjon, Armaniston va Gurjistonning tarixiy va zamonaviy shaharlarida bo'lishi va u yerlardagi xalqlar hayoti va madaniyatini o'ziga xos shoirona nigoh va chuqur mushohadakorlik bilan o'rganishi uning badiiy-estetik tafakkuri va dunyoqarashini kengaytirib, unga yangi mavzu va ijodiy ilhom bag'ishlaydi. Binobarin, "Xayr, Sevan", "Charens", "Tiflis oqshomi", "Yo'lchi" va "Dengizga" kabi turkum she'rlari va "Naxshon" dostoni bevosita ana shu unutilmas safar taassurotlari natijasida yaratilgandir.

Ushbu asarlar Usmon Nosirning ilk she'rlari kabi xilma-xil mavzuda bitilgan va g'oyaviy-badiiy saviyasi jihatidan ham turli darajada ekanligi tabiiy hol. Shuningdek, ularning g'oyaviy mazmuni hukmron sotsialistik mafkuraning tazyiq va talablaridan, ya'ni o'sha davrga xos sun'iylik va madhiyabozliklardan ham holi emasdi. Ammo ularga xos mushtarak bir xususiyat ko'zga yaqqol tashlanib turadi: ya'ni ularda jo'shqin qalbli yosh shoirning ijod dardi va yoniq orzulari, chuqur hayotiy falsafasi o'zining poetik ifodasini topgan:

*Yo'lchiman, manzirim dengizdan nari,  
Ko'nglimda dardlarim daryodek oqin,  
Murodga qasd qilib yugurgan yetur,  
Bo'ronni sevmasa, dil nechun tepur?  
Tiriklik ne kerak bemehnat, beg'am?..*

Ana shu ezgu maqsad yo'lida mardona kurash shoirning hayotiy dasturi, yashash mazmuniga aylangandi. Ko'nglida baliq va dardi daryodek jo'shqin, shoirona ilhomi seldek bo'lgan Usmon Nosirning o'ziga xos iste'dodi haqida atoqli shoirimiz Ekin Vohidov hayrat bilan shunday yozadi: "Iste'dod shunday bir gavharki, u dengiz tubida, sadaf ichida ham-gavhar, iste'dod shunday bir zilol irmoqki, uning har qatrasida daryolarning qudrati, ummonlarning teranligi bor. Usmon Nosir iste'dodi ana shunday gavhar, ana shunday irmoq edi..."

Bu nodir iste'dodning shakllanishi va kamol topishida ko'p asrli mumtoz adabiyotimiz bilan birga rus va jahon adabiyotining ilg'or an'analari muhim bir omil bo'lganligini ta'kidlash lozim. Buyuk so'z san'atkorlari ijodidan ta'sirlangan va ularning hayotbaxsh an'alarini novatorona davom ettirgan Usmon Nosir she'riyatning asl mohiyati va ijtimoiy-estetik maqsadini xalqqa va ona-yurtiga xizmat qilishda deb biladi:

*Lirikam mening,  
Yuvgan, Taragan,  
Qaragan yurtning  
Xizmatin qilishlik  
Vazifang sening*

Darhaqiqat, Usmon Nosir jonajon yurtimiz va xalqimizning sadoqatli bir farzandi sifatida o'zining butun ongli hayoti, haroratli qalbi va iste'dodini ona- Vatanga va uning ulug'vor ishlariga bag'ishlagan edi. Shoirning "Yurak" nomli she'ri bugun ham chinakam vatanparvarlik va fidoyilikning go'zal bir ifodasi bo'la oladi:

*Itoat et,  
Agar sendan  
Vatan rozi emas bo'lsa,  
Yoril, chaqmoqqa aylan sen,  
Yoril, mayli, tamom o'lsam!"*

Usmon Nosir adabiyotning deyarli barcha tur va janrlarida muvaffaqiyat bilan qalam tebratdi. Shoirning "Traktorobod", "Quyosh bilan suhbat", "Safarbar satrlar", "Yurak" va "Mehrim" kabi to'plamlaridagi ko'plab she'rlar o'zining g'oyaviy-badiiy mazmuni va yorqin lirik qahramonlari bilan 30-yillar o'zbek adabiyoti rivojiga munosib hissa bo'lib qo'shildi. Uning "Norbo'ta" va "Naxshon" kabi dostonlari yangi davr o'zbek poemachiligining yetuk namunalari qatorida o'quvchilar e'tiborini tortadi.

Usmon Nosir o'zbek adabiyoti uchun nisbatan yangi janr bo'lgan dramaturgiya sohasida ham ijod qilib, "Zafar", "Nazirjon Xalilov", "Dushman" va "Atlas" nomli bir nechta dramalar ham yaratgan. Ulardan ayrimlari 30-yillar boshida sahnalarda qo'yilgani uning zamondoshlari tomonidan bitilgan zarif xotiralarda ham alohida e'tirof etiladi.

Usmon Nosir iste'dodining yorqin bir qirrasini uning tarjimonlik faoliyatida yaqqol namoyon bo'lgan edi. Shoirning Firdavsiy va Shekspir kabi daho san'atkorlar she'riyatidan qilgan tarjimalari, Pushkinning "Bog'chasaroy fontani", Lermontovning "Demon" kabi mashhur dostonlarini mohirona o'zbek tiliga o'giranligi uning ijodiy salohiyati nechog'lik ulkan bo'lganligidan guvohlik berib turadi. Shu munosabat bilan tarixiy bir faktni keltirish maqsadga muvofiq bo'lar edi: 1937 yil 26 mayda "Literaturnaya gazeta"da Usmon Nosir va Hamid Olimjonlarning "Pushkin na uzbekskom yazыke" sarlavhali maqolasi e'lon qilingan. Ushbu maqolada dunyo adabiyotining buyuk siymolari asarlari o'zbek tilimizga tarjima qilinganligi va tilimizning naqadar boyligi va bu tilda jahon adabiyotining

eng yuksak namunalarini tarjima qilish mumkinligi faxr bilan ta'kidlangan. Zotan, ular 30- yillardayoq o'zlarining mumtoz tarjimalari bilan ham bu haqiqatni to'la isbot qilib berdi.

Ming afsuski, betakror iste'dodi va jo'shqin ijodi barq urib turgan Usmon Nosir ham ulug' ustozlari – Cho'lpon, Fitrat va Qodiriylar bilan birga yovuz imperiyaning mustamlakachilik siyosatining qurboni bo'ldi. Hukmron mafkuraning qattolclastyorlari Usmon Nosir she'rlaridan siyosiy xatolar topib, shoirni mutlaqo asossiz ravishda ayblashdi. Masalan, shoirning quyidagi satrlarini ham siyosiy xato deb, uni qoralashgan:

*Yo'lchiman, manzilib ufqdan nari*

*Lojuvard dengizning tubiga yaqin.*

Ya'ni "lojuvard dengizning tubida Amerikani nazarda tutyapti" degan ayblovlardan bugun yoqa ushlaymiz. Yoki

*She'rim, yana o'zing yaxshisan,*

*Boqqa kirsang gullar sharmanda.*

misralarini ham buzib talqin qilishadi va yana shoirni siyosiy xato qilganlikda ayblashadi: Sovet gullari Usmon Nosir she'rlaridan xunukmi? Sovet gullari sharmandami? Sovet shoiri nega saharda qon tupuradi? Bu sovet mamlakatiga tuhmat va hokazo deb, uni ham "Xalq dushmani", "Sovet tuzumiga qarshi" degan tuhmatlar bilan 1937 yil qamashadi.

Abdulla Oripov haqli ravishda yozganidek, mash'um siyosat tufayli xalqimiz necha o'nlab yorqin iste'dodlaridan bevaqt ayrildi. Ularni hamisha iztirob bilan yodga olamiz. Ular nafaqat betakror ijod sohiblari, balki xalqimiz va vatanimiz erku ozodligi yo'lida mardona kurashgan Istiqlol fidoyilari edi.

Mash'um zamon Usmon Nosirni 25 yoshida oramizdan yulib olib ketmaganida va yosh umri olis Magadan va Kemerovo qamoqxonalarida xazon bo'lmaganida, u yana qancha go'zal asarlar bilan adabiyotimizni va ma'naviyatimizni boyitishi mumkin edi. Nohaqlik jabru-sitamlari va tahqir azoblaridan xastalangan shoirning o'lim lagerlarida yozgan she'rlari va iltijo bilan bitgan maktublari ham uning metindek iroda-

bardoshidan va so'nggi daqiqalargacha Adolatga, yorug' kunlar kelishiga umidi so'nmaganligidan guvohlik beradi. U bor-yo'g'i o'n yil ijod bilan shug'ullandi, ammo shu qisqa fursatda nomini abadiylikka muhrlab keta olishdek baxtga musharraf bo'ldi. Shoir o'zi chuqur ishonch bilan bashorat qilganidek:

*Bargdek uzilib ketsam,  
Unutmas meni bog'im.  
Ishimni hurmat qilur,  
Gullardan haykal qurur,  
Ming yillardan keyin ham  
She'rlarim yangrab qolur*

Ha, ona- Vatanni va she'riyatni jon-dilidan sevgan, qalbida Istiqlol yolqini barq urib turgan Usmon Nosirday yorqin iste'dod sohiblari mustaqil diyorimida hamisha qadrlanishi va e'zozlanishi shubhasizdir.

## SHAROF RASHIDOV IJODINING O'RGANILISHI

XX asr o'zbek adabiyoti tarixini taniqli adib va yirik davlat arbobi Sharof Rashidovning g'oyat serqirra ijtimoiy-siyosiy va ijodiy faoliyatisiz to'liq tasavvur etish qiyin.

U adabiyot olamiga tengqurlari Said Ahmad, Asqad Muxtor, Hamid G'ulom va Mirmuhsinlar kabi 30-40-yillarda o'z iste'dodi, mavzu-g'oyalari va uslubi bilan kirib keldi. Bu o'rinda XX asr o'zbek adabiyotining deyarli barcha namoyandalariga xos bo'lgan ibratli bir fazilatni alohida tilga olib o'tish to'g'ri bo'ladi. Bu fazilat shuki, ularning rang-barang ijodi va iste'dodi, tafakkur va dunyoqarashi bevosita jo'shqin hayot bilan uzviy bog'liq tarzda shakllanib, rivojlanib borgan. Chunki mutafakkirlar to'g'ri ta'kidlaganidek, adabiyotning onasi, uni oziqlantirib turuvchi manba-bu, eng avvalo, hayotdir.

Bu jihatdan atoqli shoir va yozuvchimiz G'afur G'ulomning quyidagi e'tirofi alohida e'tiborga loyiqdir: "Biz u zamonlarda shoir-yozuvchigina emas edik, yuragi temirchining qo'rasidek o't ufurib turgan yoshlar edik. Qishloqda birinchi radio karnayi o'tkazgan ham o'zimiz, muallim ham o'zimiz, muxbir ham o'zimiz... O'z uyidan tashqariga chiqmaydigan o'z atrofni o'rab olgan hayot bilan aloqasiz kishilardan yozuvchi chiqmaydi... Yozuvchi hayotdagi hamma narsadan, ham ma'ishdan, hamma hodisadan, hamma ilmdan oz-oz bo'lsa ham xabardor bo'lishi kerak. Ko'p qirrali hayotimiz turli-tuman psixikaga va ajoyib xarakterlarga ega bo'lgan odamlar bilan to'la. Shu odamlarni ayrim-ayrim tanimay turib, o'rganmay turib, ular to'g'risida yozib bo'lmaydi. Yozuvchilik ishi atrofni hayotni o'rganishdan hoshlanadi. Hayotni o'rganish esa uzoq vaqt, o'tkir did talab qiladigan ish. Istagan bir badiiy asarni yozish uchun hayotiy va ijodiy tajriba kerak bo'ladi, yozuvchining shuuri hayotda o'z ko'zi bilan ko'rgan yoki o'z boshidan kechirgan hodisa va manzaralar bilan to'la, boy bo'lishi kerak".

Ijod ahlining mana shunday qaynoq hayot ichida, el-yurtning orzu-umidlari va g'am-tashvishlari bilan birga hamnafas bo'lib yashashi unga muhim, dolzarb mavzu- g'oyalar berishi bilan birga uni faol ijodkor sifatida shakllantiradi. Shoir va yozuvchilardagi bunday ijtimoiy faollik ularda jamiyatning muammolariga o'z munosabatini bildirib, ularga daxldorlik tuyg'usini ham kuchaytiradi. Ijodkor uchun zarur bo'lgan bunday xususiyatlar Sharof Rashidov hayoti va ijodiy faoliyatida ham asosiy o'rin tutadi. Adibning bu fazilati haqida XX asr tojik adabiyotining asoschilaridan biri mashhur shoir Mirzo Tursunzoda, jumladan, shunday degan edi: "San'atkorning biografiyasi qanchalik boy, fikr doirasi qanchalik keng bo'lsa, uning asarlari shunchalik chuqur mazmunli va jozibador bo'lib chiqadi. Men Sharof Rashidov ijodi haqida mulohaza yuritib shunday xulosaga keldim".

Darhaqiqat, Sharof Rashidov (1917-1982) bolalik-o'spirinlik paytlaridan boshlab mamlakatimizda sodir bo'lgan katta hayotiy o'zgarishlar va murakkab ijtimoiy-siyosiy kurashlarga bevosita guvoh bo'ldi va ana shu ziddiyatli turmush ichida o'sib-ulg'aydi. Bo'lajak adib uchun bunday murakkab va jo'shqin hayot katta turmush maktabi bo'lganligini keyinchalik shunday e'tirof etadi: "Xalq hayoti bilan hamisha va mahkam aloqada bo'lish yozuvchiga naqadar ko'p narsa beradi. Benihoya xilma-xil va abadiy yangilanib turuvchi mo'jizakor turmush kitobiga murojaat qilish yozuvchining ijodiy ufqlarini naqadar kengaytiradi!" Sharof Rashidovning rang-barang va mazmundor hayoti, ijodiy iqtidori uni jurnalistika va adabiyot olamiga kirib kelishiga yo'l ochadi va uning dunyoqarashi adabiy-estetik qarashlari ham bevosita jamiyatdagi ulkan o'zgarishlar va yangilanishlar jarayonida shaakllanib, boyib boradi.

Sharof Rashidov, 1934-yili Jizzaxdagi pedagogika texnikumini imtiyozli diplom bilan tugatib, maktabda o'qituvchilik qiladi. 1937-yili Samarqand Davlat universiteti talabasi bo'lish bilan birga, ayni vaqtda, Samarqand viloyati gazetasida muharrir o'rinbosari, 1939-1941 yillarda gazetaning mas'ul kotibi vazifasida faoliyat ko'rsatadi.

Xuddi shu yillari uning ilk maqolalari birin-ketin bosilib chiqqan boshlaydi. Uning dastlabki she'r va maqolalarida xalq qudrati va fidoyiligi, zamondoshlarimizdagi vatanparvarlik va internatsionalizm tuyg'ulari, yoshlarimizdagi jo'shqinlik va yaratuvchanlik kabi fazilatlar ulug'lanishi keyinchalik adibning yirik qissa va romanlari uchun muhim manba va ilk ijodiy bosqich bo'lib xizmat qiladi.

Sharof Rashidov 1941-yili universitetni tugatib, frontga safarbar etiladi. 1942-yili ikkinchi jahon urushidan og'ir yarador bo'lib qaytgan Sharof Rashidov yana muharrirlik va jurnalistik faoliyati bilan shug'ullanadi. Uning birinchi

she'riy to'plami "Qahrim" 1945 yili kitob holida nashr etiladi. To'plamdagi she'rlarning asosiy g'oyaviy mazmuni-ona-vatanga sadoqat, fashist bosqinchilariga cheksiz nafrat va mard jangchilarimizning qahramonligini ulug'lash bo'lib, ular G'afur G'ulom, Hamid Olimjon, Mirtemir, Shayxzoda va Sulton Jo'ra kabi o'zbek shoirlarining mashhur she'rlari bilan hamohang edi. Fikrimizning isboti uchun Sharof Rashidovning Vatan ozodligi yo'lida qahramonlarcha xalok bo'lgan jangchilarimizga bag'ishlangan "Qahramon xotirasi" va o'zbek ayollari va muqaddas onalarning jangchi farzandlariga nakazi va orzularini ifodalagan "Ona nasihati" she'ridan parcha keltiramiz:

*-Do'stim o'ldi jangda shon bilan,  
Shunday o'lish o'zi bir iqbol.  
O'lka dedi: "Qani jangga kir!  
Do'sting uchun yovdan qasos ol!" ("Qahramon xotirasi")*

*Nomard bo'lib, kunda o'lguncha  
Mard bo'lginu Vatan deb o'lgin,  
Onang qilgan eng oliy orzu-  
Jang ichida qayta tug'ilgin. ("Ona nasihati")*

Bu va boshqa she'rlar xalqimizning vatanparvarlik va g'alabaga bo'lgan ishonchini haqqoniy ifodalashi bilan birga ularda shoir iste'dodi va mahoratining o'sib borishi va uning kelgusida hayot voqeliklari va zamondoshlarimizning ichki kechinmalarini yanada kengroq aks ettirishga moyillik va shunga iqtidori ham sezilib turadi. Bu davrga kelib Sharof Rashidovning hayotiy va ijodiy tajribasi, ko'nglidagi ijodiy niyatlari ham boyib, rus va jahon adabiyotidan olgan chuqur taassurotlari natijasida yirik nasriy asarlar yozishga kirishadi. Uning "G'oliblar" qissasi adabiyotimiz olamiga yangi va o'ziga xos uslub va pafosga ega bo'lgan iste'dodli yozuvchi kirib kelayotganligidan guvohlik beradi va bu asari bilan keng adabiy

jamoatchilik e'tiborini tortadi. Shu munosabat bilan Sharof Rashidovning ijodiy evolyusiyasida muhim o'rin tutgan bu povestning jiddiy qayta ishlanishi va keyinchalik uni roman darajasiga yetkazilishi ham ibratli bir voqea bo'lganligini esga olib o'tish o'rinli bo'lsa kerak. O'z asaridan qoniqmaslik va uni yanada mukammallashtirishga intilish ko'plab yozuvchilar, hatto mashhur ustoz adiblarga ham xos bo'lgan ijodiy bir fazilat. Sharof Rashidov ham ana shu an'anaviy ijod usulini qo'llab va tanqidchi-adabitshunoslarning va ko'p sonli muxlislarining haqli e'tiroz-takliflarini inobatga olib, bir necha yil davomida qissani jiddiy qayta ishlab, yetuk bir roman darajasiga keltiradi.

Sharof Rashidovga xos bo'lgan bunday ijodiy mas'uliyat va talabchanlik haqida fikr yuritganda, yana bir muhim holatni e'tiborga olishimiz kerak. Boshqa ko'plab shoir va yozuvchilardan farqli o'laroq, Sharof Rashidovda deyarli bo'sh vaqt-imkon bo'lmagan.

1944-yildan boshlab turli lavozimlarda ishlab, umrining har bir soati va daqiqasi el-yurtimiz tashvishi va muammolarini hal etish bilan band bo'lgan.

1944-1947-yillarda Samarqand viloyati partiya qo'mitasida ishlagan, 1947-1949 yillar respublikamizning to'ng'ich gazetasi bo'lgan "Qizil O'zbekiston" ro'znomasida bosh muharrirlik qilgan, 1949-1950-yillari O'zbekiston Yozuvchilari uyushmasiga rahbar bo'lgan. 1950-1959 yillar davomida O'zbekiston Respublikasi sobiq Oliy soveti prezidiumi raisi lavozimida ishlagan va 1959 yildan to umrining oxirigacha O'zbekiston respublikasi sobiq kompartiyasi Markaziy qo'mitasining bosh kotibi lavozimlarida fidokorona mehnat qilgan.

Hozirgi zamon o'zbek adabiyoti va badiiy publitsistikasi taraqqiyotiga katta hissa qo'shgan atoqli adib va yirik davlat, jamoat arbobi Sharof Rashidovning boy va serqirra ijodiy faoliyati tanqid va adabiyotshunosligimizda ancha keng o'rganilgan. Ayniqsa, ustoz adabiyotshunoslarimizdan

akademik V.Zohidov, M. Qo'shjonov, I. Sultonov, S.Mamajonov hamda A.Abrorov, G.Vladimirov, S. Mirzaev va E. Bozorovlarning salmoqli ishlarida, shuningdek, O'.Nosirov, M.Hoshimxonov va jurnalist B.Rizaev kabilarning asarlarida Sharof Rashidov ijodining rang-barangligi, janr xususiyatlari, badiiy mahorati va adabiy-tanqidiy qarashlari keng tahlil etib berilgan. Ularda serqirra adibimizning "Kashmir qo'shig'i", "Bo'rondan kuchli", "Qudratli to'lqin" va "Do'stlik bayrog'i" kabi mashhur asarlarida xalqimizning yangi jamiyat qurishdagi qahramonona mehnati va fidoyiligi, xalqlar va millatlar o'rtasidagi azaliy do'stlik va qardoshlik kabi yuksak insoniy fazilatlar teranlik bilan yoritib berilganligi yakdillik bilan ta'kidlanadi. Ana shunday yorqin jihatlar uchun ham bu asarlar o'z davrida dunyoning 50 dan ortiq tillariga mahorat bilan tarjima qilinganligi hamda ularni ko'plab xorijiy mamlakatlarda katta qiziqish bilan o'qishlarini ko'rsatib o'tishgan.

Masalan, uzoq yillar O'zbekiston Yozuvchilari uyushmasi raisi bo'lgan taniqli adib va dramaturg Komil Yashin Sharof Rashidovning "Bo'rondan kuchli" romani vatanparvar zamondoshlarimiz haqida, yangi hayot va yangi insoniy munosabatlar haqida qo'shiqlar" deb ta'riflasi, professor Homil Yoqubov bu romanda "Epik voqealarning realistik bayoni romantik- qahramonlik mash'ali bilan yoritiladi", - deya asarga yuksak baho beradi.

Yoki taniqli rus adabiyotshunoslaridan biri Vera Smirnova "Lirika bilan publitsistik uslubning uyg'unligi Sharof Rashidov ijodi uchun xarakterlidir", - deb, adib talanti va asarlarining o'ziga xos yorqin bir jihatini alohida ta'kidlaydi. Bu bejiz emas edi. Haqiqatan ham, Sharof Rashidovning ko'p yillik mashaqqatli ijodiy izlanishlari samarasi bo'lgan "Bo'rondan kuchli", "G'oliblar" va "Qudratli to'lqin" romanlari, eng avvalo, yangi davr kishilarining jo'shqin va murakkab hayoti, ichki

kechinmalari, o'zaro munosabatlari va ularning mamlakatimiz ravnaqi yo'lidagi fidokorona mehnatlarini g'oyat keng ko'lamda yoritib bergan salmoqli asarlar sifatida adabiyotimiz tarixida alohida bir sahifani tashkil etadi.

Ammo shuni ham aytish kerakki, Sharof Rashidov ijodiga bag'ishlangan yirik monografiya, tadqiqot va dissertatsiya ishlari hamda yuzlab salmoqli maqolalar, asosan, sobiq sho'ro davrida yozilgan. Tabiiyki, ularda adib asarlariga va ularning g'oyaviy-tematik mazmuni, qahramonlarining ijobiy yo salbiy xislatlariga munosabat bildirish va ularni badiiy-estetik jihatdan tahlil qilish va baholashda o'sha davrdagi hukmron kommunistik mafkuraning siyosiy talab-mezonlaridan hamda sotsialistik realizm metodining sun'iy sxematik qoliplaridan kelib chiqib yondashilgan. Bunday biryolamaliklar, albatta, o'sha davrdagi mustabid tuzumning zo'ravonlik siyosati va partiyaviylik, sinfiylik va revolyusion g'oyaviylik kabi hukmron mafkurasining san'atdan uzoq bema'ni talablari bilan izohlanadi. Afsuski, bunday tahlil va baholash prinsiplari nafaqat Sharof Rashidov asarlariga nisbatan, balki XX asrdagi deyarli barcha sovet yozuvchilari, sho'ir va san'atkorlari ijodiga nisbatan ham qo'llangan. Bu mash'um siyosat ko'plab ulug' adiblarimizning taqdirini sindirdi va qanchadan-qancha yetuk asarlari badnom qilindi.

Ming afsuski, sobiq imperiyaning mash'um siyosati tufayli Sharof Rashidovdek xalqimizga sadoqat va fidoyilik bilan xizmat qilgan va adabiyotimiz rivojiga munosib hissa qo'shgan ulug' inson va yirik adib ham tuzum qurboni bo'ldi. Muhtaram Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoev to'g'ri aytganidek, sobiq sho'ro davlatining hukmron mafkurasi va siyosati u kishini tirigida ko'klarga ko'tarib, o'limidan keyin esa yer bilan yakson qildi. Bunday qabihlik va nohaqliklarning asosiy sababi O'zbekistonimizning mustaqil davlat emasligi, xalqimiz

va yurtimizning mustamlaka zulmi ostida erk va huquqsiz yushaganligi edi.

Xalqimiz va adabiyotimiz boshiga tushgan bu fojia va adolatsizliklarning qanchalik og'ir va dahshatli bo'lganligini O'zbekiston Qahramoni, mashhur shoirimiz Abdulla Oripov katta dard va armon bilan shunday ta'kidlaydi: "Sobiq mustabid imperiyaning mustamlakachilik siyosati va uning beomon mafkurasi minglab haqgo'ylarning boshini yeyishga ulgurdi, qanchadan-qancha iste'dod egalarining bo'yniga bo'yinturuq solishga erisha oldi. Adabiyot hukmron mafkuraning xizmatiga majburan bo'ysundirilgan davrlarga baho berganda, o'sha shart-sharoitlarni hisobga olish joizdir.

Biz bugun Abdulla Qodiriy, Cho'lpon, Fitrat, Usmon Nosir taqdirларini iztirob bilan eslaymiz. O'zbekiston adiblarining bir guruhi bilan uchrashuvda Islom Karimov bu siymolar haqida gapirib, ular nafaqat adabiyot sohasida, balki xalqimiz ozodligi yo'lida to'la ma'noda siyosiy kurash olib borgan izchil va sobitqadam, erkparvar zotlar ekanligini ta'kidladilar. Shukrkim, o'zbek xalqi istiqloлга erishib, o'z mustaqil davlatiga ega bo'la oldi. Biroq yaqin o'tmishimizga nazar tashlaganimizda ham, afsuski, chigal muammolarga, ziddiyatli manzaralarga duch kelamiz. Mana shunday mas'uliyatli dovondan turib xalqimizning ko'pdan-ko'p dongdor vakillariga, ularning faoliyatlariga nazar tashlay boshladik. Chunonchi, Sharof Rashidovning O'zbekiston uchun necha o'n yillar mobaynida qilgan xizmatlari munosib baholandi va bu baho elu yurt tomonidan mamnuniyat bilan kutib olindi. O'tganlarning barchasi ham davr farzandlari edilar, lekin ularning xalq oldidagi xizmatlari ham unutilmasdir. Ushbu achchiq haqiqatni, ayniqsa, bugungi yoshlar teran tushunmoqlari kerak".

Mustaqillik arafasidagi ijtimoiy-siyosiy hayotimizdagi turli ziddiyatli qarashlar, o'tmish madaniy merosimizga, milliy urf-odatlar va qadriyatlarimizga munosabatlarimizdagi

evrilishlar, adabiyot va san'at hodisalariga yondashuvimizdagi biryoqlamaliklarni o'ylaganimizda, beixtiyor Sharof Rashidov va Zulfiyalar bilan bir davrda yashab, yonma-yon faol ijod qilgan yirik adibimiz Asqad Muxtorning bir she'ri xotiramizda jonlanadi. 80- yillari yozilgan, biroq ko'p gazeta-jurnal tahririyati tomonidan rad etilgan bu she'rdagi satrlar barchamizni jiddiy fikrlashga undaydi:

*Nokomilmiz yo chalaroq,  
O'zgaramiz, tovlanamiz.  
Yetukdaymiz bugun, biroq  
Erta kimga aylanamiz...  
Usta ko'rmagan shogirdday  
Har tomonga...yo'q, ehtimol,  
Shu tarzda qitday- qitday  
Quyildik biz istab kamol*

Haqiqatan ham, endilikda har bir katta voqea-o'zgarishlarga xolisona munosabatda bo'lishimiz va yirik shaxslar faoliyatiga bahoberishda ham biryoqlamalikka yo'l qo'ymasligimiz lozim. Jumladan, Sharof Rashidov siymosi va ijodi ham bundan mustasno emas.

Adibning badiiy publitsistikasi, ya'ni bugungi hayotimiz va ma'naviyatimizning ko'plab dolzarb muammolariga bag'ishlangan o'nlab salmoqli maqolalari, da'vatkor nutq-suhbatlari va ularning ta'sirchan g'oyaviy mazmuni yetarli darajada o'rganilgan deb bo'lmaydi.

Sharof Rashidovning turli yillarda yozilgan va bugungi kunda ham o'zining ijtimoiy-g'oyaviy qimmatini va tarbiyaviy-estetik ahamiyatini yo'qotmagan yetuk maqolalarini bevosita adib yashab-ijod etgan davr bilan bog'lab va uning badiiy asarlari va roman, povestlari bilan yaxlit holda o'rganilishi lozim. Bizningcha, Sharof Rashidov she'rlari, yetuk roman va qissalari hamda publitsistik asarlariga bunday yondashuv ko'p jihatdan maqsadga muvofiq bo'ladi. Chunki har qanday yirik

am'atkor ijodi singari Sharof Rashidov ijodiyoti ham yaxlit bir butunlikni tashkil etadi. Ya'ni adibning turli janrlardagi badiiy asarlari bilan bir qatorda uning "Do'stlik bayrog'i" kabi salmoqli publisistik asarlarini o'rganish ham ijodkor siymosini, uning adabiyot va jamiyat rivojida tutgan o'rnini aniqlashda muhim asos bo'lib xizmat qiladi.

## **SO'Z SEHRI VA QUDRATI**

### **Erkin Vohidov abadiyati**

Necha asrlar davomida qancha shonli va qonli kunlarni boshidan kechirgan ulug' xalqimizning tarixiy o'tmishi va uning adabiyoti qanchalik boy va yuksak bo'lganidek, XX asr o'z bek adabiyoti ham o'zining ko'plab yorqin iste'dodlari bilan alohida ajralib turadi. O'zbekiston Qahramoni, xalq shoiri Erkin Vohidov ana shunday nodir talant sohiblaridan biridir. O'zining betakror she'r va g'azallari, yetuk komediya va dostonlari, beqiyos hajviyoti va tarjimalari hamda teran maqolalari bilan xalqimiz qalbidan joy olgan Erkin Vohidov nomini bilmaydigan va uning durdona asarlari kirib bormagan biron shahar yo qishloq, bironta xonadon yo'q desak, aslo mubolag'a bo'lmaydi. Bu haqiqatni atoqli adabiyotshunoslarimizdan biri- O'zbekiston Qahramoni Ozod Sharafiddinov havas bilan shunday e'tirof etadi: "Hech ikkilanmay, komil ishonch bilan aytish mumkinki, Erkin Vohidov hozirgi o'zbek she'riyatining ko'rki va faxri. Bu fikrda zarracha mubolag'a yo'q."

Millionlab she'riyat muxlislarining ko'nglidagi bu yakdil fikr nechog'lik hayotiy haqiqat ekanligini adabiyotimiz va millatimizning yana bir faxri bo'lgan mashhur shoirimiz- O'zbekiston Qahramoni Abdulla Oripov ham o'ziga xos

samimiyat bilan ifodalagan edi: "Mana, bir necha o'n yillardirki, biz dilbar bir she'riyatning muattar havosidan bahramand bo'lib kelayotirmiz. Bu- Erkin Vohidov she'riyatidir. Men Erkin Vohidovni she'riyatda o'ziga xos sehr sohibi deb bilaman... Goho yuksak tog'larning bo'yu-basti uzoqdan yaqqolroq ko'rinadi, deydilar. Lekin men u uzoq masofalarni kutib o'tirmasdan, hozirning o'zidayoq bir gapni ochiq-oydin aytib qo'ya qolay: Men Erkin Vohidovdek ulkan shoir bilan zamondosh bo'lganim bilan faxrlanaman"

Erkin Vohidov ijodining xalqimizga bu qadar manzur bo'lishining sababi nimada? Iste'dodlarga boy bo'lgan adabiyot olamida bunday sharafiga erishishning asos-omillari nimalar? Chinakam xalq shoiri bo'lishdek baxt va tolega musharraf bo'lgan Erkin Vohidovning mumtoz she'rlari va ulardagi har bir quyma satr xalqimiz yuragining to'ridan joy olganligining asosiy bir sababi shundaki, uning har bir so'zi ona-Vatanga va xalqiga bo'lgan katta mehr va sadoqatdan tug'ilgandir. Bu muqaddas tuyg'u Erkin Vohidov qalbini boyitib, jo'shqin ilhom beribgina qolmay, uning bir umrlik orzu- tilagiga va yuksak ijodiy-estetik idealiga, bir so'z bilan aytganda, shoirlik qismatiga ham aylanganligi uning 50- yillar boshida yozgan ilk she'rlaridayoq baralla jaranglagan edi:

*Ona yurtim, Senga o'g'lon bo'lgim keladi.*

*Kerak bo'lsa, Jonni fido qilgim keladi.*

"El ko'nglidagini topish va el ko'ngliga yo'l topish bu-she'riyat. Madh etish ham, rad etish ham she'riyat emas. Xalqni maqtagan shoir- ulug' emas, uning o'zligini o'ziga ko'rsatib berolgan, ayovsiz gapni aytolgan shoir- ulug'. Mamlakatimiz buyuk, shoiri ko'p. Bu ulkan muhitda ajralib ko'rinish uchun, demakki, xalqni ko'rsata bilish uchun shoir darvesh emas, o'ktam, so'zi keskir, o'zi shijoatli bo'lishi kerak". Bu so'zlarda Erkin Vohidovning yuksak ijodiy a'moli va

ezgu orzulari ham yaqqol aks etgan. Bunga ishonch hosil qilish uchun shoirning birgina "O'zbekim" qasidasini yodga olaylik. Nafaqat she'riyatimizda, balki butun ma'naviy hayotimizda ham unutilmas bir voqea bo'lgan bu qasida xalqimizni o'ziga va o'tmishiga yangi va tiyrak bir nigoh bilan qarashni o'rgatdi. Asar butun bir xalqning dardiga darmon bo'ldi deyish mumkin. Mustab id tuzum mafkurachilari bu asarni millatchilikda ayblashga urindi va unga qarshi g'arazgo'ylik bilan kurashdi. Ammo bu she'r allaqachon xalqimizning yuragidan joy olib, ma'naviy mulkiga aylanib, hatto mamlakatimizdan yiroqdagi xorijiy ellarga ham tarqalib ulgurgandi. Chunki bu she'r o'zbek xalqining millat sifatida barhayotligini, o'z tarixini yaratishda davom etayotganligini va milliy ozodlik yo'lidagi kurashi to'xtamaganligini boshqa xalqlarga ham namoyon qila olgan edi. Taniqli adabiyotshunoslarimiz e'tirof etganidek, Erkin Vohidov o'zbekim so'ziga butunlay yangicha ma'no va ruh bag'ishladi. Chuqur ijtimoiy-tarixiy haqiqat va asrly orzu-armonlarimizni anglatgan bu so'z xalqimizning milliy g'ururi va qadriyatiga aylandi va uning ong-tafakkurini mash'alday yoritdi:

*Tarixing bitmakka, xalqim,  
Mingta Firdavsiy kerak,  
Chunki bir bor chekkan ohing  
Mingta doston, o'zbekim.*

*Ortda qoldi ko'hna tarix,  
Ortda qoldi dard sitam,  
Ketdi vahming, bitdi zahming,  
Topdi darmon, o'zbekim...*

*O'zbekim deb keng jahonga  
Ne uchun madh etmayin!*

*O'zligim bilmoqqa davrim*

*Berdi imkon, o'zbekim.*

Erkin Vohidovning adabiyotimiz va xalqimiz oldidagi xizmatlari go'zal she'rlaru yetuk dostonlar bilangina cheklanmaydi. Uning taniqli jamoat arbobi va xalq deputati sifatidagi ijtimoiy faoliyati ham tahsinga loyiqdir. Shoir iste'dodi va ijodining yana bir yorqin qirrasi, jo'shqin ijtimoiy- adabiy faoliyatining ibratli bir yo'nalishi uning publitsistik asarlarida, ya'ni maqola va nutq- suhbatlarida namoyon bo'lgan. Bular allaqachon xalqimizning ma'naviy- ruhiy mulkiga aylanib, o'zligimizni anglashda ham muhim ahamiyatga ega bo'lmoqda. Bu jihatdan Erkin Vohidovning quyidagi so'zlari yosh ijodkor va ziyolilarga ham muhim hayotiy dastur bo'lishi mumkin: "Men ijodiy mehnatni faol jamoat ishlari bilan qo'shib olib borishdek sharaflı vazifa yukini doimo yelkamda his qilaman. Odamlarga faqat she'ring emas, o'zing kerakligingni sezish- bu katta baxt. Shu uchun ham jamoat mehnatidan hech qachon o'zimni olib qochgan emasman. Qaynoq hayot ichida yashab, ishlab o'rganganman"

Erkin Vohidovning "Shoiru she'ru shuur"(1987) va "Iztirob" (1992) nomli to'plamlari ham uning xalq bilan doimiy birdamlik va hamnafaslikning ibratli samaralari bo'lib maydonga keldi Ular so'nggi yillar o'zbek adabiyoti va adabiy-estetik tafakkuri rivoji ga munosib hissa bo'lib qo'shilishi bilan birga, ayni vaqtda, ma'naviyatimizni boyitib, ruhiyatimizni yuksaltirishda ham muhim manba bo'lib xizmat qilmoqda. Muallif "Iztirob" majmuasining muqaddimasida ushbu kitobining vujudga kelishi va uning asosiy mazmuni haqida, jumladan, shunday yozadi: "El ichida yashab, elning orzu-umidlari, kurashlari, shodlik va qayg'ularidan chetda turish mumkin emas. Jamiyat hayotining mavju dolg'alari hamma zamonlarda ham

she'riyat ahli yuragida aks etgan. Bu kitobni dastalar ekanman, bosib o'tgan hayot yo'lim ko'z oldimdan o'tdi. Unda ko'p o'nqir-cho'nqirlar, yanglishishlar, izlanishlar bor. Negaki boshimizdan kechirgan kunlarimizning o'zi notekis, murakkab, xatolarga to'la bo'lgan. Biz haq so'zni aytish qiyin bo'lgan zamonda yashadik".

Shoirning samimiyat va ichki bir armon bilan aytgan bu iqrar-so'zlari zamirida xalqimiz boshidan kechirgan, ammo oshkora aytolmagan dard-alamlari ham o'z ifodasini topgan.

Ma'lumki, har bir iste'dodli san'atkor xalqqa aytadigan zarur va muhim fikrini uning ong- tafakkuri va qalbiga tezroq yetkazish maqsadida turli shakl va janrlarga murojaat qiladi. Birda u ko'nglidagi dardu- quvonchini qisqa bir she'r orqali ifodalasa, bo'shqa bir vaziyatda adabiyotning operativ, ya'ni tezkor janrlari bo'lmish maqola va nutq shaklidan foydalanishi mumkin. Muhimi shundaki, bu asarlarning barchasi kitobxonlarning ko'ngliga yetib borsa, ularni ma'nan va ruhan boyitadi hamda shu orqali hayotimizni yanada mazmunli va fayzli bo'lishiga xizmat qiladi. Ana shunday ezgu niyat va olijanob maqsad bilan yaratilgan adabiy asarlar qaysi janrda bo'lmasin, ularda ijodkor qalbi va uning shaxsi manaman deb ko'rinib turadi. Binobarin, yorqin iste'dod va kuchli shaxs qalamiga mansub bo'lgan har bir asar jiddiy o'rganishga munosibdir.

Jahon adabiyoti tarixiga nazar solsak, ko'plab mashhur adiblar o'zlari yaratgan betakror so'z san'ati namunalari bilan bir qatorda, ayni bir vaqtda, jo'shqin ijtimoiy faoliyati va yetuk publitsistik asarlari bilan ham insoniyat tafakkuri va ma'naviyati rivojiga ulkan hissa qo'shganlar. XX asr o'zbek adabiyotining ta'mal toshini qo'ygan Abdulla Qodiriy, Fitrat, Cho'lponlarni yoxud adabiyotimizning to'ng'ich avlodi namoyandalari -

G'afur G'ulom, Oybek, Abdulla Qahhor va Hamid Olimjon kabi adiblarimiz ijodini ko'z oldimiz ga keltiraylik. Ular, avvalo, o'z iste'dodi va davr talabi bilan so'z san'atining deyarli barcha janr va shaklida qanchalik sermahsul ijod qilishgan bo'lsalar, ayni vaqtda, badiiy publitsistika, ya'ni maqolanavislikda ham samarali faoliyat ko'rsatganlar.

Erkin Vohidov ana shu ulug' adiblarimizning qutlug' an'analarini muvaffaqiyatli davom ettirib, ham she'riyatda, ham badiiy publitsistika sohasida samarali ijod qilib, katta shuhrat qozonganligi endilikda hech kimda shubha tug'dirmaydi. Bunday e'tirofni ning sabab-omillari haqida o'ylaganimizda, eng avvalo, shunday bir fikr ko'nglimizdan kechadi: taniqli adib va munaqqidlarimiz yakdillik bilan ta'kidlaganidek, Erkin Vohidov ijodida xalqimiz yaqin o'tmishda boshidan kechirgan ham suronli, ham g'am-anduhli kunlarning haqqoniy manzaralari yorqin aks ettirilganligida va shubhasiz, Mustaqillik dan keyingi yillardagi yorug' kunlarimizning buyuk ne'mat ekanligi ham o'zining teran ifodasini topayotganligida deyilsa, ayni haqiqatni ifodalagan bo'lamiz.

Erkin Vohidov she'riyati hayot singari mavzu jihatidan keng qamrovli va rang-barang bo'lganidek, uning maqolalari, suhbat va intervyularining ham mavzu doirasi keng va muammolari jihatidan ham xilma-xildir. Masalan, "Iztirob" to'plamining asosiy g'oyaviy mazmun-mundarijasini tashkil etgan yigirmadan ortiq maqola va suhbatlarning aksariyati ona-Vatanimiz va xalqimizning yaqin o'tmishi, hozirgi hayoti va kelajagi bilan bevosita bog'liq bo'lgan muammolarga bag'ishlanganligini alohida ta'kidlash lozim. Eng muhimi, ularning deyarli barchasida mehnatkash va dono xalqimizning ko'p yillik hayotiy tajribasi ham, jamiyatimizda ro'y berayotgan voqea-hodisalarga munosabati va mamlakatimiz ravnaqi yo'lidagi orzu-intilishlari ham haqqoniy ifodalangan.

Darhaqiqat, to'plamdagi maqolalar va suhbatlarning sarlavhalari ham fikrimizni tasdiqlaydi. Ular xalqimizning oqilona o'y-tashvishlari va kelajakka bo'lgan umid-ishonchlari bilan shoirning bedor qalbidagi iztirobli kechinmalarining yakdil va hamohangligini ham aks ettrib turganligi bilan ham e'tiborni jalb etadi. Chunonchi, quyidagi maqola va suhbatlarning sarlavhalari ularning mazmuni va g'oyaviy maqsadiga qanchalik mos va ma'nodor ekanligiga diqqat qilaylik: **"Shoirlar armoni"**, **"Ota yurtiing omon bo'lsa"**, **"Adolat tuyg'usi"**, **"Inson ma'mur bo'lmasa, xalq ma'mur bo'lmaydi"**, **"O'zbekcha salomga o'zbekcha alik bo'lsin"**, **"Ruhimiz ehtiyoji"**, **"Umidli dunyo"**, **"Egalik huquqi"**, **"Ulg'ayish azobi"**, **"Turkiston bozori"**, **"Bizning odatlar"**...

Erkin Vohidovning xalqimiz orasida mashhur bo'lib ketgan o'lmas she'r va dostonlari singari bu rang-barang maqola va suhbatlar ham necha minglab vatandoshlarimiz qalbida aks sado berganligi adabiy jamoatchilikka yaxshi ma'lum. Ammo ular shoir publitsistikasining ma'lum bir qismini tashkil etadi. Yuqorida alohida tilga olib o'tilgan **"Iztirob"** kitobining birgina **"So'z otashi"** bobidan **"San'at va tafakkur"**, **"Mukammallik"**, **"Ko'ngildagi gaplar"**, **"Ruhimiz ne'mati"**, **"O'z qadrini bilgan so'z qadrini biladi"**, **"Bahramandlik"** singari ta'sirchan maqola va suhbatlari o'rin olganligini ham alohida ta'kidlash lozim. Bular ham Erkin Vohidov ijodiy tafakkuri va qiziqish olamining rang-barangligini ko'rsatishi bilan birga, ayni vaqtda, shoirning o'zi va so'zi xalq uchun, ma'naviyatimiz uchun nechog'lik zarur ekanligidan ham guvohlik berib turadi. Ularga Erkin Vohidovning so'nggi yillardagi va, ayniqsa, Istiqloldan so'ng jamiyatimizda ro'y bergan ulkan o'zgarish va yangilanishlardan ilhomlanib yaratgan va ko'plab rivojlangan xorijiy mamlakatlar bo'ylab safarlarida tug'ilgan o'y-kechinmalari ifodalangan ta'sirchan maqola va suhbatlarini

qo'shsak, uning publitsist sifatidagi ijodi ham tematik jihatidan qamrovi keng va mazmunan salmoqdor ekanligini yanada yaqqolroq tasavvur qilishimiz mumkin. Masalan, Erkin Vohidovning bevosita AQShga qilgan safari taassurotlari asosida yaratilgan va dastlab "Xalq so'zi" ro'znomasida, so'ng "Jahon adabiyoti" jurnalida chop etilgan "Tarix- taqdir- tashrif" deb nomlangan yirik maqolasi ham nafaqat adabiyot va badiiy ijod ahlining e'tiborini jalb qilib qolmasdan, balki muhtaram Yurtboshimizning ham nazariga tushganligi barcha shoir va yozuvchilarni cheksiz ruhlantirdi ularga yangi ijodiy ilhom va rag'bat bag'ishladi.

Erkin Vohidovning chuqur hayotiy bilim va tafakkuri samarasi bo'lgan va yuksak badiiy mahorat bilan yaratilgan publitsistik asarlarini atroflicha o'rganar ekanmiz, ularni g'o'yaviy-badiiy jihatdan birlashtirib, ruhan yaqinlashtirib turgan mushtarak jihatlar ko'p e'tiborimizni tortadi. Negaki Erkin Vohidovning deyarli barcha publitsistik asarlari uning she'r va dostonlari singari katta ijtimoiy dard va ijodiy ilhom bilan yaratilgan va ularning barchasi xalqqa xizmat qilishdek olijanob maqsadlar bilan yo'g'rilgan. Shu bilan birga, bu asarlarda Erkin Vohidovdek zabardast shoir qalbi va shaxsi, ya'ni shoirning keng miqyosli badiiy-estetik tafakkur-salohiyati va el-yurt bilan chuqur hamdardu-hamnafasligi, uning o'ziga xos jonkuyarligi va ijodiy shijoatkorligi manaman deb bo'y ko'rsatib turadi. Qolaversa, Erkin Vohidovning xalqimiz ma'naviy mulkiga aylangan mumtoz she'r va dostonlariga xos bo'lgan badiiy til va o'zbekona so'z sehri va fasohati uning publitsistik maqola va suhbatlarida ham yaqqol ko'zga tashlanib turadi. Bunga ishonch hosil qilish uchun quyida Erkin Vohidov qalamiga mansub bo'lgan va turli mavzularga bag'ishlangan maqola va suhbatlaridan bir necha misollar keltirib o'tishni lozim topamiz.

Tarixdan bizga ma'lumki, 70-yillar jahon davlatlari siyosatida qarama-qarshilik va ziddiyat-ixtiloflar kuchaydi. Hukmronlik siyosatiga asoslangan sotsialistik tuzum bilan erkin bozor iqtisodiga asoslangan demokratik tuzum o'rtasida turli sohada keskin kurash avj oldi. Ikki sistemaning keskin ziddiyatlari oqibatida turli qit'alarda ijtimoiy-siyosiy nizolar, katta mojaro va qonli to'qnashuvlar yuz berdi. Sobiq sovet respublikalari ham notinch bo'lib qoldi. Hukmron sovet imperiyasining tanazuli boshlangan edi. Xalqning asosiy qismi ularga ishonchini yo'qotdi. Dunyoda g'oyalar o'rtasida yangi bosqichga kirgan kurash shoir va yozuvchilar ijodida ham aks-sado bera boshladi. Ana shunday keskin ijtimoiy-siyosiy kurash natijasi o'laroq, Erkin Vohidov bir qator o'zbek adiblari bilan mamlakat miqyosidagi anjumanlarda va xalqaro yig'inlarda faol qatnashadi. Ko'plab chet ellarga safarda bo'ladi. Anjumanlarda o'zbek xalqi nomidan muhim fikrlar va g'oyalarni ilgari suradi. Rossiya, Ukraina, Ozarboyjon, Belorussiya, Latviya, Litva, Estoniya, Qozog'iston, Tojikiston, Qirg'iziston va Turkmaniston adiblari bilan bir qatorda adabiyotlar taqdiri va xalqlar, millatlar o'rtasidagi o'zaro madaniy aloqalarning mazmuni va bugungi murakkab Globallashuv davridagi jiddiy muammolar yuzasidan salmoqli fikr va mushohodalarini bayon etadi va matbuotda chiqishlar qiladi.

Shoirning nafaqat O'zbekiston mamlakatining, balki insoniyatning g'oyat muhim va murakkab masalalarini ko'tarib chiqqan maqola va nutqlari qizg'in muhokamalarga sabab bo'ldi va jamiyat uchun ham samarali bo'ldi. Fikrimizning dalili sifatida ibratomiz bir misol keltiramiz. Masalan, "O'zbekcha salomga o'zbekcha alik bo'lsin" degan g'oyat muhim maqolasida u Davlat tili bilan chambarchas bog'liq jiddiy muammolar xususida fikr yuritib, Atamalar markazi tuzish va uni O'zbekiston Respublikasi Oliy kengashi yoxud Vazirlar

Mahkamasi huzurida tashkil etishni birinchi bo'lib taklif etadi. Kengash jamoatchilik va O'zbekiston respublikasi rahbariyati tomonidan qo'llab-quvvatlangan bu taklif asosida Vazirlar Mahkamasi huzurida Atamashunoslik qo'mitasi tuziladi va shunday nufuzli komissiya Oliy Majlis Kengashi tomonidan ham tashkil etildiki, bular Erkin Vohidovning chinakam xalq shoiri va zabardast mutafakkir publitsist sifatidagi faoliyati nechog'lik zarur va ijtimoiy ahamiyatga molik bo'lganligini ko'rsatadi.

Shoirning mana shunday qaynoq hayot ichida, el-yurtning orzu-umidlari va g'am- tashvishlari bilan birga hamnafas bo'lib yashashi unga muhim, dolzarb mavzu- g'oyalar berishi bilan birga uni ijodkor sifatida faollashtiradi va jamiyatning muammolariga o'z munosabatini bildirib, ularga daxldorlik tuyg'usini ham kuchaytiradi.

Yuqorida XX asr o'zbek adabiyotining ta'mal toshini qo'ygan Abdulla Qodiriy, Fitrat, Cho'lponlarni yoxud adabiyotimizning to'ng'ich avlodi namoyandalari – G'afur G'ulom, Oybek, Abdulla Qahhor va Hamid Olimjon kabi adiblarimizning serqirra ijodini esga oldik. Ularning barchasi so'z san'atining she'riyat, nasr va dramaturgiya sohasida qanchalik sermahsul ijod qilishgan bo'lsalar, ayni vaqtda, badiiy publitsistika, ya'ni maqolalanavislikda ham samarali ijod qilganlar. Boshqacha aytganda, bu adiblarimiz xalqning orzu-umidlari va dard-tashvishlarini nafaqat badiiy asarlarida, balki jo'shqin publitsistik maqolalari bilan, shuningdek, mazmundor va ta'sirchan nutq- suhbatlari bilan ham xalqning orzu-intilishlarini ro'yobga chiqarishga va jamiyat ravnaqiga yordam berishgan.

Shunday ekan, u yoki bu yozuvchi yoki biror san'atkor ijodiga baho berilganda va uning ijodkor sifatidagi faoliyati va

shaxsini o'rganganda, o'sha san'atkorning ijtimoiy- publitsistik asarlariga ham e'tibor qaratilsa, o'shanda ijodkor siymosini va uning adabiyot oldidagi xizmatlarini yanada to'liqroq tasavvur etishimizga imkon tug'iladi. Binobarin, publitsistika Erkin Vohidov tafakkuri va ijodiy olamining uzviy qismidir.

O'tgan asrimizning 80-yillari so'nggida sobiq sovet davlatining hukmronligidan va mustabid tuzum zug'umlaridan sabr kosasi to'lgan millat va xalqlarning noroziliklari kuchayib, o'z haq-huquqlari va erkinliklarini talab qila boshladi. Afsuski, bu milliy uyg'onish va ommaviy harakatlar komfirqaning zo'rvonlik siyosatiga qarshi isyon va hatto davlatga qarshi qo'zg'olon sifatida baholanib, ular harbiy kuchlar tomonidan ayovsizlik bilan bostirildi. Shunday mudhish voqealar dastlab Kavkaz o'lkalarida va boshqa bir necha respublikalarda ro'y berdi. Hozirda tarixga aylangan, lekin xalqimizning yodidan chiqmaydigan bu mash'um voqealar, eng avvalo, yurtparvar shoir va ziyolilar qalbini larzaga soldi va bu adolatsizliklarni haqqoniy aks ettiruvchi asarlar va hujjatli filmlar ham yaratildi. Jumladan, Erkin Vohidov 1989-yil aprelida yozgan va keskin tazyiqqa uchragan "Iztirob" nomli she'rida Gruziya poytaxti Tiflis (Tbilisi)dagi qonli to'qnashuvlar misolida komfirqa va sobiq sho'ro hukumatining bosqinchilik siyosatini keskin qoralab, xalqimizning o'z qadri va huquqlari uchun kurashi har jihatdan adolatli ekanligini sodiq bir farzand va fidoyi vatanparvar shoir sifatida chuqur hamdardlik bilan ifodalagan edi:

*Xalqimga qadringni bil desam agar,  
Kurash, haqni oshkor qil desam agar,  
Bu qutqu atalsa davlatga zarar,  
Qancha azob bo'lsa tortganim bo'lsin...("Iztirob")*

Ona-Vatanimizga va xalqimizga bo'lgan mana shunday fidoyilik va jonkuyarlik Erkin Vohidovning deyarli barcha she'rlari va publitsistik maqolalari, nutq va suhbatlarining ham asosiy g'oyaviy mazmun yo'nalishini belgilaydi. Eng muhimlari yuksak ma'naviyat sohibi bo'lgan xalqimizning zakovati, yorug' kelajakka umid-ishonchi ham aks etib turadi.

Masalan, Mustaqillikka erishish arafasidagi xalqimizning qiyin ijtimoiy-iqtisodiy sharoiti, ko'p jihatdan haq- huquqsizligi va mana shu nohaqliklarning g'oyat og'ir salbiy oqibatlari, xususan, Farg'ona vodiysida 1989-yili ro'y bergan noxush voqealar haqida shoir "Ota yurtning omon bo'lsa" nomli maqolasida o'zining iztirobli o'y-fikrlarini shunday yozadi: "Quvasoyda boshlanib, butun Farg'ona vodiysiga tarqalgan mudhish voqealar o'ylarimni chetga surib qo'ydi. Yuragim iztirob bilan to'ldi. Ne kunga qoldik? Sha'nimizga aytilmagan malomatlar ozmidi? O'zbekka "paxta ishi"ning dog'i yetmasmidi? Qirq besh yil hayotning achchiq-chuchugini birga totib kelayotgan ikki do'st, birodar millatlar o'rtasida qanday nizo bo'lishi mumkin?.. Mana shunday iztirobli savollar boshimga qalashib keladi, javob izlayman. Voqea-ho disalarga adolat ko'zi bilan qaralsa, ularning haqiqiy sabablarini ko'rish qiyin emas.

Quvasoy voqeasi Farg'onaliklarning to'lgan sabr kosasiga so'nggi tomchi bo'lgan xolos. Vodiydagi iqtisodiy, sotsial ahvolning chatoqligi, nochor oilalarning ko'pligi, ishsizlikning oshib borayotganligi bugun hammaga ayon. Yakkaziroatchlik – paxta yakkahokimligi balosi, ayniqsa, Farg'onaga ko'p ofatlar keltirdi...Bu mehnati og'ir, ammo bahosi arzon ekin dehqonni xonavayron qildi. Dehqonning yerdan boshqa nima tirikchiligi bor? Bu yerning 80 foyizi paxta bilan majburiy band bo'lsa, u nima bilan tirikchilik qilsin? Terim mavsumida kun bo'yi

paxta tergan studentning ish haqi o'zining kunlik ovqatiga bazo'r yetadi. Respublikadagi ekologik holatni, bolalar, ayollar o'limining ko'pligini, yerning zaharlanganini gapirmayoq qo'yay. Bu masalalar bir-ikki yilda yuzaga kelgan emas...

Zero, ularni hal qilish uchun ham vaqt kerak...Lekin bu uzoq yillar yig'ilgan alamning birodarkushlik shaklida namoyon bo'lganligi tashvishlidir. Bu ish sabablari o'rganilar, tarix o'z hukmini chiqarar. Qirg'indan manfaatdor bo'lgan shaxslar, guruhlar adolat qoshida javob berar..." ("Iztirob", 13-15-bb)

Erkin Vohidovning chinakam yurtparvar bir mutafakkir shoir sifatida o'ziga xos hozirjavoblik va chuqur hamdardlik va qayg'udoshlik bilan yozgan bu fikrlarining qanchalik to'g'ri va asosli ekanligini nafaqat voqelar rivoji, balki Mustaqillik sharofati bilan amalga oshirilgan ulkan ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy o'zgarishlar va so'nggi yillardagi xalqimiz hayotidagi tub burilishlar ham to'la tasdiqladi. Ya'ni Erkin Vohidov sobiq sho'ro davridagi xalqimizning komfirqa siyosatiga mutelarcha qaramligi va natijada ertayu kech chang dalalarda zaharli ximikatlarni yutib, sog'lig'ini yo'qotib kelgan paxtakoru dehqonlarimizning qullarcha qashshoq turmushini va uning dardu tashvishlarini qanchalik haqqoniy yoritganligini yana bir muhim tarixiy hujjat, ya'ni birinchi Prezidentimizning yaqinda nashr etilgan "Ona yurtimiz baxtu iqboli va buyuk kelajagi yo'lida xizmat qilish- eng oliy saodatdir" nomli kitobi asosida ham dalillash mumkin. I.A.Karimovning ushbu kitobida haqgo'ylik bilan bitilgan maqolalari, katta hayotiy tajriba va donishmandlik bilan yo'g'rilgan nutq-ma'ruzalari, juda ta'sirchan va unutilmas xotiralari bilan Erkin Vohidovning publitsistik asarlari mazmunan nechog'lik mushtarak va hamohang ekanligida ham ana shu achchiq hayotiy haqiqatning chuqur aks etganligini yaqqol ko'rishimiz mumkin.

Eng avvalo, shuni ta'kidlash kerakki, I.A.Karimovning bu asarida xalqimizning mus tabid sovet davlatining hukmron siyosati ostida qanchalar erksiz va huquqsiz yashaganligi va qanday nohaqlik va adolatsizliklarni boshidan kechirganligi va Mustaqillikka erishilgandan keyingi davrdagi erkin va ozod hayotimizning asosiy sabab va omillari g'oyat chuqur qiyosiy tahlillar va mantiqiy xulosalar bilan izchil yoritib berilgan. Bular O'zbekistonimizning har bir fuqarosi uchun yaqin o'tmish tariximizni anglab olishida va bugun erishayotgan olamshumul muvaffaqiyatlarimizning miqyosi va ulkan ahamiyatini tasavvur etishimizda ham eng zarur hayotiy saboqlar bo'la oladi. Ayni vaqtda, bu kitob millionlab hamyurtlarimiz va, ayniqsa, umidli yoshlarimiz uchun ona-Vatan qadrini tushunib olishida va uning ravnaqi yo'lidagi barcha faoliyat va intilishlarimizda ham muhim bir dasturilamal bo'lib xizmat qiladi.

Bu kitobda jamlangan nutq va ma'ruzalarning yetakchi g'oyaviy mazmunini Yurtboshimizning quyidagi o'gitlaridan uqib olishimiz mumkin: "Biz o'tgan davrda amalga oshirgan ishlarimizga baho berar ekanmiz, "Kecha kim edigu bugun kim bo'ldik?" – degan savol asosida ularning mohiyati va ahamiyatini o'zimizga chuqur tasavvur etamiz. Mamlakatimiz erishgan yutuqlarning tub mohiyatiga yetib borish uchun bugungi hayotni kechagi hayot bilan solishtirib ko'rish kerak. Shundan keyin odam bugungi hayotning qadriga yetadi".<sup>21</sup>

Yuqorida Erkin Vohidov og'riqli o'y-fikrlar va hayotiy savollar bilan bayon etgan Farg'ona voqealarining ijtimoiy sabablari ham bu kitobda g'oyat aniq va chuqur ko'rsatib berilganligi yana bir marta xalqimizning ko'zini ochgandek bo'ladi go'yo va barchamizni kechagi kunimizdan, tarixiy o'tmishdan to'g'ri xulosa chiqarishga o'rgatadi. Jumladan, Farg'onadagi keskin vaziyat haqida aytilgan quyidagi fikrlarni

<sup>21</sup> Islom Karimov. Ona yurtimiz baxtu iqboli va buyuk kelajagi yo'lida xizmat qilish- eng oliy saodatdir. – T. 2015. 7, 15-bb.

o'qigan har bir kitobxon larzaga tushadi va Mustaqilligimizning buyuk ahamiyatini yanada chuqurroq anglay boshlaydi: "Sobiq SSSR davrida O'zbekistonga nisbatan Markaz tomonidan olib borilgan zo'ravonlik siyosati, xalqimizni kamsitish, uning ehtiyojlarini mensimaslik, paxta yakka hokimligi avjiga chiqib, iqtisodiy holatimiz va hayotimiz jar yoqasiga kelib qolgani, norozilik lovullab yonib ketadigan darajada keskinlashib borgani hech kimga sir emas. 1989-yilning may oyida Farg'onada, Quvasoyda bo'lib o'tgan qonli voqealarga nima sabab bo'lgan edi? Ana shunday adolatsiz siyosat emasmi?

...Yurtimizda vaziyat jar yoqasiga kelib qolgan, odamlarning sabr kosasi to'lgan, ularning turmush sharoiti og'ir edi. Buni yashash darajasi buyicha O'zbekiston o'n beshta respublika ichida eng pastki o'rinlarga tushib qolgani, uch-to'rttalab oila katalakdek hovlilarda tiqilib yashagani, ishsizlik, onalar va bolalar o'limi keskin oshib ketgani ham tasdiqlaydi. Ana shunday adolatsiz sharoitda azaldan chidamli xalqimizning ham toqati toq bo'ldiki, endi uni ushlab, to'xtatib turadigan kuchning o'zi yo'q edi. Shunday o'ta murakkab, tahlikali, takror aytaman, kichik bir uchqun chiqsa, hammayoq lovullab yonib ketadigan bir vaziyatda men O'zbekiston rahbari sifatida ish boshlashimga to'g'ri kelgan edi..." (O'sha asar, 25-26-bb.) Nafaqat Erkin Vohidov singari xalqparvar va haqiqatgo'y ijodkorlarimizni, balki butun O'zbekiston xalqini chuqur qayg'u va qo'rquv-tahlikaga solgan Farg'ona vodiysi va boshqa hududlarda ro'y bergan voqealarning qanchalik dahshatli tus olganligi ham I.A.Karimovning ushbu kitobida barchaga tushunarli tarzda ro'yi-rost ko'rsatilganligini quyidagi xulosalar orqali yaqqol ko'z oldimizga keltiramiz: "Mustaqillikni qo'lga kiritish ostonasida turgan damlarimizni o'zimizga tasavvur qiladigan bo'lsak, butun O'zbekistonni, kerak bo'lsa, O'rta

Osiyoni portlatib-yondirib yuborishi mumkin bo'lgan, sobiq Ittifoqni larzaga solgan, "Farg'ona fojeasi" deb nom olgan mash'um voqealarni hayolimizga keltiraylik.

O'sha paytlarda sobiq Markaz tomonidan bizga qarshi qancha-qancha uydirmalar, tuhmat va bo'htonlar yog'dirilgani, hatto xalqimizga millatchi deb nom berishga urinishlar bo'lganini ko'pchilik hamon yaxshi eslaydi." Nihoyat, shoir aytganidek, "Ortda qoldi dard-sitam, Ketdi vahming, bitdi zahming, Topdi darmon o'zbekim". 1991-yil xalqimiz va mamlakatimiz tarixida unutilmas eng buyuk voqea sodir bo'ldi: dono va jasoratli yo'l boshchimiz Islom Karimov rahnamoligida xalqimiz erk va ozodlikka erishdi. Faqat Mustaqilligimiz tufayligina barcha jabru sitamlarga va adolatsizliklarga chek qo'yilganligini va har birimizning taqdirimizda bu tarixiy haqiqatning buyuk ahamiyatini aslo unutmasligimiz kerak.

Shu munosabat bilan E.Vohidov maqolalarida keng o'rin tutgan bir qator jiddiy muammolarimiz Mustaqillik sharofati bilangina oqilona hal etilganligini ham alohida ta'kidlab o'tish o'rinli bo'ladi. Masalan, shoirning "O'zbekchilik" va "Bizning odatlar" kabi maqola va suhbatlarida xalqimizning ba'zi yaxshi va ijobiy taomillari quyvatlanib, ularning muhim tarbiyaviy ahamiyati to'g'ri yoritiladi. Aksincha, eskirgan urf-odatlar va ba'zi nomaqbul diniy aqida va qarashlar esa tanqid qilinib, ular jamiyatimiz rivoji va kishilar ongu tafakkuriga ham salbiy ta'sir etishi mantiqiy dalillar bilan ko'rsatib berilgan. Chunonchi, dabdabali to'y-hashamlar, kelin-kuyovlarga haddan ziyod sarpoliboslar, ayniqsa, qimmatbaho mebellar va ortiqcha jihozlar olish kabi molparastlik odatlari avj olganligini kuyunchaklik bilan kitobxonlar hukmiga havola etadi. Eng achinarlisi, bunday odatlar illatga aylanib, o'rtacha yashayotgan oilalarni qiyin ahvolga solib qo'yayotganligini ham hayotiy misollar bilan

ifodalaydi. Muhimi yana shundaki, bunday tanqidiy munozabat shoirning bir qator she'rlarida ham o'zining haqqoniy ifodasini topgan. Chunonchi, Erkin Vohidovning "Nega yaponlar yuz yil yashaydi" kabi she'rlari bunga yorqin dalil bo'la oladi.

Biz yuqorida har bir iste'dodli shoir yo yozuvchi, jumladan, Erkin Vohidov ijodi va shaxsini o'rganishda ham uning nafaqat she'riyatini, balki boshqa janrdagi asarlarini hamda ijtimoiy faoliyatini bir butunlikda olib qarash maqsadga muvofiq ekanligini ko'rsatishga intildik. Yirik iste'dodlar hayoti va ijodi bilan yaqindan tanishgan tadqiqotchilar ularning turli janr va mavzuda yaratgan barcha asarlari umumiy ruhi va g'oyaviy-badiiy maqsadlariga ko'ra ichki bir butunlikni tashkil etadi, degan qarashlarni ilgari suradilar. Xuddi shundayin, Erkin Vohidovning mavzu va janr jihatidan rang-barang bo'lgan she'r-dostonlari va publitsistik maqolalari, suhbatlari ham mushtarak jihatlarga ega va ularning deyarli barchasi xalqqa xizmat qilishdek ezgu maqsadlar bilan yo'g'rilgan. Xalq shoir va yozuvchilardan hamisha haq gapni kutadi. Buning uchun ijodkordan tug'ma iste'dod bilan birga haq so'zni dadil ayta olish jur'ati ham talab etiladi. "Agar yozuvchining axloq kodeksi tuziladigan bo'lsa, men halollik bilan shijoatni birinchi modda qilib qo'yar edim. Chunki yozuvchining boshqa hamma xislatlari uning qay darajada halol, naqadar shijoatli zehniga bog'liqdir. San'at asarida yaxshini yaxshi deb odamlarga ibrat qilish, yomonni yomon deb odamlarni undan jirkantirish uchun shijoat kerak bo'lsa, shijoat halollikni talab qiladi. Shuningdek, shijoatsiz halollikning o'zi o'lik sarmoyadir", – degan edi realist yozuvchilarimizdan biri Abdulla Qahhor.

O'tmishda ham, bugungi kunlarimizda ham ana shunday shijoatli va haqgo'y adiblar ko'plab topiladi. Hassos tanqidchi va tarjimon Ibrohim G'afurov to'g'ri ta'kidlaganidek, Erkin

Vohidov o'zini she'rga bag'ishlagan va hech qachon she'ru she'riyatga xiyonat qilgan emas. U totalitar muhitning zamonasozligiga qat'iyat bilan qarshi turoidi. U qalbining amri bilan ijod qildi, o'z insoniy, ijodiy prinsiplarini mafkuraning shiddatli tazyiq va amrbozliklaridan saqlashga muyassar bo'ldi. Holbuki, o'sha zamonasozlik, totalitar tuzum, uning mafkurasl bilan murosasozlik ko'plab talantlarning erkin o'sishiga yo'l qo'ymadi, ba'zi talantlarni o'tmaslashtirib, ularni siyqa, ta'magir madhiyabozlik, maddohlik yo'sinida asarlar yozishga ko'ndirdi. Ijodning erkin tomirlarini kasallantirdi.<sup>22</sup> Ana shunday og'ir va murakkab sharoitda ijod qilish va haq so'zni aytish yosh adabiy avlodga ham oson bo'lmagan va ular ana shu hukmron komfirqa siyosatiga qarshi o'laroq haqiqatdan chekinmagan. Bu jihatdan Erkin Vohidovning taniqli adabiyotshunos Naim Karimov bilan "She'riyat-mehr demakdir" mavzusidagi suhbatidagi quyidagi fikri e'tiborga loyiq: "El ko'nglidagini topish va el ko'ngliga yo'l topish bu- she'riyat. Madh etish ham, rad etish ham she'riyat emas. Xalqni maqtagan shoir ulug' emas, uning o'zligini o'ziga ko'rsatib berolgan, ayovsiz gapni aytolgan shoir- ulug'. Mamlakatimiz buyuk, shoiri ko'p. Bu ulkan muhitda ajr alib ko'rinish uchun, demakki, xalqni ko'rsata bilish uchun shoir darvesh emas, o'ktam, so'zi keskir, o'zi shijoatli bo'lishi kerak."<sup>23</sup>

Shoirning ushbu samimiy iqror-so'zlaridan bir necha muhim haqiqatlarni anglab olishimiz mumkin. Eng avvalo, har bir iste'dodli adibu agar chinakam yurtparvar va insonparvar ijodkor bo'lsa- u hamisha el-yurtining g'am-tashvishiga ham, shodlik-quvonchlariga ham sherik bo'lib yashashi kerak. Boshqacha aytganimizda, haqiqiy shoir el-yurtining dardi-quvonchini o'zining dardi-quvonchiday bilishi lozim. Bu hayotiy haqiqat chinakam shoirlar uchun hamisha ijodning muqaddas

<sup>22</sup> Ibrohim G'afurov. Mangu latofat. Toshk. 2008, 83-b.

<sup>23</sup> Erkin Vohidov. Iztirob. Toshkent, 1992, 165-166-bb.

bir mezoni va qonuniyati bo'lgan desak xato qilmagan bo'lamiz. Fikrimizning isboti uchun buyuk Alisher Navoiyning xalqqa bo'lgan cheksiz muhabbati va sadoqatini ifodalovchi quyidagi mashhur satrlarini keltiramiz:

*Menga qilsa yuz jaf, bir qatla faryod aylamon,  
Elga qilsa bir jaf, yuz qatla faryod aylaram.*<sup>24</sup>

Ya'ni haqiqiy shoir-yozuvchilar o'zlariga nisbatan bo'lgan nohaqlik-adolatsizliklarga chidaydilar, ammo xalqiga nisbatan qilingan nohaqlik va adolatsizlikdan yuz karra ruhiy azob tortadi va iztirob chekadilar. Erkin Vohidov buyuk ustozlari Navoiy orzu qilganiday, ana shunday xalqparvar, vijdon va imoni butun ijodkorlarimizdan biridir.

*Qulluq qil, demasman,  
Yurt tuprog'in o'p,  
Unga qullar emas, Fidolar kerak,  
Uning senu mendek shoirlari ko'p,  
Buyuk elga endi daholar kerak...*

Erkin Vohidovning ko'p yillar davomidagi o'y-mushohadalari jamlangan kitobning "Iztirob" deb nomlanishining o'zi ham shoirimizning yuragidagi ana shu og'riqli haqiqat tuyg'ularini ramziy ma'noda ifodalab turgandek go'yo. Shu munosabat bilan bizning bu taxminiy mulohazamizga asos bo'luvchi va Erkin Vohidovning xalqimizga bo'lgan mehru sadoqatini va uning chinakam haqgo'y shoir ekanligini ko'rsatuvchi yana bir muhim dalilni keltirib o'tmoqchimiz.

Biz esga olib o'tmoqchi bo'lgan voqea Erkin Vohidov va unga tengdosh bo'lgan adabiy avlod boshidan kechirgan og'ir davrlarning, ya'ni "**haq so'zni aytish qiyin bo'lgan zamon**"da chinakam xalqparvar va yurtsevar ijodkorlar boshiga qanaqangi tazyiq va malomatlar, qanchalik nohaqlik va kulfatlar tushganligidan ham guvohlik berib turadi.

<sup>24</sup> N.Mallaev. O'zbek adabiyoti tarixi. Toshkent, O'qituvchi, 1976, 389-b.

Xalqimiz boshidan kechirgan ham shonli, ham qonli tariximiz, zng avvalo, Erkin Vohidov kabi yurtparvar shoir-yozuvchilarimiz va fidoiy ziyolilarimizning qalbini junbushga keltirib, qo'liga qalam tutqazganligi ko'plab she'r va maqolalarida, yirik badiiy asarlarida ham baralla aks etgan. Masalan, Qodiriy va Fitrat, Cho'l ponu Hamzalar dan boshlab ularga izma-iz adabiyot olamiga kirib kelgan keyingi avlod vakillari ijodida ham bu mavzu va g'oyalar yetakchi o'rin egallaganligini ko'rishimiz mumkin. El-yurtiga sodiq adiblarimiz o'z asarlarida xalqimiz va yurtimizning mustamlaka zulmidan ozod bo'lib, chinakam erkinlikka erishish yo'lidagi orzu-umidlarini haqqoniy aks ettirishni vijdoniy burchi deb bilgan.

Chunonchi, Erkin Vohidov o'sha og'ir va dolg'ali 1989-yilda yozilgan she'r va maqolalarini xalqimizga va Prezidentimizning dono siyosatiga chuqur ishonch bildirgan holda va o'zbekona katta umid bilan shunday tugatadi: "Men iztirob bilan boshlagan so'zlarimni umidbaxsh ohangda tugatgim kelmoqda. Noumid- shayton deydi xalqimiz. Ota yurtimiz omon bo'lsa, ko'p yaxshi niyatlarga yetarmiz.

Shunday kun kelarki, dehqon o'z yeriga o'zi xo'jayin bo'lar. Dehqon deganning bir tanob yeri bo'lsa, o'zi to'yib, yurtni to'ydiradigan holga kelsa. Shunday kun kelarki, paxtakor o'z paxtasini jahon bozori narxida dunyoga sotar. Qishloq bolasi ham shahar bolasidek maktabga loy kechib emas, asfalt yo'ldan borsa, umrining ko'pi dalada emas, maktab partasida mutolaa bilan o'tsa.

Shunday kun kelarki, o'zbek tili davlat tili deb e'lon qilinlar. Biz istagan idoraning eshigini qoqib, o'zbek tilida murojaat qilish huquqiga ega bo'larmiz. Keksa otalarimiz, onalarimiz ijroqo'm eshigida, vokzal kassasi oldida til bilmagani uchun abgor bo'lib, tilmoch qidirib o'tirmaslar.

Shunday kun kelarki, norasida bolalarimizga boqcha va maktablarda bir piyola sut majburan berilar. Axir gap naslning sog'lomligi ustida ketayotir-ku. Homilador ayollarimiz paxtaning og'ir va zararli mehnatidan ozod qilinlar. Yurtimiz ustida yana havo musaffo bo'lar. Kesilgan bog'lar tiklanar, lutilgan yaylovlar qaytarilar".

Darhaqiqat, sabr-bardoshli va matonatli xalqimizning asriy orzu-armonlari ro'yobga chiqdi va "O'zbekning yelkasiga oftob tekkanligi rost bo'ldi". Eng avvalo, Ollohning marhamati bilan va dono yo'l boshchimiz I.A.Karimov boshchiligida yurtimiz mustaqillikka erishdi. Mustaqillik xalqimizga erk va huquq berdi, o'zligimizni anglashga imkon berdi

Bir umr o'zining yuksak e'tiqodida sobit turgan shoirning Mustaqillik arafasida bitgan "Vatan istagi" she'rida ham yana xalqimizning asriy orzu-a'molarini va ona yurtimizning istiqbolini o'zining bedor qalbidagi jo'shqin his-tuyg'ulari bilan hamohang tarz da yorqin aks ettiradiki, natijada shoir kashf etgan haqiqatlar halqning orzu-armonlarga to'la ko'nglidagi ezgu haqiqat-so'zlariday chuqur hayotiylik kasb etadi:

*Bu vatanda bir Vatan*

*Qurmoqni istaydir ko'ngil,*

*O'zni ozod qush kabi*

*Ko'rmoqni istaydir ko'ngil...*

*Qutlug' istiqlol kunida*

*Ey Vatan, bag'ringda shod,*

*Erkin o'g'loning bo'lib*

*Yurmoqni istaydir ko'ngil.*

Endilikda mustaqil mamlakatimiz erishgan va erishayotgan ulkan muvaffaqiyatlar va amalga oshirilayotgan bunyodkorlik ishlari natijasida yurtimiz ham, ong-tafakkurimiz ham beqiyos darajada o'zgardi. O'tmishdagi hayot bilan bugungi hayotimizni taqqoslasak, yer bilan osmoncha farq bor. Barcha sohada chuqur

islohot va katta o'zgarishlar ro'y berganligi va ular jadal davom etayotganligini hatto horijliklar ham havas bilan tan olyapti.

Birgina ma'naviyatimiz sohasidagi yangilanish va o'zgarishlarni ko'z oldimizga keltiraylik. Mustaqil yurtimizda milliy va umuminsoniy qadriyatlarimizga va ulug' ajdodlarimiz merosiga bo'lgan munosabat, ayniqsa, O'zbek tili va adabiyotimizga bo'lgan yuksak e'tibor va cheksiz g'amxo'rlikdan har bir vatandoshimiz haqli ravishda g'ururlanadi. Birinchi Prezidentimiz I.A.Karimovning 2016-yil 13-maydagi Farmoniga asosan Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat O'zbek tili va adabiyoti universiteti tashkil etildi.

Ona tili va adabiyotimizning ravnaqi va kelajagini belgilovchi va uning dunyo miqyosidagi xalqaro obro'-e'tibori va umuminsoniy nufuzini beqiyos ko'taruvchi bu tarixiy qaror xalqimiz ma'naviyati va tafakkuri rivojida tengsiz ahamiyat kasb etishini tasavvur qilar ekanmiz, qalblarmiz quvonchu iftixorga to'ladi. Ayniqsa, eng zamonaviy talab va mezonlar asosida va g'oyat ulkan va mas'uliyatli vazifalarni hal etish maqsadlarida yangi tashkil etilgan bu oliy dargohning Alisher Navoiy nomi bilan atalishida ham chuqur ijtimoiy va ramziy ma'no bor. Zero, mumtoz adabiyotini dunyo miqyosiga olib chiqishda va o'zbek tilimizning butun sehru-jozibasini va cheksiz imkoniyatlarini ham ilmiy- nazariy, ham amaliy va badiiy jihatdan isbotlab berishda Navoiyning xizmatlari beqiyosdir. Bu tarixiy haqiqat Erkin Vohidov she'riyati va maqolalarida alohida mavqega ega.

Shu o'rinda yana bir muhim haqiqatni xolisona e'tirof etib o'tmoqchimiz. Mumtoz adabiyotimiz sohasida jiddiy tadqiqot va izlanishlar olib borayotgan yuzlab adibu tilshunoslar va adabiyotshunoslar ichida O'zbek tilimizga Davlat tili maqomi berilishi jabha sida va Navoiyning tengsiz siymo ekanligi, beqiyos ijodi va yuksak san'atkorligi haqida Erkin

Vohidovchalik teranlik va sharqona nuktadonlik bilan yozgan ijodkor kamdan-kam topilsa kerak. Shoirning so'nggi asari bo'lgan **"So'z latofati"** buyuk Navoiyning **"Muhokamat ul-lug'atayn"** asaridan ta'sirlanib va ilhomlanib yozilganligi ham ma'naviy hayotimizda muhim bir voqea bo'ldi deyish mumkin. Shu boisdan ham xalqimizning, xususan, Erkin Vohidov singari fidoyi ijodkorlarimizning bu tarixiy Farmondan quvonchi cheksiz ekanligi tabiiy.

Ushbu tarixiy Farmon munosabati bilan Erkin Vohidovning ko'plab she'r-dostonlari va publitsistik asarlarini ko'z oldimizga keltiraylik. Mustaqilligimizdan oldin buyuk ajdodlarimizga nisbatan qanchalar ta'qiqlar bo'lmadi? Yoki Navro'z singari milliy va umuminsoniy qadriyatlarimiz nohaq qoralanib, unutilishga mahkum qilinganligini bugungi yoshlarimiz bilishmasa ham kerak. Erkin Vohidov singari yurtparvar va jasoratli shoir va yozuvchilarimiz mustabid tuzumning ta'qiq va tazyiqlariga qaramasdan, xalqimizning buyuk tarixiy o'tmishini imkon qadar haqqoniy tasvirlashga erishganligi bugungi ijodkor yoshlarimiz uchun ham ibratlidir. Shoirning birgina **"O'zbekim"** qasidasi xalqimizning o'zligini anglashi va o'ziga ishonchini oshirishda tengsiz rol o'ynaganligi ko'pchilikning yodida bo'lsa kerak. Ko'lna qasida janrining zamonaviy porloq namunasi bo'lgan bu asar she'riyatimizning yuksak bir cho'qqisi bo'lishi bilan birga hukmron kommunistik mafkura va mustabid tuzum uchun xavfli bir ma'naviy kuchga aylanganligini ko'plab yetuk ziyolilarimiz va salohiyatli adabiyotshunoslarimiz faxr bilan esga olishadi. Hatto qasidani qo'shiq qilib aytgan Faxriddin Umarov kabi talantli xonandalarimiz ham ta'qib ostiga olinganligini tasavvur qilish qiyin. Chunki qasidada xalqimizning va buyuk ajdodlarimizning ham qonli, ham shonli kechmishi Erkin Vohidovga xos yuksak badiiy mahorat va mardona haqgo'ylik bilan eng avj pardalarda kuylangan edi.

*Tarixingdir ming asrlar  
Ichra pinhon, o'zbekim...  
Ko'hna tarix shodasida  
Bitta marjon o'zbekim...  
Tuzdiyu Mirzo Ulug'bek  
Ko'ragoniy jadvalin,  
Sirli osmon toqiga ilk-  
Qo'ydi narvon, o'zbekim.  
Mir Alisher na'rasiga  
Aks-sado berdi jahon,  
She'riyat mulkida bo'ldi  
Shohu sulton, o'zbekim.  
Ilmu she'rd a shohu sulton,  
Lek taqdiriga qul,  
O'z elida chekdi g'urbat,  
Zoru nolon, o'zbekim.*

Bu bandlar va misralarda ifodalangan olamjahon ma'no-mazmunni va ular zamiridagi ham o'kinch-armonlar, ham faxru-g'urur tuyg'ularini, afsuski, hammamiz ham haligacha chuqur anglab yetolmaganimizni tan olishimiz kerak. Haqiqatan ham, ilmu fanda Beruniy, Ibn Sino, Farobiy va Ulug'bekdek buyuk bobolarimiz va she'riyatda Navoiydek tengi yo'q ajdodlarimiz bo'lsayu ammo xalqimiz o'z yurtida erkin bo'lolmasa, bundan ortiq adolatsizlik va nohaqliklar bo'ladimi? Sobiq sovet tuzumida mustamlaka siyosatiga qullarcha tobe bo'lgan xalqimiz o'zining bunday buyuk ajdodlari va milliy qadriyatlari bilan faxrlanish u yoqda tursin, hatto ularning nomini erkin tilga olishga ham botinolmasdi. Erksizligimiz shu darajada ediki, O'zbekistonday ona yurtimizda O'zbek tilimiz Davlat tili darajasida huquq va imkoniyatga ega emas edi.

Darhaqiqat, bundan 50 yillar muqaddam yozilgan, ammo sobiq sho'ro davridagi hukmron mafkura tazyiqiga duchor bo'lib, shoirimizga qancha ta'nayu dashnomlar keltirgan "O'zbekim" qasidasida ham, eng avvalo jafokash xalqimizning asriy orzu-armonlari chuqur hamdardlik bilan ifodalanganligi adabiyotimizda katta bir voqea bo'lganligi ayni haqiqat:

*-O'tdilar sho'rlik boshingdan*

*O'ynatib shamshirlarin*

*Necha qoon, necha sulton,*

*Necha ming xon, o'zbekim...*

*Tarixing bitmakka, xalqim,*

*Mingta Firdavsiy kerak,*

*Chunki bir bor chekkan ohing*

*Mingta doston, o'zbekim...*

*Ma'rifatning shu'lasiga*

*Talpinib zulmat aro,*

*Ko'zlaringdan oqdi tunlar*

*Kavkabiston, o'zbekim.*

*She'riyatning gulshanida*

*So'ldi mahzun Nodira,*

*Siym tanni yuvdi ko'z yosh,*

*Ko'mdi armon, o'zbekim.*

*Faxr etarman, ona xalqim,*

*Ko'kragimni tog' qilib,*

*Ko'kragida tog' ko'targan*

*Tanti dehqon, o'zbekim...*

Keltirilgan parchadagi so'nggi bandning ma'nosini tushunishga va shoirning asl muddaosi va g'oyaviy- hadiylar niyatini to'g'ri anglashga urinib ko'raylik. Chindan ham, o'zbek dehqoni, o'zbek paxtakorlari asrlar davomida mashaqqatli mehnat qilib, ter to'kib million tonnalab paxta yetishtirib keladi.

Lekin bu dehqon, Erkin Vohidovning maqola va suhbatlarida ro'yi-rost aytilganidek, o'z yeriga, dalasiga o'zi xo'jayin emas edi. Bu achchiq haqiqat sobiq sho'ro davrida ham ko'plab realist shoir va yozuvchilarimizning yetuk asarlarida u yoki bu darajada haqqoniy ko'rsatilgan edi.

Bu fikrimizga dalil tariqasida ustoz adiblarimizning o'lmas an'analarini ijodiy davom ettirgan Tog'ay Murodning "Otamdan qolgan dalalar" yoki Shavkat Rahmon, Muhammad Yusuf, Azim Suyun, Mahmud Toyir... kabi haqgo'y shoirlarimizning ko'plab yetuk she'rlarini keltirishimiz mumkin. Chunonchi, Tog'ay Murodning "Otamdan qolgan dalalar" romanida sobiq sho'ro davrida xalqimiz, ayniqsa, paxtakor va dehqonlarimiz boshidan qanday azob-uqubatlarni kechirgani va ularning ko'z yoshlariyu orzu-armonlariga dalalarimiz ham hamdard va tilsiz guvoh ekanligi shunday tasvirlanadi: "Dalalarim bobolarim achchiq ko'z yoshlaridan dala bo'ldi. Dalalarim otalarim sho'rpehona terlaridan dala bo'ldi. Dalalarim ayollarim gulday xazon umridan dala bo'ldi..."<sup>25</sup> Bunday og'ir jabr-u sitamlarga va adolatsizliklarga faqat Mustaqilligimiz tufayligina chek qo'yilganligini va yurtimizda amalga oshirilayotgan barcha ulug'vor ishlar eng avvalo Istiqlolimiz sharofati bilan ro'y berayotganligini aslo unutmasligimiz kerak.

Erkin Vohidovning she'riyati bilan publitsistik asarlari qanchalik yakdil va yaxlit ekanligini yaqqol ko'rsatuvchi misollarni hech qiynalmasdan keltirish mumkin. Masalan, shoirning "Donishqishloq latifalari" turkumidagi hajviy she'rlar va Matmusa obrazi yoxud "O'zbek Navoiyni o'qimay qo'ysa" singari xalqona yumor bilan sug'orilgan she'rlaridagi hayotiy g'oya va fikrlar uning bir qator maqolalarida ham olg'a surilgan.

---

<sup>25</sup> Tog'ay Murod. Otamdan qolgan dalalar. T. 1994, 262-b

Yoki Erkin Vohidovning Mustaqillik arafasida yozgan "Xalq deputatlariga" she'rini olib ko'raylik. Undagi har bir satr zaminida ifodalangan hayotiy ma'no va fikrlar, aslida, xalqimizning yuragidagi orzu-armonlar ekanligiga ishonch hosil qilish uchun quyidagi misralarni yana bir marta xayolimizdan o'tkazaylik:

*-Sizni xalq tanladi,  
Qilmadi suyak,  
Balki yelkangizga yuk ortdi buyuk.  
Deputat nishonin taqqach ko'krakka,  
Quloq solib ko'ring yurakka.  
Ul yurak tubida el g'amidan g'am,  
Dog'idin ko'ngilda dog'ingiz bormi?..*

*Dardni aytgan bilan dil bo'lmas xalos,  
Gapni ko'p gapirdik, ish qoldi, xolos.  
Qarorlardan bo'ldik, ilojlar kerak,  
Hasratlardan to'ydik, rivojlar kerak...<sup>26</sup>*

She'rda aks ettirilgan hayotiy fikr-g'oyalar va undagi salmoqli o'y-tashvishlarni yurakdan o'tkazib, ular zamiridagi insoniy his-tuyg'ularni sabab-oqibatlarini anglab yetgan o'quvchi beixtiyor Erkin Vohidovning sobiq sho'ro davridagi SSSR xalq deputatlarining haftalab majlis qilishlariyu ma'nisiz va natijasiz tortishuv (debatlari)ni tanqid qilib, bildirgan jiddiy fikr va takliflarini ham yodga oladi. Bularning barchasi Erkin Vohidov ijodining, jumladan, uning maqola va suhbatlarining ham markazida hamisha el-yurtimiz va xalqimiz hayoti va kelajagi haqidagi mas'uliyat va daxldorligi hamda yuksak orzu-umidlari aks ettirilganligidan guvohlik berib turadi. Erkin Vohidov ijodining bunday jihatlari **"Xalq bilan muloqot va**

<sup>26</sup> Erkin Vohidov. Iztirob. Toshkent, 1992, 92-93-bb.

**inson manfaatlari yili**"da yanada ko'proq ahamiyat kasb etishi shubhasizdir. Chunki xalqning dilidagi, tilining uchidagi gapni topib aytish, uning dardlariga sherik bo'lishdek yuksak insoniy fazilatlarni Erkin Vohidov asarlaridan, u kishining nurbaxsh suhbatlaridan o'rgansak arziydi. Ustozning **"So'z latofati"** asari bu borada o'ziga xos ma'rifat saboqlari bo'la oladi. Erkin **latofati**" asari bu borada o'ziga xos ma'rifat saboqlari bo'la oladi. Erkin Vohidovning ko'pgina nutq- maqolalari, she'r va suhbatlarida juda keskin ifodalangan yana bir muammo borki, bu hech bir vatandoshimizni befarq qoldirmasa kerak. Bu-mustaqil yurtimizdagi har bir fuqaroning mamlakatimiz kelajagi va xalqimiz hayoti uchun daxldorlik va mas'uliyat tuyg'usi. Loqaydlik esa jamiyatimiz hayoti va ravnaqi uchun eng xavfli illatdir. Xalqimizda ming asrlar davomida yashab kelayotgan va biz saqlab qolishimiz kerak bo'lgan aqida va odatlarimiz ko'p. "Nima ishim bor! yoki Nima ishing bor?" qonuni bilan yashash jamiyatimizning ofati desam bo'ladi. Bu – xudbinlik dunyosining falsafasi. Biz qurayotgan adolatli, huquqiy demokratik jamiyat esa insonning insonga bo'lgan mehru oqibati asosiga qurilgan jamiyat bo'ladi..." Kelajakni oldindan ko'ra olgan ustoz shoirimizning bunday ezgu g'oyalari yurtimizda xayrli niyatlar bilan boshlangan "Xalq bilan muloqot va inson manfaatlari" yili dasturida belgilangan olijanob g'oya va yuksak maqsadlarimiz bilan qanchalar hamohangligini alohida ta'kidlash lozim.

Shoirning yuqorida biz ko'rib o'tgan maqolalari, nutq va suhbatlarining mushtarak jihatlaridan biri shundaki, ularning deyarli barchasi xalqimiz va jamiyatimizning ma'naviy- ruhiy ehtiyojlari talablaridan kelib chiqib yozilgan. Boshqacha aytganda, ularda xalqimizning ko'nglidagi va tilining uchidagi so'z-fikrlar topib aytilgan. Eng muhimi shundaki, ularda

bugungi va ertangi hayotimizning g'oyat dolzarb muammolari katta bir donishmandlik va bashoratgo'ylik (agar shunday deyish mumkin bo'lsa) bilan yoritilgan. Shoirning ko'p yillik tajriba va kuzatishlari va ijodiy mahoratining samarasi bo'lgan, hamisha bedor va bezovta qalbining kechinmalari sifatida san'atkorona ifodalangan publitsistik asarlaridagi ustuvor jihatlardan yana biri shundaki, ular da yuksak ma'naviyat sohibi bo'lgan xalqimizning zakovati va kelajakka umid-ishonchi ham yorqin aks etib turadi.

Erkin Vohidovning chinakam yurtparvar bir mutafakkir shoir sifatida g'oyat hozirjavoblik, chuqur hamdardlik va umidvorlik bilan yozgan asarlarining qanchalik haqqoniy va asosli ekanligini nafaqat voqelar rivoji, balki Mustaqillik sharofati bilan amalga oshirilgan ulkan ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy o'zgarishlar va so'nggi yillarda xalqimiz hayotida yuz bergan tub burilishlar ham to'la tasdiqladi.

Ayniqsa, bu asarlarning muhtaram birinchi prezidenti-mizning "Ona yurtimiz baxtu iqboli va buyuk kelajagi yo'lida xizmat qilish- eng oliy saodatdir" kitobida ifodalangan chuqur tarixiy haqiqat va yuksak insonparvarlik g'oyalarga ham mazmunan, ham ruhan hamohangligi e'tiborlidir. Zero, ular Mustaqilligimiz xalqimiz taqdirini belgilab bergan eng buyuk tarixiy g'alaba ekanligi va yurtimizdagi tinch-farovon hayotning mustahkam zamini ekanligini yanada chuqurroq anglab yetishimizda beqiyos ahamiyat kasb etadi.

Mutafakkirlar dunyoda ikki narsa mangu yashab qoladi. Bular- dononing so'ziyu botirning ishi, deydilar. "El ustozim, men- tolib",- deya, yuksak e'tiqod bilan yashab- ijod etgan ulkan talant sohibining vatanga muhabbat va sadoqat ruhi bilan yo'g'rilgan asarlari ham, shubhasiz, ana shunday abadiyatga daxldor ma'naviy-ruhiy hodisalar sirasiga kiradi.

Erkin Vohidovning teran g'oyaviy-badiiy ijodiyoti va uning qizg'in ijtimoiy faoliyati xalqimiz va davlatimiz tomonidan yuksak qadrlandi. U "Buyuk xizmatlari uchun" ordeni bilan mukofotlangan. Birinchi Prezidentimiz I.A.Karimovning 1999 yil 25 avgustdagi Farmoniga muvofiq Erkin Vohidov vatanimizning eng yuksak mukofoti - "O'zbekiston Qahramoni" unvoni bilan taqdirlanib, unga "Oltin yulduz" medali taqib qo'yilgan.

Ulkan iste'dod sohibi, yirik ijodkor va jamoat arbobi Erkin Vohidov hamisha Vatan, xalq baxt-saodati va adabiyotimiz ravnaqi yo'lida fidoyilik bilan xizmat qildi. Afsuski, beshafqat o'lim 2016-yil 30-may kuni xalqimizning asl farzandi, adabiyotimizning buyuk namoyandasi Erkin Vohidovni oramizdan olib ketdi. Bu- xalqimiz uchun, adabiyotimiz va ma'naviyatimiz uchun ham og'ir yo'qotish bo'ldi. Oxiratlari obod bo'lsin, deymiz.

Muhtaram Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoevning 2016-yil 7-dekabrdagi qaroriga asosan Erkin Vohidov tavalludining 80 yilligi mustaqil yurtimiz bo'ylab keng nishonlandi.

Farg'onada shoirning Uy-muzeyi tashkil etilishi, Marg'ilondagi ko'rkam madaniyat va istirohat bog'iga Erkin Vohidov nomi berilishi hukumatimiz va xalqimizning chinakam ijod ahliga nisbatan yuksak mehr va e'tiqodining yorqin bir ifodasiga aylandi.

Prezidentimizning mazkur qaroriga asosan Erkin Vohidov nomi abadiylashtirilib, shoirga muhtasham haykal o'rnatilishi, shubhasiz, minnatdor xalqimizning chuqur hurmat va ehtiromi ramzi bo'lib qolajak. Zero, e'zozli shoirimizning el-yurtga va ona- vatanimizga mehr va sadoqatining yuksak ifodasi bo'lgan "Iltijo" she'ri barchamizga qoldirgan ezgu bir vasiyati, unutilmas nidosi hamdir:

*Menga nasib etmish shunday mamlakat,  
Mamlakatki, olam mulkida tanho...*

*U jahon ichida bitta jahondir,  
Bir ko'rgan umrbod qilgusi havas.  
Yerning tortish kuchin yengmoq osondir,  
Ona- Yer mehridan uzilib bo'linas.*

*Do'stlarim, har qayda bo'ling salomat,  
Omon qayting uyga olis makondan.  
Tilagim, hech qachon, hech qachon qismat  
Bizni ayirmasin O'zbekistondan.*

## **VATAN VA ISTIQLOL ILHOMLARI**

### **Azim Suyun she'riyatida Vatan timsoli**

Qadimdan buyuk mutafakkirlar va san'atkorlar tomonidan aytilgan bir naql bor: haqiqat qiyoslarda namoyon bo'ladi, deyдилar. Ana shu hayotiy hikmatdan kelib chiqib, odamzod umrini ham fasllarga qiyoslaydilar. Ko'p shoirlar unga bag'ishlab she'rlar bitganlar. Chunonchi, yoshlikni bahorga mengzaydilar. Keksalikni esa xazonrezgi yaproqlari yanglig' sarg'aygan ma'yus faslga- kuzga qiyoslashadi. Taniqli shoirimiz Azim Suyun so'nggi yillarda yozilgan asarlaridan jamlangan yangi to'plamini "Vatan fasllari" deb nomlashida ham o'ziga xos hayotiy hikmat va ma'no mujassamlashgan. Ya'ni shoirning ko'p yillik ijodiy mehnati, va poetik mushohada va izlanishlarining samarasi bo'lib maydonga kelgan bu kitob besh fasl- qismdan iborat.

Ularning har biriga alohida nom- sarlavha berilgan: birinchi faslidagi tur kum she'rlar "Sajdagoh" va "Sohibqiron haykallari

poyida” deb nomlansa, “O‘zbyek davlati” deb nomlangan doston ikkinchi faslini tashkil etadi. Uchinchi fasli “Shu’lalar rangi”da ham shoirning bir turkum she’rlari jamlangan va “Muhabbat hayratlari” deb atalgan beshinchi faslda muallifning azaliy ishq-muhabbat mavzusidagi nazm namunalari bamisoli bir guldasta sifatida tartib berilgan.

To‘plamning alohida bir fasli “Olam- hikmat kitobi” deb atalgan va u shoirning o‘ziga xos nasriy bitiklaridan – qayirmalaridan tashkil topgan. Garchand, kitob bir necha fasllarga ajratilgan va turlicha nomlangan bo‘lsa-da, ular, eng avvalo, o‘z iste’dodi va shoirona nigohi bilan tanilgan Azim Suyundek yetuk ijodkor ning qalb va tafakkurining poetik ifodasi bo‘lgan yaxlit va tugal badiiy-estetik bir olam sifatida taassurot qoldiradi. Binobarin, to‘plamdagi fasllar, ularning ramziy va falsafiy nomlanishi orqali ham shoirning muayyan g‘oyaviy-badiiy maqsadi ifodalanganligini anglash kitobdagi asarlarga xos bo‘lgan mushtarak hayotiy mazmun va tuyg‘ularni chuqurroq his etishimizga yo‘l ochadi.

Kitobning “Sajdagoh” deb atalgan ilk fasli inson uchun eng muqaddas va buyuk qadriyat sanalmish Vatan madhi, vatan g‘ururi ifodalangan yetuk nazmiy bitiklar- o‘ziga xos she’riy satrlar bilan boshlangan:

*Qadim erka soylardan oqib kelar gul isi,*

*Olma gulining isi, zardoli gulin isi.*

*Yulduzlarmi, oylardan qalqib kelar gul isi,*

*Jiyda gulining isi, qaroli gulin isi.*

*Gullar atrin taratgan tog‘imsan, Vatan o‘zing,*

*Ko‘ngillar qulfin ochgan bog‘imsan, Vatan, o‘zing.*

Haqiqiy she’r va san’at “yuqumli” bo‘lishi kerak,- deydi ustoz shoir va mutafakkirlar. Buning uchun esa she’rda o‘quvchi

qalbi va ongiga ta'sir eta oluvchi muhim hayotiy fikr-g'oya va yuksak va samimiy insoniy his-tuyg'ular ifodalanishi talab etiladi. Azim Suyunning yuqoridagi she'riy misralari orqali o'quvchi ona-yurtimizning xushbo'y havosini tuygandek, uning purviqor tog'lari va qadrdon bog'larini kezugandek his etadi o'zini. Bunday holat, albatta, eng avvalo, she'rda aks ettirilgan vatan timsollarining haqqoniyligi va tabiiyligi va albatta, shoirning mahorati va so'z san'atkorligi tufayli yuz beradi. She'r matnidagi qadim, erka soylar, gul isi oqib, qalqib kelishi kabi sof milliy tasvirlar yoxud "qulfi-dili ochilishi" singari o'zbekona ifodalar she'rning hayotiyligini va huzurbaxsh ohangdorligini kuchaytirishi bilan birga kitobxon qalbidagi vatan mehrini ham jonlantiradi.

Shoirning "Vatan" deb nomlangan she'ridagi quyidagi satrlarni o'qiganimizda esa buyuk ajdodlarimizdan bizga meros bo'lgan qadimiy yurtimiz To'ronning shonli va suronli tarixiy kechmishi yko'z oldimizda namoyon bo'ladi:

*O, To'ron yerlari,*

*O, To'ron ellar,*

*Ne salaf urhosin eshitmagansiz.*

*Bugun uchib keldi*

*Siz kutgan yellar.*

*Hech qachon bu qadar entikmagansiz,*

*Onamiz To'maris,*

*Otamiz Shiroq*

*Non tutib turibdi yengliklarida.*

*Ozodlik yagona,*

*Ozodlik- bayroq*

*Ulkan Osiyoning kengliklarida!*

She'r so'ngidagi mardona satrlarda ifodalangan buyuk haqiqat har bir o'quvchi qalbida aks-sado beradi, uni

junbushga keltiradi va cheksiz quvonch va iftixor hislari bilan to'ldiriladi. Shoir haq: el- yurtimiz "Hech qachon bu qadar entikmagan! Chunki xalqimizning asriy orzulari ushlab, yurtimiz ozod va mustaqil bo'ldi. Shoirning tengsiz quvonch baxti ham, jo'shqin ilhomi va masrurligi ham – ana shu ozodlik va mustaqillik shukuhidan.

Vatan ozodligi va mustaqilligi qanchalar buyuk saodat ekanligini chuqurroq anglash uchun mustamlakachilik davridagi yaqin o'tmishimizni va adabiyotimiz tarixini yodga olaylik. XX asrning boshlarida Fitratu Cho'lponlar ijodidan boshlanib, 80-yillar adabiyotigacha bo'lgan she'riyatimizda Vatan mavzusi, asosan, ma'yus va maxzun ohanglarda kuylanib kelinar edi. "O'zbekistonni- Vatanimni sevaman, Vatanim bilan faxrlanaman!" – deyish uchun shoir o'z hayotini xavf-xatarga qo'yishi lozim edi. Vatanni ozod va erkin ko'rish orzusi ba'zi shoirlar ijodida o'ziga xos poetik nido va isyon tarzida ham ifodalanib kelindi. Nihoyat, 1991-yilga kelib buyuk Istiqlol tufayli Vatanimiz erkin va ozod bo'ldi.

Ardoqli shoiramiz Zulfiya aytganidek, qancha yillar intilq bo'lib, pinhona kutilgan Mustaqillik shoiru adiblarga va barcha san'atkorlarga endi ozod yurtimizni baland ovoz va g'urur bilan tarannum etish baxtini berdi.

Erkin Vohidov va Abdulla Oripovlar sarboni bo'lgan ushbu she'riyat karvonining iste'dodli bir vakili Azim Suyun ham o'z so'zi, ovozi va ohangi bilan ana shu ulkan tarixiy voqeaning mohiyatini va uning ildiz-manbalarini yoritishda poetik mahoratini namoyon etmoqda. Uning "Sohibqiron haykallari poyida" deb atalgan she'riy turkumi fikrimizning dalili bo'la oladi. Chunonchi, "Samarqand" nomli she'rida Sohibqiron bobomizning buyuk maqsadlar sari shaylangan olmos burgut yanglig' ulug'vor timsoli shunday tasvirlanadi:

*O', o'shanda... Urgut tog'larin  
Zirvasida turardi otda.  
Yer yuzini qanoti ostiga  
Olmoq bo'lgan olmos burgutday  
Zarafshon sola-a-r gulduros...  
"Bas, Samarqand poytaxt bo'lur, bas!"*

Mustaqillik tufayli shon-shavkati tiklangan Amir Temur bobomiz sharafiga ona-yurtimizning ko'plab shaharlarida qad rostlagan muazzam haykallar qoshida shoir ham o'zini yuksak she'riy ilhom og'ushida sezadi va Vatan sharafiga, ahukuhi uning sadoqatli farzandlari bilan ulug' va qudratli ekanligini anglatganday bo'ladi bizga. Ushbu turkum she'rlar Amir Temurning Shahrisabz, Samarqand va Toshkentdagi haykallari poyida bitilganligi ham Mustaqillikning yil sayin mustahkamlanib, o'zligimizni anglash yo'lidagi milliy g'oya va tafakkurimizning ham yuksalib borayotganligidan guvohlik bergundek taassurot qoldiradi.

She'riy turkumning alohida bir bo'limi "Yurak" deb nomlangan va unda ham chuqur vatanparvarlik va millatparvarlikning o'ziga xos, shoirona ramziy ifodasini ko'ramiz. Ya'ni she'rdagi lirik qahramon Sohibqiron bobomizning haykalini nafaqat ong-tafakkurida, balki o'z yuragiga ham bu buzrukvor siymoning timsolini o'rnatganini tuyamiz:

*Dunyoda bor talay jahongir,  
Qabrlari yo'q erur biroq.  
Ertasiga ishonmay ular  
Qoldirmagan bir qism tuproq.  
Ziyoratgoh- Temurbek qabri,  
Buni bilar kelajak ahli!*

Darhaqiqat, ushbu misralar zahirida ulkan tarixiy haqiqat va o'tmishning hayotiy saboqlari ham aks etgan deyish mumkin. Ularni o'qigan har bir yurtdoshimizning qalbida ham buyuk ajodlarimizning ana shunday muqaddas ma'naviy va ruhiy haykal-siymolari tiklansa ne ajab. Mutafakkirlar aytganidek, Vatanni ko'tarinki hayqiriqlar yoki balandparvoz shiorlar bilan sevib, tarannum etib bo'lmaydi. Uni sevish va ardoqlash uchun, avvalo, o'zlikni anglash va shu vatandan ayrilmaslik, shu yurt-diyorsiz o'zni tasavvur eta olmaslikday kuchli va muqaddas tuyg'usi bo'lishi talab etiladi kishi qalbida. Zero, shoir aytganidek:

*O'zimni tanidim, ko'klarga uchdim,  
Momiq bulutlarning havosin ichdim-  
Ko'zlarim to'ymadi, ko'zlardan kechdim.  
Vatan! Ont ichmayman, qasam ichmayman,  
Lekin ikki dunyo sendan kechmayman!*

She'rdagi "Ko'zlarim to'ymadi, ko'zlardan kechdim" satrining tagma'nosi ni tushunishga va shoirning yuksak g'oyaviy-badiiy niyatini anglashga harakat qilib ko'raylik. Eng avvalo, she'rdagi lirik qahramonning insoniylik darajasi va mezoni o'quvchini hayratga soladi: O'zini tanigan va o'zini bir nafas vatandan ayro tasavvur etolmaydigan inson-bu, shubhasiz, buyuk mutafakkirlarimiz orzu etgan komil insondir. Chunki u bu dunyo ajoyibotlariyu ne'matlaridan o'zini, shaytoniy nafsini tiya olgan va olamga ko'ngil ko'zi bilan qaray olgan iymonli, yetuk insonligi uning to'ymaydigan ko'zlaridan voz kechganligi bilan ham namoyon bo'ladi. Shoir insoniy komillikning oliy mezoni bo'lgan ana shu yuksak aqidani inson ruhiyatidagi javhar – yurtparvarlik tuyg'usi bilan omuxta qilgan holda ifoda etgan. Ya'ni shoir joni uzilganda ham

yumilmaydigan, to'ymaydigan nafs ko'zlaridan kechib, Vatan bilan qolmoqni yuksak matlabi deb biladi:

*Oh-oh, aylanayin bo'yingdan o'zim,  
Yuzim o'zingdiansan, o'zingsan ko'zim.  
Senga qo'shiqlarim ko'p erur mening  
O'lsam, quchog'ingda o'lurman sening!  
Vatan! Ont ichmayman, qasam ichmayman,  
Lekin ikki dunyo sendan kechmayman!*

Aslida, Vatan azaldan yaxlit va yagonadir. Uning cho'lu sahrosini, tog'lariyu bog'lari va dashtu dalalarini bir-biridan ajratmasdan birdek sevish va qadrlash chinakam vatanparvarlik fazilatidir. Bu jihatdan Azim Suyunning mazkur asaridagi ikkinchi fasl, ya'ni "O'zbek davlati" deb nomlangan dostoni alohida ajralib tura di. Bu doston ustoz shoirlarimiz- Cho'lpon, Oybek, Hamid Olimjon, Mirtemir va Shayxzodalar boshlab bergan va Erkin Vohidov, Abdulla Oripovlar tomonidan yanada jo'shqin ilhom bilan kuylangan O'zbekistonimizning jannatmisol tabiati va go'zalliklari hamda asriy qadriyatlarini ulug'lashi bilan o'zaro hamohanglik va mushtaraklik kasb etadi.

Azim Suyunning Vatanga bag'ishlangan asarlaridagi muhim bir milliy o'ziga xoslik shundaki, u Vatanni bahor faslidagi go'zalliklar bag'rida tarannum etish bilan birga uni go'zal bir ma'shuqaga ko'ngil qo'yganday otashin ishq bilan sevib kuylaydi. Fikrimizning dalili sifatida quyidagi satrlarga nazar tashlaylik:

*Onam sevgan olmazor, shoyidek taram olma,  
Tilim-tilim taramsiz xuddi yuragim kabi  
Onamning yodi haqqi, yashnab-yashnashdan tolmang,  
Onamning ruhi haqqi. assalomu alaykum,  
Assalomu alaykum.*

Zamondoshimiz bo'lgan lirik qahramonning his- tuyg'ulari jilolari va timsollar rang-barangligini kuchaytiruvchi bunday misralarda shoir sevgan birgina olma timsoli orqali, aslida, ona ruhiga va yanada kengroq mushohada qilsak, ona-Vatanga salom bermoqda va ta'zim etmoqda. To'plamdagi "Sangardak sharsharasi" va "Tog' ko'llari" uabi she'rlarda ham ona-yurtimizning betakror go'zallik va ajoyibotlari ana shunday kuylangan. Natijada o'quvchining ko'z oldida "sharshara emas, o'zbek shoyisidek" latif va nozik go'zallik gavdalansa, "Tog' ko'llari"ni mutolaa qilish asnosida purviqor va bir qadar dag'alroq "yovvoyi chiroy", boshqacha aytganda, turkona bir go'zal manzara namoyon bo'ladi.

Kitobning "Olam-hikmat kitobi" deb nomlangan fasli janr va shakliy jihatdan boshqa fasllardan farqli o'laroq, nasriy yo'lda yozilgan qayirmalardan tashkil topgan. Lekin ular ham o'zining hayotiy va falsafiy ma'nodorligi va rang-barangligi bilan to'plamning g'oyaviy-badiiy mazmundorligini oshirganligini ta'kidlash lozim. Eng muhimi, ular ham to'plamning umumiy ruhiga mos va deyarli barchsai chuqur vatanparvarlik tuyg'usi va yurtparvarlik ruhi bilan sug'orilgan. Chunonchi, quyidagi bir-ikki nasriy qayirmalar bilan tanishgan kitobxon bunga to'la ishonch hosil qilishi mumkin:

O', mening Vatanim- O'zbekistonim, tog'da yotgan toshingning ham tarixi bor! Ertaklarda devlar joni o'zida emas, allaqaerlarda: g'orlarda, tog'lar ichida, sandiqlardami saqlanar ekan. Chin inson joni esa hamisha Vatanda saqlanadi!..” Shoir shaxsini va ijodini teran nigoh va hayrat bilan chuqur o'rgangan taniqli sinchilarimizdan biri Qozoqboy Yo'ldoshev ta'kidlaganidek, bunday hikmatomiz qayirmalarda ko'pni ko'rgan va dunyo kezayotgan yetuk bir shoirning boy hayotiy

kuzatishlari va salmoqli o'y-mushohadalari ham ifodalanganligi ularning haqqoniyligi va samimiyligini kuchaytirgan.<sup>27</sup>

Bunday fazilatlar Azim Suyunning nazmiy qayirmalarida ham ustuvorlik qilishini alohida ta'kidlash lozim. Shuni ishonch bilan aytish mumkinki, izlanuvchan, millatparvar yo'lovchi-ijodkorning xalqona va baxshiyona hikmatomuz qayirmalari-Istiqlol davri adabiyotimizda yangi bir sahifa. Zero, bu o'ziga xos manzumalar so'nggi yillar o'zbek she'riyatimizni nafaqat poetik shakl jihatdan boyitib qolmasdan, balki ular adabiyotimizning g'oyaviy- badiiy mazmunini va milliy ruhini yanada chuqurlashtirishga ham munosib hissa bo'lib qo'shilganligini mamnuniyat bilan qayd etish o'rinli bo'ladi. Fikrimizning dalili sifatida birgina misol keltirish bilan kifoyalanamiz:

*Ey do'st!*

*Bir nazardan er tuzalar,*

*Sharros tinar- sel tuzalar.*

*Bitta hikmat menga ayon:*

*So'z tuzalsa- el tuzalar.*

She'rda ifodalangan teran hayotiy haqiqat va inson qalbi va ruhiyatini poklovchi azaliy tuyg'ularni qay darajada his etish va shoirning poetik mahoratini anglash, albatta, har bir o'quvchining didi va saviyasiga bog'liq. Buni unutmagan holda mo'jaz she'rdagi tagma'nodor zalvorli satrlar zahirida shoirning so'zga munosabatida xalq maqol- hikmatlariga xos haqiqiy o'zbekona tafakkur kengligi, yuksak mushohada, muxtasarlik va fasohat ijodiy bir an'ana sifatida namoyon bo'lganligini ham alohida ta'kidlashni istar edik.

Nihoyat, kitobning so'nggi beshinchi fasli "Muhabbat hayratlari" deb nomlangan va unga, asosan, sevgi mavzusidagi

<sup>27</sup> Qozoqboy Yo'ldosh. Yo'l odami. Toshkent, "Muharrir" nashriyoti, 2011.

she'rlar jamlangan. Ammo an'anaviy mavzudagi bu she'rlar ishq-vafo va go'zallik taronalari bo'lsa-da, ular ham ona-Vatan tuyg'usi bilan shoirona payvand etilganki, bu ham shoirning poetik mahorati va so'z san'atidan guvohlik berib turadi. Misol tariqasida allaqachon mashhur qo'shiq bo'lib kuylanib kelinayotgan va minglab muxlislarning olqishiga sazovor bo'lgan birgina "Bu qiz" she'rini yodga olaylik:

*Hay-hay, bu qiz qomati Sirdaryo qamishidan,  
Ko'zlari rang olmishdir Forishning kishmishidan.  
So'x chashmasin suvidan yuzlarin tiniqligi  
Bobotog' kiyigidan sho'x qiyiq qiliqligi...*

Vatan fasllariaro kezib, ko'nglimizdan tiniq bir o'y kechadi: Vatan-xalq va millat tayanchi, inson o'zligining o'zagidir. O'zak- ildizimizni, ya'ni o'zligimizni mustahkamlash – har bir ijodkorning, har bir yurtdoshimizning muqaddas burchi. Vatanga muhabbat va sadoqat tuyg'usini betakror va o'ziga xos tarzda kuylab kelayotgan yetuk shoir va adiblarimizdan biri bo'lgan Azim Suyunga bundan ham jo'shqin ilhom va shavq bilan ijod qilishini tilab qolamiz.

## **ADABIYOT DARSLIKLARIMIZ MUKAMMAL BO'LSA**

### **(So'ngso'z o'rinda)**

Mustaqil respublikamizning kelajagi hozirgi yosh avlod qanchalik barkamol va ma'naviy yetuk shaxslar bo'lib ulg'ayishiga bog'liq. Bu ezgu maqsadlarimiz esa ta'lim-tarbiya tizimi va mazmunini tubdan isloh qilmasdan turib erishib bo'lmasligi ayon. Xususan, "Ta'lim to'g'risidagi qonun" va "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" talablari asosida yangi

darslik va majmualar yaratishni hayotning o'zi taqozo etmoqda. Shu munosabat bilan o'rta maktab o'quvchilari uchun mo'ljallangan "Adabiyot" darsliklarimiz yuzasidan ba'zi kuzatishlarimni bayon etmoqchiman.

E'tirof etish lozimki, so'nggi yillarda bir guruh adabiyotshunos olimlarning sa'y-harakatlari bilan umumta'lim maktablari uchun tayyorlangan "O'zbek adabiyoti" darslik-majmualari sobiq sho'ro davridagi darslik xrestomatiyalardan keskin farq qiladi. Istiqlol sharofati tufayli yuzaga kelgan va mustabid tuzum mafkurasi tazyiqidan batamom qutulgan bu darslik majmualarimiz bir qator ijobiy fazilatlarga ega. Jumladan, badiiy adabiyot namunalariga ilgarigidek sinfiylik va partiyaviylik nuqtai nazaridan emas, balki ularga eng avvalo san'at asari sifatida yondashish va badiiylik mezonlari asosida o'rganish bu darslik majmualarimizning asosiy xususiyatidir. Ammo oliy hakam bo'lgan vaqt, jo'shqin hayot va amaliyot ularni ham jiddiy sinovdan o'tkazmoqda.

Binobarin, Istiqlol epkini bilan butun hayotimiz va qalb-shuurimizda kechayotgan chuqur ijobiy o'zgarish va yangilanishlar boismi yohud o'quvchilarimizga munosib adabiy asarlar tanlash borasidagi talab-mezonlarimizning har xilligi sabablimi, har qalay, aksariyat darslik majmualarimizdan hozircha ko'nglimiz to'layotgani yo'q. Taassuflarimizdan hozircha ko'nglimiz to'layotgani yo'q. Taassuflarimizdan joyi shundaki, "Adabiyot" bo'yicha dastur yoki qo'llanmalar yaratishdan oldin bugungi maktab, kollej va akademik litseylarimiz o'quvchilarining ruhiyati va ma'naviy-estetik ehtiyojlarini, salohiyati va did-saviyasini yetarli darajada o'rganyapmiz, deb ayta olmaymiz. Albatta, "Adabiyot" darslik-majmuallarimizning har jihatdan takomillashuvi bir qator sabab-omillarga bevosita bog'liqdir. Men ularning ayrimlariga e'tiboringizni jalb etmoqchiman.

Avvalo shuni ta'kidlash lozimki, majud darslik majmuallarning ayrimlari jiddiy tuzilishi va mazmun-mundariyasi yaxlit tarzda puxta o'ylanmagan va umumiy tahrirdan o'tkazilmagan ko'rinadi. Ehtimol, shuning oqibati bo'lsa kerak, o'zgarilishi va qisqartirilishi zarur bo'lgan ortiqcha o'rinlar, bahsli mavzu va matnlar ko'plab uchraydi. Ular nafaqat mazkur darsliklarning umumiy saviyasiga, balki "Adabiyot" fanining o'qitilish jarayoniga ham salbiy ta'sir ko'rsatmasdan qolmaydi. Chunonchi, 5-11 sinflar uchun chiqarilgan "O'zbek adabiyoti" darslik-majmuallarida ko'pgina mavzu va adabiy asarlar yoki ulardan olingan matn parchalari negadir takrorlanmoqda. Masalan, qadimiy yozma yodgorliklarimizdan biri-Mahmud Qoshg'ariyning "Devonu lug'otit turk" asaridan olingan qator namunalar 5,7 va 9- sinflarning "Adabiyot" darslik -majmualariga deyarli o'zgarishsiz qayta-qayta kiritilgan. Yoxud Yusuf Xos Hojib, Ahmad Yugnakiy, Yassaviy va Rabg'uziy kabi mumtoz adabiyotimiz vakillari asarlaridan olingan aksariyat paralari ham sinfdan-sinfga deyarli bir xil yo'sin-qolipda takrorlanib keladi. Tabiiyki, bu hol darsliklarning g'oyaviy-badiiy mundarijasini boyitish va ularning ilmiy-estetik qimmatini oshirishga xizmat qilmaydi. Bundan tashqari mazkur holat ta'lim izchilligi mos emasligi bilan ham o'quvchi va murabbiylarga norozilik tug'diradi.

Shunday asossiz qaytariqlarni XX asr adabiyotimiz namoyandalari hayoti va ijodi misolida ham kuzatish mumkin. Jumladan, H.H Niyoziyning ba'zi noaniqlardan holi bo'lmagan tarjimai holiva "Yig'la, Turkiston", "Dardiga darmon istamas" kabi she'rlari ham bir necha sinf darslik-majmuallaridan o'rin olgan. Bu esa o'quvchida haqli e'tiroz uyg'otadi. Shu munosabat bilan mantiqiy bir savol berishga to'g'ri keladi. Qoshg'ariy,

Rabg' uziy yoki Hamzaning ayni bir asarning quyi sinfda o'tganda, ular yuzakiroq va qisqaroq tahlil etilishi keragu yuqori sinfga borganda esa yana shu asarlarni boshqatdan kengroq o'rganish va ko'zda tug'ilganmikin? Bizningcha, darslik-majmuallarimizni mukammallashtirish va o'quvchilarimizni fisonshunoslik deb atalmish inja bir olamga bo'lgan mehr va ishtiyoqini kuchaytirish uchun mana shunday o'rinsiz takror va qaytariqlarni bartaraf etish joiz ko'rinadi.

Ikkinchidan "To'maris" va "Shiroq" kabi eposlarimizning muhim tarixiy va tarbiyaviy ahamiyatini hech kim rad etmaydi. Lekin ularni ham ma'lum bir sinfda o'tishni rejalashtirish muqsadga muvofiq bo'ladi. Aks holda, yana bemavrid qaytariqlarga yo'l qo'yiladi va eng tashvishlisi, "Adabiyot" darslari o'quvchilarni zeriktiruvchi bir mashg'ulotga aylanib qolish xavfi tug'iladi. Shuningdek, eng qadimgi nodir Toshbitiklar va "Irq bitig" (Ta'birnoma) kabi tarixiy-adabiy matnlar to'g'risida ham o'quvchilarimizga muayyan tasavvurtushunchalar berilishi foydali, ammo bu kabi ilk yozma manbalar "Tarix" darslarida ham o'rganilishini e'tibordan soqit qilmaslik zarur.

Darslik majmualarimizning g'oyaviy-badiiy mundarijasida yo'l qo'yilayotgan nomutanosiblikning yana bir ko'rnishi mavjud: 9-sinf uchun chiqarilgan "O'zbek adabiyoti" (1997) majmuasida Lutfiy va Atoylarning an'anviy mavzudagi, yor tavsitiyu hijron motivlarini kuylovchi 20-30 talab g'azallari berilishi ham nazarimizda, bir xillikda olib kelishidan tashqari, o'quvchilarning mumtoz adabiyotimizga, ayniqsa, g'azaliyotga bo'lgan havas va qiziqishlarini ortttirmaydi. Bizningcha, Atoyining uch-to'rtta nafis she'rini keltirish kifoya edi (Alisher Navoiy "Majolis un-nafois" asarida Atoyi iste'dodi va mahoratinni yuqori baholagan holda shoirning qofiyaga yetarli

ahamiyat bermasligini ta'sidlab, birgina misol keltirish bilan kifoyalanganligini eslaylik).

Darslik – majmuallarning mazmun-svaiyasi jihatdan ulardagi adabiy asarlar va matnlarning qanchalik to'g'ri tanlanishi, chuqur va mantiqli tahlili va qolaversa, ularning hajmiga ham bog'liq ekanligi ma'lum. Shu jihatdan qaralganda ham, darslik-majmualarida ba'zi nomuvofiqliklar ko'zga tashlanadi. Chunonchi, 5-sinuchun chiqarilgan "O'zbek adabiyoti" (T., 1197) darslik majmuada ko'pgina atoqli adiblarimiz hayoti va ijodi besh-o'n sahifada taqdim etilgan holda, Asqad Muxtorning "Buxoroning jin ko'chalari" qissasiga 30 sahifa, Xudoyberdi To'xtaboyevning "Sariq devni mnib" romanidan olingan parchaga esa bugun darslikning katta bir qismi -50 beti ajratilganligini qanday izohlash mumkin? Albatta, biz bu ikki taniqli adibning o'ziga xos ijodi va ularning adabiyotimiz rivojidagi hissalarini, jumladan, mazkur asarlarining muayyan g'oyaviy-badiiy qimmatini aslo inkor etmaymiz, lekin darsliklar hajman cheklanganligini va ularda ichki bir me'yor saqlanishi-ilmiy pedagogikaning ham muhim bir talabi ekanligini yodda tutmog'imiz lozim. Qolaversa, o'zbek adabiyotida yohud jahon adabiyoti xazinasida shu sinf o'quvchilarining yoshi va saviyasiga mos bo'lgan va bulardan ko'ra ham yetukroq va ahamiyatliroq badiiy durdonalar oz emas-ku.

Yangi yaratilayotgan darslik-majmualarda "Jahon adabiyoti namunalari" berilishi har jihatdan tahsinga loyiqdir. Zero, milliy mahdudlikdan qutulishning va adabiy-estetik tafakkurimizni boyitishning asosiy bir omili ham shu. Lekin yuqoridagi kabi o'rinsiz va takror va mantiqsiz qaytariqlarni bartaraf etish va darslik-majmuallar tuzilishining usutvor yo'nalishi va me'yorlariga muvofiq kelmagan adabiy parchalarni oqilona

qisqartirish evaziga ham o'quvchilarimiz milliy va jahon adabiyotining badiiy yetuk namunalaridan ko'proq bahramand bo'lgani ma'qul. Jumladan, Avetik Isaakyan, Muxtor Avezon, Muso Jalil, Qaysin Quliyev va Vasil Bikov kabi mashhur adiblar ijodi bilan kengroq tanishtirib borilsa-yoshlarimiz tafakkuri yanada chuqurlashib hamda ularning badiiy ijod olamining ranginligi va teranligi to'g'risidagi tasavvur-mushohadalari bag'oyat kengayar edi. Men bu o'rinda ulkan ijodkorlar qatorida taniqli belarus yozuvchisi V.Bikovning urush mavzusidagi betakror asarlarini, xususan, uning "Yodgorlik" povestini faqat qiziqarli syujeti va qahramonlarining ko'pchiligi maktab bolalari bo'lganligi uchungina eslayotganim yo'q. Balki bunday asarlar umuminsoniy g'oyalar bilan yo'g'rilganligini va obrazlarining chuqur hayotiyliigi, haqqoniyligi bilan o'quvchilarga inson umrining maqsad-mohiyatini teranroq anglab yetishlari uchun ibratli saboq bo'la olishi mumkinligini ta'kidlamoqchiman.

Yaratilajak darslik-majmuallar bilan bog'liq yana bir istak-orzuyimiz: maktab, kollej va akademik litsey o'quvchilari uchun mo'ljallangan yoki oliy o'quv yurtlari talablari uchun chiqaraladigan darslik-majmualarda alohida bir bob "Istiqlol va o'zbek adabiyoti"ga bag'ishlansa va bu davr adabiyotining hayotbaxsh tamoyillari muxtasar bir shaklda yorqin aks etib tursa, ayni muddao bo'lardi. Bu hol darsliklarning zamonaviy ruhini chuqurlashtirishi va istiqlol g'oyalarining davomiyligini ta'kidlashi bilan birga, ayni vaqtda, Milliy dastur talablariga ham amaliy bir javob bo'lar edi. Nihoyat, yana bir mulohaza. Ta'lim islohati talablari bilan yangi tashkil etilayotgan akademik yo'nalishdagi ayrim litseylarda "O'zbek adabiyoti" haftasiga ikki soat, chet tillari esa besh-olti soatdan o'rganiladi. Bu bilan men chet tillari vaayniqsa, ingliz tilining muhim rolini aslo kamsitmoqchi emasman. Ammo Prezidentimiz qayta-qayta

uqtirayotganidek, nurli kelajagimiz ravnaqini ta'minlaydigan ma'naviy barkamol avlodni voyaga yetkazishda va ularni Istiqlol g'oyalarida sadoqat ruhida tarbiyalashda, eng avvalo, milliy va umuminsoniy qadriyatlar, xususan, ona tili va adabiyotini o'rni beqiyos ekanligini unutmashimiz zarur.

Albatta, darsliklarning saviyasi, g'oyaviy-badiiy mazmuni haqida qayg'urishimiz, jiddiy bahslashimiz samarasiz qolmasligiga umid bog'lash mumkin. Biroq asosiy gap-o'qituvchilarimizning kasb mahoratida ularning ijodiy Izlanuvchanligida, adabiyotni nechog'lik chuqur bilishi va e'zozlashidadir. Eng muhimi, shu yuksak bilim, e'zoz va mehrni o'quvchilarga "yuqtira olish"da. Alloma Ozod Sharafiddinov ta'kidlaganidek, o'quvchining qalbi adabiy asar beradigan barcha ma'naviy boylik va go'zalliklarni ardoqlay oladigan kuchga ega bo'lsin. U haqiqat, adolat, vijdon, to'g'rilik degan muqaddas tushunchalarni aqlangina emas, qalban his qilsin. Xullas, adabiyot uning hayotida shunday o'rin olib qolsinki, maktab quchog'idan chiqib ketganidan keyin ham u biror kunini badiiy asarsiz tasavvur qilolmasin. Kitob uning uchun suv va havodek zarur, nondek aziz bo'lib qolsin.

Prezidentimiz SH.Mirziyoyevning yaqinda Kitobning jamiyatimizdagi o'rni va ahamiyatini oshirish bo'yicha gabul qilgan qarori ham bu sohada yanada mas'uliyat bilan ishlashimizni talab qiladi. Ushbu qarorda belgilangan muhim hayotiy vazifalar adabiyot darsliklari va o'qituvchilariga ham to'la taalluqlidir.

## MUNDARIJA

|                                                    |     |
|----------------------------------------------------|-----|
| Navoiyning adabiy-estetik qarashlari haqida .....  | 3   |
| Badiiy til xususiyatlari .....                     | 13  |
| G'afur G'ulom she'riyati yolqinlari .....          | 22  |
| Adabiyotimizning so'nmas yulduzi .....             | 29  |
| Hamid Olimjon portretiga chizgilar .....           | 29  |
| Abdulla Qahhorning so'z san'atkorligi .....        | 50  |
| Mohir tarjimon va matnshunos .....                 | 72  |
| Kibriyo qahhorova haqida qaydlar .....             | 72  |
| Mirtemir va Zulfiya she'riyatida ona siymosi ..... | 89  |
| Unutilmas siymo .....                              | 97  |
| Usmon Nosir ijodiga bir nazar .....                | 97  |
| Sharof Rashidov ijodining o'rganilishi .....       | 104 |
| So'z sehri va qudrati .....                        | 113 |
| Erkin Vohidov abadiyati .....                      | 113 |
| Vatan va istiqlol ilhomlari .....                  | 143 |
| Azim Suyun she'riyatida vatan timsoli .....        | 143 |
| Adabiyot darsliklarimiz mukammal bo'lsa .....      | 152 |
| (So'ngso'z o'rinda) .....                          | 152 |

Usmon Qosimov, Lutfulla Sindorov,  
Ma'rifat Nizomova

# **ADABIYOTIMIZ SAHIFALARI**

Adabiy-uslubiy qo'llanma

*Muharrir E. Bozorov*  
*Badiiy muharrir M. Odilov*  
*Kompyuterda sahifalovchi Z. Ulug'bekova*

Nashr lits. AI<sup>1</sup> 174. Bosishga ruxsat etildi 10.02.2017.  
Qog'oz bichimi 60x84 1/16. Shartli bosma tobog'i 9,2.  
Hisob-nashr tabog'i 9,6. Adadi 250.  
4-buyurtma.

«IQTISOD-MOLIYA» nashriyotida tayyorlandi.  
100084, Toshkent, Kichik halqa yo'li, 7.

«HUMOYUNBEK-ISTIQLOL MO'JIZASI»  
bosmaxonasida ofset usulida chop etildi.  
100000, Toshkent, Amir Temur ko'chasi, 60".